farqlardan ko'rinadi: Parij matnidagi so'zlar aksariyat Navoiy o'zi tasnif bergan deb qaraluvchi 808 raqamli kulliyot matni bilan deyarli bir xil. Sulaymoniya nusxasida esa jiddiy farqlar bor. Matndagi ayrim farqli so'zlarda 808 – Revan va Parij nusxasi bir xil, Sulaymoniya nusxasi esa ulardan farqlanadi. Demak, Parij nusxasi ishonchli nusxadan ko'chirilgan. Ali Hijroniy kulliyotni 808 raqamli kulliyotdan ko'chirganmi, degan fikr ham yuzaga keladi, biroq ayrim she'rlar hajmida farqlar borligi Ali Hijroniyning qo'shimcha manbalardan foydalanganini ko'rsatadi. Ali Hijroniy kulliyotlar emas, aynan "Xazoyin ul-maoniy" devonlaridan ko'chirgan bo'lishi kerak.

Hamid Sulaymon ta'kidicha, "Parij kulliyotining "Xazoyin ul-maoniy" qismida boshqa qo'lyozmalarda uchramagan va biz chop ettirgan to'rt tomlikka ilova qilingan she'rlarga ham kiritilmagan Alisher Navoiyning 33 g'azali uchraydiki, bu mazkur qo'lyozmaning ahamiyatini yanada orttiradi. Bu g'azallarning ko'pchiligi Istanbul kulliyotida ham bor, lekin "Xazoyin ul-maoniy" gacha bo'lgan "Devon" va devonlar majmuasining bizga ma'lum bo'lgan biror-tasida ham uchramaydi" [Sulaymonov 1973, 194]. Ko'rinadiki, Parij nusxasi ko'plab afzalliklariga ko'ra ilmiy-tanqidiy, qiyosiy-matniy tadqiqotlar uchun tayanch asoslardan biri bo'la oladi.

Ta'kidlash joiz, Hamid Sulaymon "Xazoyin ul-maoniy" devonlari akademik nashrini tayyorlashda Sankt-Peterburgdagi 1498/99-yillar ko'chirilgan №55, Tojikiston FA Sharqshunoslik fondidagi 1499/500-yillar ko'chirilgan №1990 va Toshkent fondlaridagi qo'lyozmalardan foydalangan. Olim "Xazoyin ul-maoniy"ning akademik nashriga yozgan so'zboshida aynan "Favoyid ul-kibar" matnini tayyorlashda yuqoridagi ikki qo'lyozmaga tayanganini qayd etadi. Yuqorida qayd etilgan har uch kulliyot – Revan №808, Parij №316 – 317, Sulaymoniya №4056-nusxalari olim devonlarni nashrga tayyorlagandan so'ng qo'lga kiritilgan. Keyingi nashrlarda mazkur nusxalar asosida qayta ko'rib chiqilgani va to'ldirilgani aytiladi. Agar Navoiy davrida ko'chirilgan devon qo'lyozmalaridan, jumladan, Sankt-Peterburgdagi №55, Tojikiston FA dagi №1990 raqamli qo'lyozmalardan Hamid Sulaymon foydalangan bo'lsa, kulliyotga asos bo'lgan asl manba qayerda, degan savol tug'iladi. Negaki, Hamid Sulaymon foydalangan matn Sulaymoniya Fotih kutubxonasi nusxasidagi matnga juda yaqin bo'lib, Revan va Parij kulliyotidagi matndan farqlanadi. Biroq g'azallarning tartibi har uchalasida ham bir xil. Shunday holatda Revan va Parij nusxasiga yaqin alohida devonlarning qadimiy

manbalari bormikan, degan savollar yuzaga keladi. Albatta, buning uchun har bir matnni sinchiklab qiyoslash lozim. Matniy qiyoslar manbalarning xususiyatini ochib beradi.

Parij kulliyotidagi farqli baytlar

Kulliyotning o'zgachaligi – unda qo'lyozmalarda yo'q ayrim baytlar mavjud. Matniy qiyoslarda ayni baytlar olimlar Alisher Navoiyning o'zi tasnif qilgan deb qaraluvchi 808 raqamli kulliyotda ham yo'qligi ma'lum bo'ladi. Bundan quyidagicha xulosa qilish mumkin:

1. Agar 808 raqamli kulliyotni Alisher Navoiyning o'zi tasnif qilgan bo'lsa, tushirib qoldirilgan ayrim baytlarni shoirning o'zi ongli tarzda kiritmagan, she'rlarni kulliyotga ko'chirtirayotganda matniy tahrir qilgan bo'lishi mumkin. №808 da 7 baytli g'azal, Parij nusxadagi bir baytni qo'shish bilan 8 baytli g'azalga aylangan. Yaqin yillargacha Navoiy lirikasidagi 8 baytli g'azallar bahsli bo'lgani navoiyshunoslarga ma'lum.

2. Kulliyotni ko'chirgan Ali Hijroniy Alisher Navoiy yashagan davrdan 25 yil farq bilan Hirotida ko'chiryapti. Har holda, xattot Sultonali Mashhadiy asos solgan Hirot maktabi davomchisi. Garchi keyinchalik shayboniylar, so'ng savafiylar egallagan bo'lsa ham, xattot temuriylar davri adabiy maktabi vakili. Uning qo'lida Navoiy devonlarining mo'tabar nusxalari bo'lgan va ortiqcha baytlarni ulardan ko'chirgan bo'lishi mumkin.

3. Parij nusxasidagi ortiqcha bayt Navoiy tahrir qilib №808 raqamli kulliyotga tartib berilayotgan vaqtdan oldingi manbalardan olingan bo'lsa, agar uni Alisher Navoiyning o'zi tahrir qilib atay kiritmagan desak, Navoiyning ijodiy prinsiplariga tayangan bo'lamiz. Garchi Navoiy tirik paytida tahrir uchun ortiqcha baytlardan kechgandir, biroq bugun Navoiy har kuni she'r yozib qoldirishi imkonsiz bo'lgan olis davrdagi biz uchun bu satrlar juda qiymatli.

O'rganilayotgan Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar" devoni matni tarkibda 202b – 268b-sahifalarda joylashgan. Matnlar qiyosidan bir qancha baytlar faqat Parij nusxasida borligi aniq bo'ladi. Jumladan, devondagi "Qachon maktabda ul mohi muaddab" matla'li 46-g'azal Revan №808, Sulaymoniya № 4056 va joriy 10 tomlik nashrda 7 baytdan iborat.

	G'azal matni	Parij kulliyotidagi matn
1	<i>Qachon maktabda ul mohi muaddab Borur, o'z din borurlar ahli maktab.</i>	قچن مکتب دا اول ماه مؤدب بارور، اوزدين بارورلار اهل مکتب.

2	<i>Bo’lur lavhi zabarjad ahli hayron, Chu olur ilgiga lavhi muzahhab.</i>	بۇلور لوح زبرد اهلى حيران، چو آلور ایلگىگا لوح مذهب.
3	<i>Degach abjad, boshig’a evrulurlar Qamar birla quyosh, ya’ni jad-u ab.</i>	دېگاچ ابجد، باشیغه اپورولورلار قمر بیرله قویاش، یعنی جد و اب.
4	<i>Nechukkim maktab atfoli xurushi, G’amidin xalq aro faryod-u yo Rab.</i>	نېچوک کیم مکتب اطفالی خروشی غمیدین خلق ارا فریاد و یا رب.
5	<i>Muallim qullug’ig’a xat berurmen, Gar ozod o’lsa ul sarvi shakarlab.</i>	معلم قوللۇغى غه خط بېرورمېن، گر آزاد اولسا اول سرو شکرلېب.
6	<i>Dabistoni fanoda shurb darsin Ravon qilmay, emassen ahli mashrab.</i>	دبستان فناده شرب درسین روان قیلماي، ایماسسین اهل مشرب.
7	<i>Qachon behush o’lurmen o’zlukumdin Agar to’ldursang jomim labolab.</i>	قچن بیهوش اولورمین اوزلوکومدین، اگر تولدورسنگ، جامیم لبالب.
8	<i>Navoiy ashkidin to shom anjum To’kar, chiqqaymu deb ul sa’d kavkab.</i>	نوايى اشکیدین تا شام انجم توکار، چیققای مو دېب اول سعد کوکب.

G’azalda maqta’dan oldin kelgan “*Qachon behush o’lurmen o’zlukumdin /Agar to’ldursang jomim labolab*” bayti faqat Parij kulliyotida bor. Matn qiyoslanganda ayrim so’zlarda ham farqlar borligi aniqlandi. Joriy nashrda ham mavjud bo’lmagan mazkur baytni, demak, Ali Hijroniy bizga ma’lum bo’lmagan boshqa qo’lyozmadan olgan.

She’r mazmuniga e’tibor berilsa, g’azal oshiqona mazmunda. G’azalda oshiqning harakatlari jonli tarzda voqeabandlikda davom etadi. Deyarli har bir baytda voqealar o’sib boradi, maktabga oshiqning borgani, yorni intizor kutish asnosida ustozga yorni darsdan ozod qilish xatini uzatishi mazmunida davom etadi. Aynan tushirib qoldirilgan baytda maktab bilan bog’liq emas, oshiqning qalbini yor ishq mayiga to’ldirsa, o’zlukidan ketishi, hushidan ketib, ishqda sarxush bo’lishi mazmuni ifoda etilgan. She’rning kompozitsiyasiga ko’ra, voqeabandlik yuqoridagi misralarda yakun topadi. Maqta’da shoirning xulosasi va o’z-o’ziga murojaati beriladi. Parij nusxasida uchraydigan mazkur bayt she’rdagi maktab voqeasi bilan bog’lanmagan, ammo ishq mavzusiga aloqador. Baytning tushib qolishi she’r mazmuniga jiddiy ta’sir ko’rsatmagan. Faqatgina Parij nusxada berilgan mazkur bayt Navoiyning o’zi tomonidan boshqa qo’lyozmalarga kiritilmagan bo’lish ehtimoli bor.

Alisher Navoiyning “Favoyid ul-kibar” devoni qiyosiy-yig’ma matni bo’yicha dissertatsiya himoya qilgan va devonni turk alifbosida qiyosiy nashrlar bilan chop qilgan Onal Kaya ham tushirib qoldirilgan baytlarni kiritib o’tgan [Kaya 1989]. Onal Kaya matnni ko’chirishda asosan 808 raqamli kulliyotga tayangan, matn ostida boshqa qo’lyozmalardagi farqlar ko’rsatilgan, ya’ni matn ostida

qiyosiy matn shakllantirilgan. Devondagi gʻazallar tartibi va soni Toshkentdagi devon nashrlaridan farqlanadi. Onal Kaya asos qilib olgan qoʻlyozmalardagi gʻazallarning barchasi kiritib ketilgan.

Baytlarning oʻrin almashishi

“Favoyid ul-kibar”dagi 137-gʻazalda ham “Jon aziz asru fido-yu yori joni boʻlgʻali / Der na ekin oshiqi bechora ul jonni netar” bayti har uch kulliyotdan faqatgina Parij nusxasida bor. “Vaslidin chun multafit koʻproq boʻlur furqatda yor” matlaʼsi bilan boshlanuvchi mazkur gʻazal anchayin muammoli gʻazal. Gʻazalning “Soʻz diyor-u yordin soʻrmongki, hijron dashtida / Qolgʻali bekas unut boʻlmish manga yor-u diyor” mazmunidagi 6-bayti haqida Alisher Navoiy asarlarining 20 tomlik nashrida quyidagicha izoh berilgan: “Bu gʻazal “Navodir un-nihoya” devonidan kiritilgan boʻlib, qoʻlyozmada “Soʻz-u yor-u yordin soʻrmongki, hijron dashtida / Qolgʻali bekas unut boʻlmish manga yor-u diyor” bayti bor, ammo u “Xazoyin ul-maoniy”ning XV – XVI asr qoʻlyozmalarining birortasiga ham kiritilmagan, shuning uchun mazkur bayt tushirib qoldirildi” [Navoiy 1990, 72–73], deyiladi. Bayt 20 tomlikdan tushirib qoldirilgan boʻlsa-da, 10 tomlikda oltinchi bayt sifatida keltirilgan. Natijada 10 tomlikda iqtibosda emas, sheʼr matnidan oʻrin olgan mazkur bayt bilan 7 baytli gʻazalga aylangan, iqtibosdagi tushuntirish berib oʻtilgan izoh olib tashlangan. Parij qoʻlyozmasini qiyosiy matn uchun tekshirish jarayonida topilgan mazkur bayt tufayli sheʼr 8 baytli gʻazalga aylandi.

Shu oʻrinda “Navodir un-nihoya”dan “Favoyid ul-kibar”ga oʻtgan gʻazalning qay tarzda oʻzgarishi va farqli jihatlarini qiyosiy jadvalda koʻrib oʻtamiz:

	“Navodir un-nihoya”	“Favoyid ul-kibar”
1	Vaslidin chun multafit koʻprak boʻlur furqatda yor, Tarki vasl aylab qiling, ahhob, furqat ixtiyor.	Vaslidin chun multafit koʻproq boʻlur furqatda yor, Tarki vasl aylab qiling, ahhob, furqat ixtiyor.
2	Dema koʻnglung boʻldimu tark aylamoq yor-u vatan, Ne koʻngulni tark qilmoq, ne vatan, vah, qaysi yor.	Dema koʻnglung boʻldimu tark aylamak yor-u vatan, Ne koʻngulni tark qilmoq, ne vatan, vah, qaysi yor.
3	Soʻz-u yor-u yordin soʻrmangki, hijron dashtida Qolgʻali bekas unut boʻlmish menga yor-u diyor.	Topmadim bar nechakim mehr-u vafo tufrogʻida, Dona sochtim ashkdin, kirpik bila aylab shiyor.

4	Topmadim bir nechakim mehr-u vafo tufrog'ida Dona sochtim ashkdin kiprik bila aylab shiyor.	Siymgun ashk o'lmoq oltundek yuz uzra ne osig', Jism hijron ko'rasida bo'lmayin xolis iyor.
5	Siymgun ashk emas oltundek yuz uzra, ne osig', Jism hijron ko'rasida bo'lmayin sohib iyor.	Kimki, olam xalqi birla oshnolig' qilmadi, Oni de farxunda axtar, muni bilgil baxtiyor.
6	Kimki olam ahli birla oshnolig' qilmadi, Oni de farhunda baxt-u oni bilgil baxtiyor.	So'z diyor-u yordin so'rmongki, hijron dashtida Qolg'ali bekas unut bo'lmish manga yor-u diyor.
7	Holini naylab nihon tutsun Navoiy xastakim, Tiysa ashkin oh urar, yig'lar agar ohin tiyor.	Jon aziz asru fido-yu yori joni bo'lg'ali Der na ekin oshiqi bechora ul jonni netar.
8		Holini naylab nihon tutsun Navoiy xastakim, Yetsa ashkin oh urar, yig'lar agar ohin tiyor.

Ko'rinadiki, "Navodir un-nihoya"dan ko'chib o'tgan g'azal baytlar aro o'zgarishga uchragan. "Jon aziz asru fido-yu yori joni bo'lg'ali /Der na ekin oshiqi bechora ul jonni netar" misrasi faqatgina Parij nusxasida bor, qolgan har 7 baytning ham joyi almashgan. Parij nusxasidagi bayt bilan qo'shilib, "Favoyid ul-kibar"da 8 bayt hosil bo'ldi. Mazkur bayt g'azal mazmuni bilan shaklan va mazmunan bog'langan, ammo qofiyasi mos tushmaydi.

Xulosa

Har holda, aksariyat nashrlarda uchramaydigan baytlar Navoiyning o'zi tomonidan ongli tarzda kiritilmagan bo'lish ehtimoli bor. Faqatgina Parij kulliyotidagi mavjud baytlar ham o'z o'rnida fanda katta ilmiy qimmat kasb etadi. Alisher Navoiyning boshqa devonlarini ham kulliyotlarga qiyosiy o'rganish zarurati bor. Zero, Revan nusxasi shoirning o'zi tiriklik davrida ko'chirilgan manba sifatida qadrlansa, Sulaymoniya kutubxonasi nusxasidagi "Favoyid ul-kibar" matni hoshiyalarida esa Navoiyning devonlarga kirmay qolgan she'rlari ko'chirilgan. To'g'ri, ayrim yangi topilgan baytlar tahrir davomida tushirib qoldirilgan bo'lishi mumkin. Biroq bugungi kun ilm-fani buyuk shoirga tegishli har qanday so'zni, satrni qadrlaydi. Sababi, ular shoir ijodining mahsuli, navoiyona tafakkur mevalari. Bugun topilayotgan qadim manbalarni matniy tekshirish yangi ma'lumotlarni berishi shubhasiz.

Adabiyotlar

- Алишер Навоий. 1990. *Мукаммал асарлар тўплами*. 20 жилдлик. 6-жилд: Ҳазойин ул-маоний: Фавойид ул-кибар. Илмий-танқидий матн асосида нашрга тайёрловчи: Ҳамид Сулаймон. Тошкент: Фан.
- Алишер Навоий. 2011. *Фавойид ул-кибар. Ҳазойин ул-маоний*. Тўртинчи девон. Тошкент: Тамаддун.
- Алишер Навоий. 2021. *Фавойид ул-кибар. Ҳазойин ул-маоний*. Тўртинчи девон. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.
- Alisher Navoiy. *Kulliyot*. Qo'lyozma. Fransiya Milliy kutubxonasi. Suppl. Turc. 317-inv. raqam.
- Мадалиева, О. 2021. *Алишер Навоий девонлари қўлёзмаларининг таркибий-қийёсий тадқиқи*. Тошкент: Донишманд зиёси.
- Ҳакимов, М. 1980. “Алишер Навоий “Куллиёт”ини илмий тавсифлаш тажрибасидан”. *Адабий мерос* 3 (15): 9 – 16. Тошкент.
- Ҳакимов, М. 1988. “Шарқ китобат ишида “Куллиёт”нинг ўрни”. *Адабий мерос* 1988. 3(45): 74 – 77. Тошкент.
- Каюа Ўнал. 1989. *Ali Şir Nevayî "Fevayidü'l-Kiber" (inceleme-metin-dizin)*. Doktora tezi. Ankara Üniversitesi / Sosyal Bilimler Enstitüsü.
- Сулаймон, Ҳамид. 1981. “Алишер Навоийнинг Париж куллиёти”. *Шарқ юлдузи* 2: 191 – 194. Тошкент.
- Сулаймон, Ҳамид. 1973. “Алишер Навоий куллиёти қўлёзмалари тадқиқотидан”. *Адабий мерос* 3: 83 – 93. Тошкент.
- Сулаймонов, Ҳ. 1959. “Ҳазойинул-маоний” текстларини ўрганиш ва нашрга тайёрлашнинг асосий масалалари. Алишер Навоий. “Ҳазойинул-маоний”. Т. 1.: “Ғаройибус-сиғар”. Т.: Ўз ССР ФА нашриёти, 17-б.

The Preservation of Ghazal Integrity in the Manuscript Copies of the *Fawāyid al-Kibār Dīvān*

Ozoda Tojiboeva¹**Abstract**

The divans of Alisher Navoi, who left the greatest lyrical legacy in Turkic literature, occupy an important place in Uzbek literature. Today, Navoi's lyrics, which number eight divans in Turkic and one in Persian

¹Ozoda T. Tojiboeva – Doctor of Philosophy (PhD) in philological sciences, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: ozoda@navoiy-uni.uz

ORCID-ID: 0000-0003-4742-8357

For citation: Tojiboeva, O. T. 2025. “The Preservation of Ghazal Integrity in the Manuscript Copies of the *Fawāyid al-Kibār Dīvān*”. *Golden scripts* 1: 43 – 53.

known to science, are an important object of research. Over the past years, several articles have been published on the poet's hitherto unpublished poems. Today, thanks to free access to manuscripts in world collections, comparative studies of publications and manuscripts can provide science with new information. A textual comparison of divans contained in collections that are valued as unique sources in science is necessary.

In this article, the Paris Collegium, one of the collections that contains 26 works by Alisher Navoi, is considered as the main object. The differences between the poems in the text of the collection "Favoyid ul-Kibar" and the texts of the collections "Revan" and "Fatih" are shown.

Key words: *manuscript, collection, calligrapher, sofa, text, editing, poems.*

References

- Alisher Navoiy. 1990. *Mukammal asarlar to'plami*. 20 jildlik. 6-jild: Xazoyin ul-maoniy: Favoyid ul-kibar. Ilmiy-tanqidiy matn asosida nashrga tayyorlovchi: Hamid Sulaymon. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy. 2011. *Favoyid ul-kibar. Xazoyin ul-maoniy*. To'rtinchi devon. Toshkent: Tamaddun.
- Alisher Navoiy. 2021. *Favoyid ul-kibar. Xazoyin ul-maoniy*. To'rtinchi devon. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
- Alisher Navoiy. *Kulliyot*. Qo'lyozma. Fransiya Milliy kutubxonasi. Suppl. Turc. 317-inv. raqam.
- Madaliev, O. 2021. *Alisher Navoiy devonlari qo'lyozmalarining tarkibiy-qiyosiy tadqiqi*. Toshkent: Donishmand ziyosi.
- Hakimov, M. 1980. "Alisher Navoiy "Kulliyot"ini ilmiy tavsiflash tajribasidan". *Adabiy meros* 3 (15): 9 – 16. Toshkent.
- Hakimov, M. 1988. "Sharq kitobat ishida "Kulliyot"ning o'rni". *Adabiy meros* 1988. 3(45): 74 – 77. Toshkent.
- Kaya Önal. 1989. *Ali Şir Nevayi "Fevayidü'l-Kiber" (inceleme-metin-dizin)*. Doktora tezi. Ankara Üniversitesi / Sosyal Bilimler Enstitüsü.
- Sulaymon, Hamid. 1981. "Alisher Navoiyning Parij kulliyoti". *Sharq yulduzi* 2: 191 – 194. Toshkent.
- Sulaymon, Hamid. 1973. "Alisher Navoiy kulliyoti qo'lyozmalari tadqiqotidan". *Adabiy meros* 3: 83 – 93. Toshkent.
- Sulaymonov, H. 1959. *"Xazoyinul-maoniy" tekstlarini o'rganish va nashrga tayyorlashning asosiy masalalari*. Alisher Navoiy. "Xazoyinul-maoniy". T. 1.: "G'aroyibus-sig'ar". T.: O'z SSR FA nashriyoti, 17-b.

Alisher Navoiy toshbosma devonlarining mo'tabar qo'lyozmalar bilan matniy-qiyosiy tadqiqi

Dilnoza Rustamova¹

Abstrakt

Ushbu maqola Navoiy toshbosma devonlarining matniy-qiyosiy tadqiqiga bag'ishlangan. Matnlar qiyosi "Badoye' ul-bidoya"ning Toshkent nusxasi (inv. 216) va Darvesh Muhammad Toqiy ko'chirgan Istanbul To'pqopi saroy kutubxonasida saqlanayotgan Navoiy kulliyoti (Revan 808) hamda Davlat adabiyot muzeyi fondida saqlanayotgan shoir devonlari-ning №872, 306, 771, E.6, 237, 248, 229, 944, 912, 22, 219, 220, 18, E.19 toshbosma nusxalari asosida amalga oshirilgan. Natijada bir qancha matniy farqlanishlar aniqlangan va ularning kelib chiqish sabablariga to'xtalangan.

Kalit so'zlar: *qo'lyozma manba, toshbosma devon, kotib, noshir, "Qaro ko'zum", g'azal, radif.*

Kirish

Navoiy lirik asarlarining sahih matnini yaratish qo'lyozma, toshbosma manbalar va joriy nashrlarni kompleks tarzda tekshirishni taqozo etadi. Bunda shoir yashagan davr hamda o'rtadagi besh yuz yillik masofa ijodkor adabiy merosining qay darajada o'zgarishlarga uchragani, asl matn qanchalik saqlanib qolgani yoxud uzoqlashilganiga oid ma'lumotlar manbalarni qiyoslash orqali yuzaga chiqadi. Zotan, akademik D.Lixachev "...har bir asar muallifning boshqa asarlari bilan bog'liq holda, to'plamlar, davriy nashrlar, arxivlarning bir qismi, o'z davri adabiyoti bilan o'zaro aloqada bo'lishini yozar ekan, izolyatsiya qanchalik kam bo'lsa, asar matnining tarixini tiklashga shunchalik imkoniyat bo'ladi", deb hisoblaydi [Лихачев 1964, 61].

Toshbosma devonlardagi she'rlarning matnlarini noyob qo'lyozmalar bilan solishtirish natijasida farqlanishlar kuzatiladi.

¹Rustamova Dilnoza Ahmad qizi – Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi ilmiy xodimi.

E-pochta: dilnozaahmadqizi@gmail.com

ORCID ID: 0009-0008-5422-9915

Iqtibos uchun: Rustamova, D. A. 2025. "Alisher Navoiy toshbosma devonlarining mo'tabar qo'lyozmalar bilan matniy-qiyosiy tadqiqi". *Oltin bitiglar* 1: 54 – 71.

1. So'z va so'z birikmalarini o'zgartirgan farqlar

Navoiy terma devonlaridagi so'z va birikmalarining farqlanish holatlari boshqa o'zgarishlarga qaraganda ko'proq uchraydi. "Qaro ko'zum..." Navoiy ijodiy evolyutsiyasining boshlanish davriga tegishli barcha zamonlarda mashhur va eng ko'p tahlil, talqin qilingan g'azallaridan biridir. Uning matni shoir hayotligida dastlab "Ilk devon", keyinchalik "Badoye' ul-bidoya", so'ngida "G'aroyib ussig'ar"dan o'rin olgan bo'lsa, XX asrdagi toshbosma devonlarda ham faol she'rlardan sanalgan. G'azalning, asosan, 1900 – 1910-yillardagi nashrlarga kirganligi kuzatiladi. Asar matni xattot Ali ibn Nur tomonidan 1486-yilda Hirotda kitobat qilingan "Badoye' ul-bidoya"ning Toshkent nusxasi (inv. 216) va Darvesh Muhammad Toqiy ko'chirgan Istanbul To'pqopi saroy kutubxonasida saqlanayotgan Navoiy kulliyoti (Revan 808)¹ bilan qiyoslanganda, ayrim juz'iy o'zgarishlarga uchragani, bu esa mazmunga jiddiy ta'sir ko'rsatmagani anglashiladi. Bunday o'zgarishlarning asosiy qismi qo'shimchalarning turli shaklda qo'llanilishi bilan sodir bo'lgan. Xususan, 220-raqamli devonning 1-, 2-baytlari:

قرا كوزوم كيل مردم ليغ ايمدى فن قيلغيل
كوزوم قراسيغا مردم كيبي وطن قيلغيل
يوزونگ گليغا كونگل روضه سين يا ساب گلشن
قدينگ نهاليغا جان گلشنين چمن قيلغيل.

shaklida berilgan. Mazkur misralar 216 va 808 raqamli qo'lyozma bilan qiyos qilinganda *مردومليغ so'zi* *مردوملوغ* tarzida xato ko'chirilgani ma'lum bo'ldi. *قراسيدا so'zi* №6, №229, №912 devonlarda , *قراسيگا* , 219№ nusxada *قراسيغا* shaklida yoki 6-baytdagi *تاميدا so'zining* *تاميجا* bo'lib kelishi esa mantiqan xato emas. Zero, boshqaruvchi fe'lning xarakteri bilan bog'liq holda jo'nalish kelishigining o'rin-payt kelishigi o'rnida qo'llanilish holatlari eski o'zbek tilida uchrab turadi [Абдурахмонов 2008. 98]. Qolaversa, 1905 – 1917-yillar adabiy tilida, xususan, Behbudiyning "Padarkush" dramasida ham "-da"-ning "-ga" bilan almashgani "... usuli jadida maktabigami o'qiydur, yoinki eski maktabga?" shaklida o'z aksini topgan [Бехбудий 2021, 96]. 2-baytdagi *گليجا so'zi* 5- , *baytdagi وصاليجا so'zining* *وصاليجا deb* berilishini esa XX asr boshlarida imlo qoidalarining unifikatsiya qilinmaganligi bilan izohlash mumkin.

يا ساب birikmasining №912 va №219 nusxalarda *يا ساب* "Chor devon"ning Xiva matbaasidagi matnida esa *يا سار* shaklida

¹ Keyingi toshbosma matnlar ham aynan shu manbalar bilan qiyoslanganda inventar raqamlarini ko'rsatish bilan kifoyalaniladi.

kelishi jumla ma'nosiga biroz ta'sir ko'rsatgan [Chor devon №10293]. Baytning ikkinchi misrasidagi buyruq maylini bildirgan "qilg'il" radifi o'zidan oldingi fe'lni ham shu ma'noda kelishini talab etadi. Ya'ni Najmiddin Komilov talqin qilganidek, "Ey yor, ko'nglimning bog'ini yuzingning guli uchun gulshan qil, jonimning gulshanini esa qading niholi uchun chaman qilgin" [Комилов 2012, 175]. Ravishdosh "-b" yoki o'tgan zamon sifatdosh "-r" qo'shimchasi esa bu ma'noga putur yetkazadi.

"Qaro ko'zum..." g'azali tahlillarining qiyosiy-tanqidiy tadqiqini amalga oshirgan adabiyotshunos N.Jumaxo'ja B.Do'st-qorayev talqinini berayotib "yasab" so'ziga duch keladi va havolada uni "...nazarimizda, bu shunchaki anglashilmovchilik", deb izohlaydi [Жумахўжа 2021, 209]. Ammo bu holatning bir necha nashrlarda ham uchrashi "shunchaki anglashilmovchilik" emas, atay o'zgartirilgan deb qarashga undaydi. Masalan, Xislat o'z zamonasining ardoqli hofizi Mullo To'ychi Toshmuhammedovga bag'ishlab 1912-yilda tuzgan "Armug'oni Xislat" bayozida "Shashmaqom"ning "Ushshoq" kuyida aytilgan "Qaro ko'zum" matnida ham **يا ساي** shaklida kelgan. Mullo Sayidxo'ja 1910-yil Buxoroda ko'chirgan №219 va Mullo Yo'ldosh 1914-yilda Toshkentda kitobat qilgan №912 nusxalarning bayoz bilan vaqtlari bir-biriga yaqindir. Ehtimol, ular tayangan manba o'xshash yoki ayni bo'lgan. Ammo N.Jumaxo'ja ta'kidlaganidek, "mumtoz asarlar matniga kiritiladigan har qanday o'zgartish ilmiy jihatdan asoslantirilishi shart" [Жумахўжа 2021, 59]. Asos bo'lmagan holatda matn mazmuni aniqligiga soya solishi mumkin. Shunga qaramay, yuqorida keltirilgan farqlanishlar asar mazmuniga jiddiy ta'sir ko'rsatmagan deyish mumkin.

№229 va №912 toshbosma devonlardagi "Qaro ko'zum..."-ning so'nggi bayti:

نوایی انجمنی شوق جان ارا توزسانگ
انینگ باشاغلیغ اوقین شمع انجمن قیلغیل

kotiblarning e'tiborsizligi sabab tushirib qoldirilgan.

Ma'lumki, Navoiy devonlaridagi g'azallarning to'rttdan uch qismi, balki undan ham ko'prog'i, ishq mavzusi bilan bog'liqdir [Хайитметов 2015, 122]. Toshbosmalardagi eng ko'p takrorlanadigan she'rlarni ham muhabbat mavzusidagilari tashkil qiladi.

Xususan, o'n to'rtta toshbosma devondagi g'azallar solishtirilganda, an'anaviy hamd va na't she'rlaridan so'ng, asosan, oshiq ishq tavsifiga bag'ishlangan asarlar o'rin olgan. Ulardan xalq orasida mashhur, yod olingani, qo'shiq qilib kuylangani, shubhasiz, "Badoye' ul-bidoya" devonidan olingan oshiq va ma'shuq dialogiga asoslangan

“Sanga” radifli g‘azaldir. Ushbu asar biz tadqiq etayotgan terma devonlarning barchasida mavjud. Uning ikkinchi bayti №216 va №808 qo'lyozma nusxalarda quyidagicha:

هر نچا دیدیم کی کونکوندین اوزای سیندین کونگل
وه کی کونکوندین بتراک مبتلا بولدوم سنگا.

№872, №306, №771, №19, №219, №220 toshbosma nusxalarda esa mana bu tarzda:

وه نچا دیدیم کی کونکوندین اوزای سیندین کونگل
وه کی کونکوندین بتراق مبتلا بولدوم سنگا

ko'chirilgan. Ko'ringanidek, baytlar orasida ikki farq mavjud. Ulardan biri shakliy – ning davr tili talaffuziga moslangan بتراق bo'lsa, keyingisi ma'no farqlanishiga ega نچا birikmasining نچا qilib o'zgartirilganidir.

Baytning nasriy bayoni bunday: Sendan ko'ngil uzishga har qancha urinmay, ajabki, kundan-kun senga chandon bog'lanib qoldim. Agar “vah” so'zining gap mazuniga “oh, o'kinch, tashvish; ajabo, ajab” kabi ma'nolarni yuklashi hisobga olinsa, bir baytning o'zida ikki marta ajablanishga hojat yo'q! [Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати 1983, 369].

Ehtimol, kotiblar keyingi misradagi وه ga e'tiboran, bayt boshidagi so'zni ham shu asosda o'qigandir. Shunisi ma'lumki, bunday nusxalarning dastlabkisi Shohmurod xattot 1888-yilda ko'chirgan №872 bo'lsa, so'nggisi 1915-yilda Mullo O'tab dastxatiga mansub №220 kليات ديوان امير نوای toshbosmasidir. Boshqa tomondan esa, Shohmurod ibn Shohne'-matulloh tayyorlagan matndan keyingi kotiblar foydalangan bo'lishlari mumkin. Zero, XIX asrga daxldor Qo'qon hududida Muhammadlatif ibn Muhammadsharif Keshiy tomonidan ko'chirilgan “Xazoyin ul-maoniy”ning O'zR FASHI fondida saqlanayotgan №9746 hamda №1715 qo'lyozmalarida yoki “Chahor devon”ning yagona to'liq toshbosma nashri sanalgan №10293da ham bunday farqlanish mavjud emas.

“Badoye' ul-vasat” devonidan kirgan quyidagi g'azal matla'si ham №872, №306, №237, №19, №220 toshbosmalarda biroz o'zgarish bilan ko'chirilgan:

کونگلوم یوزار غمینگ تونی هر لحظه قیغولوق
چون شام بولدی هر نفس آرتار قرانغولوق.

Uning matni №216 va №808 qo'lyozma nusxalarda:

کونگلوم بولور غمینگ تونی هر لحظه قیغولوق
چون شام بولدی هر نفس آرتار قرانغولوق.

shaklida tog'ri berilgan.

Toshbosma nusxadagi bozor so'zining o'rnida ishlatilishi bayt mazmuniga zarar yetkazmagan. G'am tunining har onida qayg'u ko'ngilni buzishi va qalbning qayg'uda bo'lishi o'rtasida unchalik katta tafovut yo'q. Shu bilan birga, g'azalning 6-baytida ham quyidagicha holatni ko'rish mumkin:

اندىن فلكنى ايلمس ايکين کوزگا پر دیر.

کیم بو ایرور حقیر جنابی انینگ اولوق.

Baytning tog'ri matni esa №216 va №808 qo'lyozma nusxalarda bu tarzda berilgan:

ایدىن فلکنى ايلمس ايکين کوزگا پر دیر

کیم بو ایرور حقیر جنابی انینگ اولوق.

Ko'rinib turibdiki, u harfining so'z o'rtasida kelgan shakli xato o'qilishi natijasida "oydin falak..." sifatlovchi aniqllovchili birikmasining ma'nosi o'zgargan. "Andin falakni ilmas ekan ko'zga piri dayr" misrasida fikr noaniqlik kasb etgan.

2. She'rning ayrim qismlari - bayt yoki bandlarni o'zgartirgan farqlar.

Mumtoz matnlarda bir harf o'zgarishi ham so'zning o'zgacha ma'no ifodasini yoxud bayt, band ma'nosini o'zgartirib yuborishi mumkin. Navoiyning lirik asarlari bayt yoki band tarzida mustaqil ma'no ifodalasa-da, ularning bir-birini taqozo qilishi yaxlit mantiqiy tizimni hosil qiladi. Shunday qilib, bir harf, bir so'zning o'zgarishi asar g'oyasiga ta'sir etishigacha olib boradi.

"Sanga" radifli g'azalda bir so'z o'rnida boshqasi qo'llanilishi oqibatida bayt ma'nosi yo'nalishi o'zgargan holatlar mavjud. To'rtinchi bayt 872, 306, 771, 912, 944, 22, 19, 18, 219, 220-devonlarda bu tarzda ko'chirilgan:

قای پری پیکرگا دیرسین تیلبا بولدونگ بو صفت

ای پری پیکر نی قیلسانگ قیل فدا بولدوم سنگا.

№6, №229-devonlarda esa:

قای پری پیکرگا دیرسین تیلبا بولدونگ بو صفت

ای پری پیکر نی قیلسانگ قیل منگا بولدوم سنگا.

baytining matni Navoiy kulliyoti (№808) bilan bir xil. Ammo №216 qo'lyozmada biroz farqlanish bor. Mazkur nusxada poetik mazmun mukammalligiga putur yetgan:

قای پری پیکرگا دیرسین تیلبا بولدونگ بو صفت

ای پری پیکر نی قیلسانگ قیل سنگا بولدوم سنگا.

Shu bois "Badoye" ul-bidoya"ning kirill alifbosidagi nashrida ham ayni jumla takrorlangan:

Qay pari paykarga dersen telba bo'ldung bu sifat,

Ey pari paykar, ne qilsang qil, sanga bo'ldum sanga.

[Навоий 1987, 48].

Albatta, qo'lyozma har qancha noyob nusxa bo'lmasin, kotib yo'l qo'yadigan xatoliklardan xoli bo'lishi mushkul. Bu holatda esa matnning muallif varianti mantiq asosida tiklanishi lozim bo'ladi.

872, 306, 771, 912, 944, 22, 19, 18, 219, 220-devonlardagi baytning mazmuni mantiqqa zid emas: Unga ko'ra, qaysi pari paykarga bunchalik telbalarcha oshiq bo'lding, deb so'raysan, ey pari paykarim, ne jabr-u jafo qilsang ham, senga fido bo'laman, deyilmoqda. Biroq bundan avvalgi – uchinchi baytda ham “fido bo'ldum sanga” birikmasi kelgan. Ketma-ket ayni jumladan foydalanib, bir xil ma'no ifodalash esa Navoiy uslubiga xos emas. 6 va 229-devonlardagi matnni esa muallif variantiga muvofiq deyish mumkin. G'azalning maqta'sida yana ikki farqlanish bor. E'tiborli jihati, boshqa o'zgarishlar faqat u yoki bu devonda kuzatilsa, bu holat barcha toshbosma nusxalarda uchraydi:

غصه چنگیدین نوایی تایمادی عشاق ارا
تا نواییدیک اسیر و مبتلا بولدوم سنگا.

Yettinchi baytning matni №216 va №808 qo'lyozma nusxalarda quyidagicha:

غصه چنگیدین نوایی تایمیدیم عشاق ارا
تا نواییدیک اسیر و بی نوا بولدوم سنگا.

Kotibning birinchi misradagi تایمادی so'zini تایمیدیم shaklida ko'chirishiga o'zidan oldin kelgan نوایی ning taxallus deb o'ylagani natijasida sodir bo'lgan. Chunki taxallusli baytlar kesimi, odatda, uchinchi shaxs birlikda keladi. Ammo shoir har ikki misrada o'zakdosh so'zdan foydalanib, taxallusni ikkinchi misrada qo'llagan. Shu o'rinda XIX asrga oid №9746 hamda №1715 qo'lyozmalarga murojaat qilinganda boshqa bir vaziyat ko'zga tashlanadi. Bunda ayni shu so'z تایمیشام tarzida keladi. Navoiy hayotlik davrida ko'chirilgan biror qo'lyozmada g'azalning shunday so'z bilan ifodalanganini uchratmadik. Garchi shoir she'larining: “Bir kichik yoshlig' nigore topmisham nozukkina” [Навоий 2011, 558], “Ko'rmisham vojib baqosin ravshan andoqkim quyosh” [Навоий 2012, 20] misralaridan ko'rinadiki, fe'lning bunday shakli mavjud bo'lgan.

Ushbu baytdagi “g'ussa changidin...” birikmasining №10293 toshbosmada غصه دین چنگی tarzida noto'g'ri ko'chirilishi esa xattot Ibrohim Sulton Eroniyning o'zbek tili grammatik qoidalaridan yaxshi xabardor bo'lmaganligini bildiradi.

Matla' va ikkinchi baytdagi مبتلا jumalari takrorlanib radd ul-qofiyani hosil qilgan bo'lsa, she'r oxirida بی نوا so'zi o'rniga

مبتلا ishlatilishi o'zidan oldingi اسير asirlik bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Zero, muhtalo so'zi "giriftor, duchor bo'lgan, ilingan, tutilgan; baxtsizlikka uchragan, baloga yo'liqqan; oshiq, aftoda" degan ma'nolarni bildirib, asir so'zini to'ldirib keladi. Ammo baribir badiiyatga zarar yetib, misra ritmi buzilgan [Навоий асарлари луғати 1972, 403]. Chunki "navo", "Navoiy", "benavo" o'zakdosh so'zlari esa ishtiyoq san'atining go'zal namunasini yuzaga keltirgan.

Mazkur maqta' bayt sabab-oqibat munosabatiga qurilgan. Faqat dastlab oqibat, so'ng sabab ko'rsatiladi – oshiqqlar orasida g'am cholg'usining ohangini topmadim, sababi esa ma'shuqaga Navoiydek asir va g'arib bo'lmagani edi. Adabiyotshunos N.Komilov yuqoridagi misralarni shunday bayon qiladi: "Navoiydek sen mahbubaga asir-u benavo bo'lmaguncha oshiqqlar orasida ishq alami kuyini eshitmadim" [Комилов 2018, 53].

Shunday qilib, yuqoridagi har ikki holatni biz kotib tahriri deyishimiz mumkin. Lekin bu tahrir toshbosmalarga yaqin davrda ko'chirilgan qo'lyozmalarda uchramadi. Xususan, DAM fondida saqlanayotgan (№25, 7-sahifa) 1245 (1829 – 1830)-yilda "Mahbub ul-qulub" bilan birga kitobat qilingan terma devonda ham تاييديم va بى سوزلari aslidek ko'chirilgan [Навоий асарлари луғати 1972, 403]. Shunga ko'ra, farqlanishlar faqat toshbosmalarga xos, ularni yuzaga keltirgan sabab esa kotiblarning matnga erkin munosabatda bo'lganligini bildiradi.

Kuzatishimizcha, XX asr terma devonlari tarkibidagi she'rlarning ko'pi "Badoye' ul-vasat"dan olingan. Ayni devondan tanlangan ishqiy mavzudagi "manga" radifli g'azal ham №229, №944, №220, №219-toshbomalarda ayrim matniy o'zgarishlarga uchragan. Jumladan, she'rning 4-baytida kotibning tahriri bilan quyidagi farqlanish yuzaga kelgan:

مضطرب مين چرخ ينگليگيم نجوم تيره دين
تنده هر دم يوز تمن داغ نهانی دور منگا

Mazkur bayt №216 va №808 qo'lyozma nusxalarda bu tarzda berilgan:

مضطرب مين چرخ ينگليگيم نجوم تيره دين
تنده هر کون يوز تمن داغ نهانی دور منگا

Ko'rinib turibdiki, کون so'zi دَم bilan almashtirilgan. Ularning misradagi ma'nosini ko'rib chiqish orqali o'zgarish sabablarini izohlash mumkin bo'ladi. G'azal oshiqning ma'shuqasi jabr-u zulmidan ozorlanishlari bilan boshlanib, baytdan-baytga tadriijiy ravishda rivojlantirib boriladi. 4-baytda lirik qahramon iztirobda qolganini osmonning xira yulduzli holatiga o'xshatib, har on tanasini

hisobsiz yashirin alam o'rtağanini izhor qiladi. Demak, bu yerda كون so'zi "vaqt, fursat, on, zamona" ma'nosida kelmoqda [Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати 1983, 138]. Ammo XX asr adabiy tilida "kun" so'zi bu ma'noda faol ishlatilmagan. Shunga ko'ra kotib uning sinonimini qo'llashni ma'qul ko'rgan. Garchi ma'noga jiddiy ta'sir ko'rsatmagan bo'lsa-da, mumtoz matnlarning asl holati saqlanib qolishi maqbul bo'lar edi. Bu haqida matnshunos O.Jo'raboyev shunday deydi: "Asl navoiyona matn olis o'tmishda qolib, ko'chirilayotgan zamonning kitobxoni anglaydigan matnni taqdim etishga urinish yuzaga kela boshladi" [Jo'raboyev 2023, 9]. Zotan, Navoiy devonlarining ikkinchi yo uchinchi shaxslar tomonidan tahrir qilinishi matnning asliyatdan uzoqlashishiga sabab bo'lgan.

Ushbu g'azalning №872, №306, №229, №944, №912, №248, №220, №219 nusxalardagi 6-, 7-baytlarida esa tayanilgan manbadan xato o'qilishi va ko'chirilishi oqibatida mazmunga putur yetgan:

ایکی دیرسین عشق ارا اولماق زیاندور عمر سود
هر نی سودیدور سینگا انیکیم زیانی دور میگا.
کور میشام واجیب بقاسین روشن انداکیم قویاش
تاکی امکان سایه ینگلیغ کوزدا قانیدور منگا.

Baytlarning №216 devon va №808 kulliyotdagi ko'rinishi esa quyidagicha:

ایکی دیرسین عشق ارا اولمک زیاندور عمر سود
هر نی سودیدور سینگا نیکیم زیانی دور منگا.
کور میشام واجیب بقاسین روشن انداکیم قویاش
تاکی ایمکان سایه ینگلیغ کوزده فانیدور منگا.

Misralardagi farqlanishlarni bir harf orttirilishi hamda diakretik belgilarning notog'ri ko'chirilishi yuzaga keltirgan. Bir qaraganda, نیکی va انیکی so'zlari farqlanmaydigandek ko'rinsada, ularning ma'nosi bayt, hatto butun g'azal mazmuniga ta'sir o'tkaza oladi. Bunda ma'shuqa o'z oshig'iga ishq aro o'lmoqdan hayot afzalligini aytadi. Yori esa unga har yaxshilik senga-yu, nimaiki yomonlik bo'lsa, menga bo'laversin deya jo'mardlik qiladi. Ammo ikkinchi misraga انیکی so'zi qo'yilsa, har yaxshi narsa senga-yu, undan keladigan yomonlik menga, degan g'azal mazmuniga zid qarash paydo bo'ladi. Zero, sevgilisini hayoti jovidoni deb bilgan oshiq ishqdan keladigan telbalik va oshiqlik savdolariga rozi, hatto joniga qasd qilsa-da, uni tabibi hisoblasa-yu, unga xayrli bo'lgan narsani o'ziga ziyon deb bilishi ma'no tadrijiyligini buzib yuboradi.

Keyingi baytdagi قانیدور so'zining فانیدور tarzda ko'chirilishi ham gap mazmunini xiralashtirgan. Chunki o'zidan avvalgi misrada

“baqosin” ishlatilmoqda. فانى “yo‘q bo‘luvchi, yo‘qoluvchi, bituvchi”, فانع esa “qanoat qiluvchi, rozi bo‘luvchi” degan ma‘nolarni bildiradi [Навоий асарлари луғати 1972, 641]. Odatda, mumtoz adabiyotda fano va baqo tushunchalari yonma-yon kelib tazod san‘atini hosil qiladi. Ushbu qismda ham quyoshning yorug‘ligi abadiy bajarilib turadigan harakat sifatida yorga yetishish imkoni xuddi soyaning ko‘zdan yo‘q bo‘lib qolishiga o‘xshashi bilan zid keltirilgan. Zero, soyaga o‘xshatilgan imkonning ko‘zni qoniqtirishidan ko‘ra uning tez fursatda yo‘q bo‘lishiga ishonish mantiqan tog‘ri bo‘ladi.

G‘azalning 4-, 5-bayti №872, №306 hamda №248 devonlardan tushirib qoldirilgan. Bu tahrirning sababi esa kotiblarning devondagi g‘azallarning 7 baytliga aylantirib, bir xillashtirishni maqsad qilishgani bo‘lgan. Zero, bu holat yuqorida keltirilgan nusxalarga kirgan boshqa g‘azallarda ham uchraydi.

Toshbosma devonlardagi barcha matniy tafovutlar faqat kotib tahriri yoki xatosi bilan sodir bo‘lmagan. Bunda xattot tanlagan asl manbaning keyingi qo‘lyozmalar bilan farqlanishida ham aks etgan. Jumladan, №216 qo‘lyozma devondagi kabi №872, №306, №6, №248, №229, №944, №912, №22, №18, №19, №220 toshbosmalarining quyidagi matla bilan boshlanuvchi hamd g‘azali ham ana shu shaklda kelgan:

ای مصحف رخسارینگ ازل خطیدین انشا
دیباچه حسنونگه ابد نقطه سی طغرا.

Uning №808 qo‘lyozmadagi matni esa:

ای صفحه رخسارینگ ازل خطیدین انشا
دیباچه حسنونگه ابد نقطه سی طغرا.

tarzida tahrir qilingan. Bu haqida navoiyshunos D.Salohiy shunday mulohaza qiladi: “Bu yerda mus’haf – to‘liq bir kitob ma‘nosidagi so‘zdan ko‘ra, o‘sha tabarruk kitobning bir sahifasi mazmunidagi “sahfayi” degan tahrirning insho etilishi har tomonlama ma‘quldir. Bundan tashqari, “ruxsoring kitobi” degandan ko‘ra “ruxsoring sahifasi” iborasi ancha aniq. Ochiq turgan kitobning ikki sahifasini inson chehrasiga, ikki yuzga qiyos qilsa bo‘ladi” [Салоҳий 2004, 41]. Demak, bu farqlanishga kotib yoki davrning mumtoz matn tilini soddalashtirish masalasi ta‘sir etmagan. Ammo keyingi misralardagi tafovutlar xattotning bevosita aralashuvi bilan sodir bo‘lgan deyish mumkin.

3-, 4-baytlar:

مشاطه صنعگدورور اولکیم نفس ایچره
کوک کوزگوسین اقشام کولیدین قیلدی مجلا.
نون شکلی یوزونگ کوزگوسیدین بولدی مشگل.

تون طوره سى مھرينگ يلىدىن بولدى مطراً.

№216 hamda №808-qo'lyozmalardagi matni:

مشاطه صنعنگدورور اولکيم نفس ايچره

كون كوزگوسين اقشام كولىدىن قىلدى مجلا.

كون شكلى يوزونگ سجده سيدين بولدى مشگل

تون طوره سى قھرينگ يلىدىن بولدى مطراً.

Ko'rinib turibdiki, XX asr kotiblari ikki baytning o'zida to'rt so'zga o'zgartirish kiritishgan. Ularning uchitasi

– كون – كوك, كون – نون, قھرينگ – مھرينگ

arab yozuvida shaklan bir-biriga o'xshash va ba'zi badxat ko'chirilgan devonlarda ularning aniq shakli anglashilmaydi. Qolaversa, ba'zi jumalalarda o'zini oqlagandek taassurot uyg'otadi. Masalan, XX asr kishisiga "kun" – shakli emas, "nun" – shakli" ko'proq aniq tushuncha anglatadigandek tuyiladi.

Navoiyning eng mashhur g'azallaridan hisoblangan ushbu asarning Allohga hamd mavzusida ekanligini yuqorida ta'kidladik. Biroq toshbosmadagi matn o'zgarishlari mavzuning umumiy tavsifiga parda tortgan ko'rinadi. Baytlarning nasriy bayoni bunday:

Sening pardoqlash, bezatish qudrating bir nafasda kunduzning oynasini tun kuli bilan yaltiratib tozalaydi. Kun, ya'ni quyosh Senga sajda qilib, shaklga kiradi, tunning zulfi esa qahrining shamolidan tozalanadi.

Toshbosma devondagi "ko'k ko'zgusi" birikmasi esa osmonni tun kuli jilolantirgani haqida tasavvur berib, Ollohning kun va tunni yaratganiga qilingan ishorani anglatolmaydi. "Nun shakli" jumlasini "quyoshning shakli" ma'nosini bermaydi. Zero, quyoshning shaklini faqat botayotgan (sajdaga bosh qo'yayotgan) paytidagina ko'rish mumkin. 4-baytdagi سجده سيدين so'zining o'rniga كونگوسيدين xato qo'llanganini ham yuqoridagi mazmunga zid kelishidan bilish mumkin.

"Qahrining" o'rniga "mehring" so'zi almashishi ham bejiz emasdek. Ularning o'rtasida mantiqiy bog'lanish bor. Ushbu baytni N.Komilov shunday sharhlaydi: "...Parvardigor o'zaro zidlikni bir-biriga bog'liq qilib yaratgan. Bu ilohiy hikmat: tunsiz kun, kunduzsiz tun chiroyli emas va butun bo'lmaydi. Kunduz (quyoshning) munavvar shakli. Kunni Xudoning mehriga, tunni uning qahriga o'xshatganda ham, shu hikmat nazarda tutilgan" [Комилов 2018, 20]. Yuqoridagi toshbosma matnida esa buning aksi – tun yaratganning mehri sifatida gavdalantirilgan.

872, 306, 19, 771, 237, 248 devonlarda quyidagi matla bilan boshlanuvchi g'azalda ham qo'lyozmalar o'rtasidagi farqlar aks

etgan:

هوا خوش ایردی وایلکیمدا بر قدح می ناب
اچار ایردیم ولی غمدین قدح قدح خونا ب.

G'azalning №808 kulliyotdagi matnida esa:

هوا خوش ایردی واللیمدا بر قدح می ناب
اچار ایردیم ولی غمدین قدح قدح خونا ب.

tarzida kelgan. Dastlab, "Badoye' ul-bidoya" №216 matnida aylkımda ishlatilgan bo'lsa, "G'aroyib us-sig'ar"ga allımda shaklida tahrirlab kiritilgan. Demak, toshbosmalarga dastlabki qo'lyozmalar asos qilib olingan deb xulosa qilish mumkin. Ikkinchi tomondan, xush havo chog'ida qadahdagi mayning lirik qahramon oldida bo'lishidan ko'ra qo'lida turishi haqiqatga yaqinroq bo'ladi, chunki ikkinchi misrada uning g'am bilan to'la qadahni ichganiga ishora bor.

Mazkur g'azalning 7-bayti esa quyidagicha berilgan:

چو ساقی ایتی قدح کوزگوسیدا جلو ه حسن
نی عیب عاشق بیچاره کونگلی بولسا کباب.

Navoiy hayotlik davrida ko'chirilgan №216 devon va №808 kulliyotda:

چو ساقی ایتی قدح کوزگوسیدا جلو ه حسن
نی عیب عاشق میخواره کونگلی بولسا بیاب.


shaklida kelgan. Har ikki so'zning baytga muvofiqligini bilish uchun uning mazmun-ma'nosiga qarash joiz. She'rning boshdan oxiri bir voqea tizginiga qurilganligi uning voqeaband g'azal ekanligini ko'rsatib turibdi. Ya'ni, xush havo kunlarining birida oshiq ma'shuqasini uchratib qoladi. Tabiiyki, uning qo'lida ishq mayi to'latilgan qadah bor edi. Yorini ko'rgan oshiq u bilan may ichishni taklif qiladi. Ne g'ussa-yu betoqatliklardan so'ng nihoyat sarvqomat lutf qilib maydan tatib ko'radi-yu, yuz nayrang bilan darhol qaytarib beradi. Shu yerga kelganda yuqoridagi bayt mazmuniga e'tiborni qaratamiz: Ma'lumki, tiniq may xuddi suv kabi ko'zgu vazifasini bajarishi mumkin. Soqiy (sevgili) qadahni ichib, uzatarkan, aksi mayda muhrlanib qoladi. Mayxo'r mahbub esa qadah ko'zgisida jilvalangan husnni ko'rib, ko'ngli battar xarob bo'ladi. Yorning aksini qadahda ko'rish an'anasi "G'aroyib-us-sigar"ning dastlabki g'azalidayoq ko'zga tashlanadi: "... Yor aksin mayda ko'r deb jomdin chiqti sado" [Navoiy 2011, 20]. Baytdagi "yabob" so'zi esa "xarob, kambag'al, qashshoq" ma'nolarini anglatadi [Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати 1983, 587]. Toshbosmadagi farqli misra mazmuniga ko'ra esa bunday: ne aybki, bechora oshiq ko'ngli bundan kabob (kuyib) bo'ldi. Ko'rinib turibdiki, bosma nashrdagi mazmun ham asliyatdan jiddiy farq qilmaydi, ammo oshiq,


ma'shuq va may uchligi asosiga qurilgan g'azal kompozitsiyasida "mayxora" va "yabob" so'zlari yaqinroq va aniq ma'no ifodalashga xizmat qiladi.

3. Radifning o'zgarishi bilan she'r mazmunini o'zgartirgan farq.

May Navoiy lirikasida ishq mavzusini keng ko'lam va miqyosda talqin etuvchi vosita sanaladi. Shoir devonlari ichida may haqida maxsus yozilgan she'rlar ham ko'plab topiladi. Jumladan, biz yuqorida matniy tafovutlari haqida fikr yuritgan "Havo xush erdi-yu ollimda bir qadah mayi nob..." deb boshlanuvchi g'azalida ham boshdan oxir lirik qahramon kayfiyatini izhor qilishda may timsolidan foydalanilgan. Ushbu timsolning ijodkor she'riyatidagi o'rnini navoiyshunos A.Hayitmetov shunday izohlaydi: "Navoiy ishqiy g'azallarida, muhabbat bilan bir o'rinda, mayni, mayxonani, mayxona pirini ulug'lash odatga, an'anaga aylangan, boshqacha qilib aytganda, may Navoiy g'azallarida haqiqiy muhabbatning yo'ldoshidir" [Хайитметов 2015, 153]. May, boda, jom so'zlari bilan bir qatorda ba'zan gazak ham ishlatiladi. Chunki u "may ichgandan so'ng tanovul qilinadigan yengil ovqat" yoki shirinlik hisoblanadi [Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати 1983, 391].

"Favoyid ul-kibar" devonining 332-g'azali "gazak" radifi bilan tugaydi. Ana shu lirik namunaning toshbosma terma devonlarda ham o'z o'rne bor. Xususan, u №6 (145-g'azal), №229 (122-g'azal), №944 (116-g'azal), №912 (108-g'azal) devonlarga kiritilgan. G'azal matnining matniy xatolarini ko'rsatish uchun uni to'liq berishni ma'qul topdik:





G'azalning maqtasi to'rt devonda keltirilmagan.

№219 (167-g'azal), №220 (187-g'azal) toshbosmalardagi g'azallar №808 kulliyot matni bilan solishtirilganda bir xilligi ma'lum bo'ldi.

Ushbu matndan ko'rinib turibdiki, g'azalning o'n uch o'rnida matn o'zgarishga uchragan. Bularning ayrimlari kotib tahriri ostida, ba'zilar tayanilgan manbadan xato o'qilishi natijasida sodir bo'lgan. Shuni ta'kidlash joizki, qo'lyozma bilan qiyoslanganda toshbosma devonlarda bunchalar ko'p matniy farqlanishga ega boshqa biror asarga duch kelmaymiz. Kotib tahriri g'azal mazmun-mohiyatini butunlay o'zgartirib yuborgan. Bu jarayon ma'lum ma'noli radifni umuman boshqa ma'noli so'z bilan almashtirish natijasida amalga oshirilgan.

Navoiyshunos Y.Is'hoqov radifning xos xususiyati sifatida she'rda muayyan fikrni, maqsadni yoki uning bir jihatini ta'kidlashga xizmat qilishini ko'rsatadi [Исхоқов 2014, 140]. Chunki muraddaf she'rning har baytida biror tushuncha qayta-qayta eslatiladi. Yuqoridagi g'azalda ham گرک radifining کیرک bilan almashishi yakka baytni emas, butun kompozitsiyani buzib yuborgan. Ushbu so'zlar shaklan bir-biriga yaqin, ya'ni bir nuqta bilan (ر va ز) farqlanadi. Albatta, bu tahrir qilinmagan, ehtimol, kotib so'zni xato o'qigandir, deb qarash ham mumkin. Ammo 6-baytdagi دورکیم بادهسی قاندور کزکی misrasida ushbu so'z to'g'ri ko'chirilmoqda. She'rda sakkiz marta radif qatnashar ekan, kotib ularning, hech bo'lmasa, bittasini to'g'ri holatda o'qishi lozim edi. Demak, bu holatda so'z atayin tahrir qilingan, degan xulosaga borish mumkin. Muallif matniga atayin kiritilgan o'zgartishlar haqida adabiyotshunos A.Eshonboboyev aytganidek, ma'no-mazmun bilan aloqador "parcha" ortida ijodkor asariga munosabat, talqin yotadi [Эшонбобоев 2022, 96-102]. Bunda g'azalning toshbosma devondagi matni va qo'lyozma nusxasi

bilan qiyoslash ana shu munosabatga aniqlik kiritadi.

“Gazak” radifli g'azalning №808 kulliyotdagi matlasi quyidagicha:

میدا بولسه منگا اول لعل شکر خند گزک
زهر بولسون تیلار اولسم شکر قند گزک.

Ko'rinadiki, baytda qo'lyozma matn toshbosmadan ikki so'z – می va گزک bilan farqlanmoqda. Oshiq may ichayotganda ma'shuqasining lablari gazak (shirinlik) bo'lishini istaydi. Zero, may bu ishq, ishq esa vasl tilaydi. Yorning lablari bo'lsa, vasldan dalolat. Buning o'rniga shakar va qandni gazak qilishni istasam, u shirin emas, achchiq zahar bo'lsin, deydi u. Toshbosmada esa misra juda jo'n ma'no ifodalab qolgan: qayda bo'lsam ham, menga ul go'zal yor kerak. Chuqurroq mulohaza qilinsa, bu so'zlar bir-birini taqozo qilgani uchun o'zgartirilgani oydinlashadi. Aslida, may mavzusi o'zbek g'azalchiligida Navoiy davrigacha asosiy mavzularga yondashib kelmagan. Buning sababini A.Hayitmetov shunday dalillaydi: “Ma'lumki, musulmon ruhoniylari may ichishni taqiq qilar, davlat ma'murlari esa ichuvchilarni ta'qib etar edilar. Shuning uchun tabiiy ma'nodagi mayni to'g'ridan to'g'ri targ'ib etish eski zardushtiylik dinini yoqlash, islomga mavjud ma'muriyatga qarshi borish degan gap edi” [Хайитметов 2015, 153]. May va gazakning bir misrada kelishi esa uni yanada moddiylashtirgandek ko'rinadi. Avvalo, XX asrda ham bunday qarashlarning ma'lum qismi bo'lgani tabiiy. Ikkinchi tomondan, Navoiy devonlarining madrasa, eski va yangi usul maktablarida darslik sifatida o'qitilishi ham ushbu tahrirga ta'sir o'tkazgan bo'lishi mumkin. Qolaversa, bu holat kotibdan shoir asarlari bilan chuqur tanishganlik, nozik ma'nolarni anglashga uquvli bo'lishini ham talab etadi. Masalan, №219 va №220-devonlarni ko'chirgan Mullo Yo'ldosh va Mullo O'tab bunday xato yoki tahrirga yo'l qo'yishmagan. Xususan, matnshunos M.Hakimov Mullo O'tabning Navoiy devonidan tashqari, xalq kitoblarini ko'chirishda salmoqli hissa qo'shganini, nazmni yaxshi tushungani, o'zi ham she'rlar yozgani haqida ma'lumot beradi [Хакимов 1991, 49]. Bu kabi omillar kitobning savodli ko'chirilishiga yordam berishi shubhasiz.

G'azalning №808 nusxadagi 2-baytida esa bu tarzda:

دیر پری کیرک و مغیچه باده فروش
کی اتا قویسه قدح اغزیمه فرز ند گزک.

Mazkur baytdan g'azalning rindona mavzuda ekanligi to'liq anglashiladi. Matla va 2-bayt o'rtasidagi bog'liqlikni may va gazak ta'minlab turibdi. O'z ma'nosida dayr piri – mayxona boshlig'i,

mug'bacha – may tashuvchi, bodafurush – may sotuvchini anglatadi. Ammo Navoiy bundan ancha yuksakroq ma'nolarni ko'zlagani tayin. Dayr piri – piri komil huzuri, oriflar majlisi, mug'bacha esa "komil pirni oshiq bilan bog'laydigan, Allohdan mujda keltiradigan farishta timsoli" [Комилов 2009, 291]. Ma'lumki, komil inson huzuridagi suhbatlar ilohiy ishqni mavjlantiradi, bunda mug'bacha pir va oshiq o'rtasidagi aloqani bog'lab turadigan vositachidir. May quyuvchi – ota, mayxo'r va farzand ham yuqoridagi timsollarning hayotiy shakllaridir. Afsuski, bunday teran ma'no toshbosma nusxalardagi فرزند so'zining پیوند shaklida xato ko'chirilishi bilan yuzaga chiqmay qolgan.

G'azalning 4-baytida لعلی رنگی jumlasining لعلی رنگی tarzida o'zgartirib ko'chirilishi bilan ma'noga zarar yetmagan. 5-baytning misrasidagi گزک bu yerda ham لعلینگا چون یتسه کیرک وه نیعجب xato ko'chirilgan. Natijada ushbu qismda tugal ma'noga erishilmagan.

Toshbosma devonlardagi 6-baytda ham matniy o'zgarish mavjud. Uning №808 qo'lyozmadagi matni quyidagicha:

دورکیم باده سینینگدور کزکی زهر الود
عاقل اندین تیلامس باده خرمند کزک.

Bunda باده سی قاندور so'zi باده سینینگدور shaklida xato ko'chirilgan. Ularning arab yozuvidagi shakli bir-biriga mos tushishi (chunki kotiblarning xati alohida xususiyatlarga ega bo'lgan) sabab ushbu xatolik yuz bergan bo'lishi mumkin. Ikkinchi tomondan, bodaning qizil rangga, qonga o'xshashi ham mantiqiy bog'liqlik kasb etib, bir so'z emas, jumla sifatida o'qilishiga olib kelgan. Oqibatda, vazn talabi ham buzilgan.

Baytning qisqa mazmuni esa bunday: davr tuzumidan nolish, noroziliklarni izhor etishda mayning vositachiligi Navoiy she'riyatidagi rindlikning asosiy belgilaridan sanaladi. Dayr piri, ya'ni piri komil beradigan boda haqiqat va ma'rifat sirlarini anglashga yordam bersa, zamonaning mayi azob-uqubat, nohaqliklarga muhtalo qiladi. Aslida, gazak shirin narsa bo'lsa-da, uning davrga tegishliligining o'ziyoq zahar aralashgan kabidir. Shu bois oqil odam dunyo ishqini, dono esa shirin hayotni tilamaydi.

Demak, №6, №229, №944, №912 devonlardagi aslida "Mayda bo'lsa manga ul yor shakarxand gazak" deb boshlanuvchi g'azali bir qancha xatolar sabab asl ma'nosidan uzoqlashib ketgani yuqoridagi misollar orqali ma'lum bo'ldi. Ushbu manbalarining dastlabkisi Turkiston harbiy okrugi matbaasida 1900-yilda chop etilgan Abdulg'afur kotib ko'chirgan میر علیشیر نوای نورالله مرقدہ دیوانلاری "Mir Alisher Navoiy navarallohu marqadahu devonlari"dir. Ehtimol,

keyingi nusxalar shu devonga tayanib ko'chirilgan bo'lishi ham mumkin. E'tiborli tomoni, nuqsonli matn nusxalarining barchasi Toshkent hududida 1900 – 1915-yillarda chop etilgan. Davrning va hududning yaqinligi devonlarning matniga ham ta'sir ko'rsatgan. Ammo ularning hech biri she'rlar hajmi va tanlanishi jihatdan to'la-to'kis bir-birini takrorlamaydi.

Xulosa

Toshbosma matnlarni qo'lyozma nusxalar bilan qiyoslashda so'z va so'z birikmalarini, bayt va bandlarni, butun kontekstni o'zgartirgan farqli jihatlariga e'tibor qaratish Navoiy lirik merosi manbalarining XIX – XX asrdagi umumiy holatini ko'rsatib beradi. Bunda qo'shimchalardagi farqlar imlo qoidalarining unifikatsiya qilinmaganligi bilan bog'liq bo'lsa, band va kontekstni o'zgartirgan farqlar kotibning matnni xato anglashi va ko'chirishi yoxud bugungi tilga moslashtirishi bilan bog'liqdir. Toshbosma devonlardagi she'rlar asosan "Xazoyin ul-maoniy"dan olingan bo'lsa-da, ayrimlari "Ilk devon"dagi matnni namoyon qiladi. Ushbu holat kotiblar "Xazoyin ul-maoniy" qo'lyozmalaridan tashqari boshqa nusxalarga ham tayanganidan darak beradi. Qolaversa, bir necha devonda ayni xatolarning kuzatilishi ham ularning bir xil qo'lyozma manbaga yoxud o'zidan oldingi hurmatli kotiblar tayyorlagan toshbosma devon nashrlariga murojaat qilganini ko'rsatadi.

Adabiyotlar

- Алишер Навоий. 1987. *Бадоеъ ул-бидоя*. МАТ. 20 томлик. II жилд. Тошкент: Фан.
- Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1983. Тўрт томлик. I жилд. Тошкент: Фан.
- Alisher Navoiy. *Devon*. №25 qo'lyozma. O'zR FA DAM fondi.
- Alisher Navoiy. *Chor devon*. №10293 toshbosma, O'zR FASHI fondi.
- Alisher Navoiy. 2011. *G'aroyib us-sig'ar*. TAT. I jild. Toshkent: G'afur G'ulom.
- Абдурахмонов, Ғ, Шукуров, Ш, Маҳмудов Қ. 2008. *Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси*. Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти.
- Бехбудий, Маҳмудхўжа. 2021. *Танланган асарлар*. I жилд. Тошкент: Akademnashr.
- Эшонбобоев, А. 2022. "Алишер Навоий асарларининг танқидий матни ва замонавий нашр муаммолари". "Адабиётшуносликнинг долзарб муаммолари": Республика илмий-назарий конференцияси. Тошкент.
- Жумахўжа, Н. 2021. *"Қаро қўзум..." ғазали тадқиқи*. Тошкент: Muharrir.
- Исҳоқов, Ё. 2014. *Сўз санъати сўзлиги*. Тошкент: O'zbekiston.
- Комилов, Н. 2018. *"Мубтало бўлдум санго"*. *Навоий ғазалиёти*

талқинлари. Тошкент: O'zbekiston.

Комилов, Н. 2012. *Маънолар оламига сафар*. Тошкент: Тамаддун.

Комилов, Н. 2009. *Тасаввуф*. Тошкент: Мовароуннахр – Ўзбекистон.

Лихачев, Д.С. 1964. *Текстология*. Краткий очерк. Москва: Наука.

Навоий асарлари луғати. 1972. Тузувчилар: П.Шамсиев, С.Иброҳимов. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.

Салоҳий, Д. 2004. “Бадоеъ ул-бидоя” малоҳати. Тошкент: Фан.

Ҳайитметов, А. 2015. *Навоий лирикаси*. Тошкент: Ўзбекистон.

Ҳакимов, М. 1991. *Навоий асарларини қўчирган хаттотлар*. Тошкент: Фан.

Textual-Comparative Study of Alisher Navoi's Lithographed Divans with Reliable Manuscripts

Dilnoza Rustamova¹

Abstract

This article is devoted to the textual-comparative study of Alisher Navoi's lithographed divans. The comparison of texts is based on the Tashkent copy (inv. 216) of “Badoye' ul-bidoya,” the complete works of Navoi (Revan 808) copied by Darvesh Muhammad Taqi and preserved in the Topkapi Palace Library in Istanbul, as well as lithographed copies of the poet's divans preserved in the fund of the State Museum of Literature, numbered 872, 306, 771, E.6, 237, 248, 229, 944, 912, 22, 219, 220, 18, and E.19. As a result, several textual differences have been identified, and the reasons for their origin have been discussed.

Key words: *manuscript source, lithographed divan, scribe, publisher, “Qaro ko'zum,” ghazal, radif.*

References

Alisher Navoiy. 1987. *Badoe' ul-bidoya*. MAT. 20 tomlik. II jild. Toshkent: Fan.

Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 1983. To'rt tomlik. I jild. Toshkent: Fan.

¹ Dilnoza A. Rustamova – the research associate at the Alisher Navoi State Museum of Literature.

E-pochta: dilnozaahmadqizi@gmail.com

ORCID ID: 0009-0008-5422-9915

For citation: Rustamova, D. A. 2025. “Textual-Comparative Study of Alisher Navoi's Lithographed Divans with Reliable Manuscripts”. *Golden Scripts* 1: 54 – 71.

Alisher Navoiy. *Devon*. №25 qo'lyozma. O'zR FA DAM fondi.

Alisher Navoiy. *Chor devon*. №10293 toshbosma, O'zR FASHI fondi.

Alisher Navoiy. 2011. *G'aroyib us-sig'ar*. TAT. I jild. Toshkent: G'afur G'ulom.

Abdurahmonov, G', Shukurov, Sh, Mahmudov Q. 2008. *O'zbek tilining tarixiy grammatikasi*. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati.

Behbudiy, Mahmudxo'ja. 2021. *Tanlangan asarlar*. I jild. Toshkent: Akademnashr.

Eshonboboev, A. 2022. "Alisher Navoiy asarlarining tanqidiy matni va zamonaviy nashr muammolari". "Adabiyotshunoslikning dolzarb muammolari": Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi. Toshkent.

Jumaxo'ja, N. 2021. *"Qaro ko'zum..." g'azali tadqiqi*. Toshkent: Muharrir.

Is'hoqov, Yo. 2014. *So'z san'ati so'zligi*. Toshkent: O'zbekiston.

Komilov, N. 2018. "Muhtalo bo'ldum sango". *Navoiy g'azaliyoti talqinlari*. Toshkent: O'zbekiston.

Komilov, N. 2012. *Ma'nolar olamiga safar*. Toshkent: Tamaddun.

Komilov, N. 2009. *Tasavvuf*. Toshkent: Movarounnahr – O'zbekiston.

Lixachev, D.S. 1964. *Tekstologiya*. Kratkiy ocherk. Moskva: Nauka.

Navoiy asarlari lug'ati. 1972. Tuzuvchilar: P.Shamsiev, S.Ibrohimov. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.

Salohiy, D. 2004. "Badoe' ul-bidoya" malohati. Toshkent: Fan.

Hayitmetov, A. 2015. *Navoiy lirikasi*. Toshkent: O'zbekiston.

Hakimov, M. 1991. *Navoiy asarlarini ko'chirgan xattotlar*. Toshkent: Fan.

ADABIYOTSHUNOSLIK
LITERATURE**Nasimiy va Navoiy she'riyatining g'oyaviy
mushtarakligi**Boqijon To'xliyev¹**Abstrakt**

Turkiy dunyo va uning madaniyati asrlar davomida shakllangan. Bu madaniyatning shakllanishida Nasimiy va Navoiylarning alohida o'rni bor. E'tiborli tomoni shundaki, har ikki ijodkorning asarlari turkiy ma'naviyatga munosib hissa qo'shishdan tashqari, muayyan umumiyliklarga ham ega. Ushbu maqolada mana shu jihat haqida so'z boradi. Shuningdek, "Lison ut-tayr" dostonidagi yetti vodiy va ularning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari tahlil qilingan. G'oyalar mushtarakligi har ikki adib asarlari asosida yoritilgan. Yetti raqamining Sharq adabiyotidagi talqinlaridan kelib chiqqan holda yetti vodiyning mazmuni asoslangan.

Kalit so'zlar: *turkiy adabiyot, nazm, tasavvuf, maqomot, bosqich.*

Kirish

Turkiy adabiyotda adib Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoiy, Muqimiy, Yaqiniy, Amiriy, Gadoiy, Lutfiylar nomini hurmat bilan tilga oladi. Navoiyning e'tiroflari orasida mavlono Nasimiyning alohida o'rni bor. Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"da bu ijodkorni shunday eslaydi: "732. Sayyid Nasimiy q. r. Iroq va Rum tarafidag'i mulkdin erkandur. Rumi va turkmoniy til bila nazm aytibdur va nazmda haqoyiq va maorif bag'oyat ko'p mundarijdur. Mazkur bo'lg'on mulk ahlig'a aning she'ri muqobalasinda hamonoki she'r yo'qdur. Hamono taqlid ahli ani mazhabida qusur tuhmatig'a muttaha qilib, shahid qildilar. Mashhur mundaqdurki, terisin so'yar hukm bo'lubdur. Ul holatda bu she'rni debdurki, nazm:

Qibladur yuzung nigoro qoshlaring mehroblar,

Surating mushaf vale xolu xating e'roblar.

va bu she'rning taxallusi ushbu muddaog'a doldurkim, nazm:

¹ Boqijon To'xliyev – filologiya fanlari doktori, professor, O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti "Adabiyot nazariyasi" bo'limi mudiri.

E-mail: bokijontukhliev@inbox.ru

ORCID ID: 0000-0003-2240-6856

Iqtibos uchun: To'xliyev, B. 2025. "Nasimiy va Navoiy she'riyatining g'oyaviy mushtarakligi". *Oltin bitiglar* 1: 72 – 84.

*Ey, Nasimiy, chun muyassar bo'ldi iqboli visol,
Qo'y, teringni so'ysa so'ysun bu palid qassoblar"*

[Navoiy 2001, 478].

Nasimiy bilan bog'liq bo'lgan yana bir detal "Holoti Pahlavon Muhammad"da keltirilgan. Adib bu asarida Pahlavonning "g'arib ishlari va ajib zarofatlari" haqida gapirib, ularning "tab'g'a mujibi taajjub va aqlg'a boisi tahayyur" bo'lganini qayd etadi. Adib shu o'rinda g'azal maqta'sini ham ketiradi:

*Gar Navoiy siymbarlar vaslin istab ko'rsa ranj,
Yo'q ajab, nevchunki, xom etgan kishi ranjur erur.*

Navoiy Pahlavon Muhammadning taxallusdagi "Navoiy" o'rniga "Nasimiy" ning qo'yib o'tishini maqsadga muvofiqroq ekanini ham maxsus ta'kidlaydi: "...va filvoqe' bu baytda Navoiy lafzidin Nasimiy lafzi munosibroqdur va faqir mutaajjib bo'ldum" [Navoiy 1990, 90], deb yozadi.

Bularning barchasi Alisher Navoiyning butun turkiy ijodkorlar qatori Imoniddin Nasimiy ijodini ham puxta o'rgangani va uning she'riyatidagi mazmun va mundarijani ham, asosiy uslubiy yo'nalishlarni ham puxta o'zlashtirganini, uning boshqa turkigo'y adiblardan farq qilib turadigan jihatlarini juda nozik darajada kuzatganini yorqin tarzda namoyon etadi. Shunga qaramay, mazkur maqolada gap bu haqda emas, balki Nasimiyning bir g'azaliga Alisher Navoiyning bir asari, aniqrog'i "Lison ut-tayr"ning qanday qilib ochqich bo'lgani haqida. Buning uchun ishni bevosita Nasimiy g'azali matni bilan tanishishdan boshlash ma'qul ko'rinadi:

*Şənbə günü mən uğradım ol sərvî-rəvanə,
Şeyda qılıban saldı mənî cümlə cəhanə.
Yekşənbə günü məcnun olub heyranı oldum,
Gördüm üzün, oxşatdım anı mahi-təbanə.
Düşənbə günü razi-dilimi dedim axır,
Ol gözləri nərgis, üzü gül, qaşı kəmanə.
Səşənbə günü səyyad olub seyrana çıxdım,
Mən seyd oluban qurban olum püstə dəhanə.
Çərşənbə günü yar gəzə gəldi cəməən içrə,
Bülbül dəxi gördü üzünü, düşdü fəğanə.
Pəncşənbə günü yarə dedim: pəndim eşitgil,
Faş etmə bu razi-dilimi yaxşı-yəmanə.
Adinə günü gördü camalını Nəsimi,*

Əmdi ləbi-lə'li-şəkkərin ol qanə-qanə [Nəsimi 2004, 61].

G'azal yetti baytdan iborat. Bu haftaning yetti kuni bilan

uyg'un kelgan. Har bir kun alohida-alohida tavsiflar uchun omil bo'lgan. E'tibor berilsa, vasf shanba kunidan boshlanmoqda. Hozirgi tasavvurlardan farqli ravishda, Sharqda, jumladan, Ozarboyjonda ham hafta shanba bilan boshlanib, juma bilan yakunlangan.

Sharqda, jumladan, turkiy xalqlarda hafta kunlarini yaxshi va yomonga, "qutlug'" va "qutsiz"ga ajratish odatlari ancha qadimgi davrlardan beri amal qilib keladi. Jumladan, Yusuf xos Hojib o'n birinchi asrda "Kun, ay qutlug'i bar, ema qutsuzi" deb yozgan edi [1972, 656]. Mazkur g'azal ham mana shu e'tiqodning o'ziga xos ifodalari sifatida yuzaga kelgan. Har bir kunning ilohiylashtirilishi e'tiborni tortadi. Voqealarning shanbadan boshlanib odina (juma) da tugashi o'ziga xos ramzlar tizimidan xabar beradi. E'tibor berilsa, bunda vaqtning bir o'lchamlilik bilan bog'liq bosh xususiyatiga tayanilgan. Unga ko'ra, vaqt faqat ilgarilab yuradi, xolos. Vaqtning mana shu xislati g'azaldagi voqealarning ham asosiy mohiyatiga ishora qiladi. Bundan lirik qahramonning oshiqligi, uning yor bilan ilk uchrashuvini tasavvur qilish mumkin. Keyingi kunning yakshanba ekani ham ushbu mulohazani tasdiqlaydi. Yetti bayt – yetti kun bilan bog'liq. Ularni rivojlanish darajasiga ko'ra shunday tasavvur etish mumkin:

yechim

odina (juma) Voqea yakun topgan kun

payshanba Voqea rivoji

chorshanba Voqea rivoji

seshanba Voqea rivoji

dushanba Voqea rivoji

yakshanba Voqea rivoji

shanba *Voqea boshlangan kun – tugun*

G'azalda o'ziga xos voqealar tizimi mavjud. Uni shartli ravishda "lirik syujet" deyish mumkin. Zero, unda "voqea"larning boshlanishi (matla') va oxiri (maqta') ochiq ko'rinib turibdi. Syujetning "boshqa qismlari" esa (matla bilan maqta orasidagi besh bayt) "voqea rivoji"ni tashkil etadi.

Haftaning har bir kuni inson umrining pillapoyalari tarzida tasavvur etilishi ham mumkin. Bunda matla' insonning hayotga kelishini, oradagi baytlar umrning alohida lahzalarini, matla' esa umr poyonini tamsil etadi.

Mazkur g'azal yana bir jihatidan alohida ahamiyat kasb etadi. U tasavvuf ilmidagi komil inson bosib o'tishi lozim bo'lgan hayotiy pillapoyalar ramzi sifatida ham tasavvur etilishi mumkin. Bu "Lison

ut-tayr”da tasvirlangan “yetti vodiy” mafhumi bilan aloqador. Asarda “Bir qush”ning savollari (“Asli manzilg’a ne yanglig’ yetkobiz?” (LT, 213) va unga berilgan javoblar Nasimiy g’azali bilan nihoyatda zich yaqinlikni namoyon etadi. Esga olaylik: o’sha qush savoliga Hudhud mana bunday javob bergan edi:

*Dedi Hudhudkim: – «Ayo rahrav rafiq,
Bu savoling voqe’ o’ldi bas daqiq.
Chun so’rarsen bu safar kayfiyatini,
Manzil-u vodiy nashot-u shiddatin...
Ollimizda yetti vodiydur azim,
Har birida behad-u andoza biym... [Navoiy 1990, 213 –214].*

Ma'lum bo'ladiki, Nasimiyning yetti baytli g’azalining har bir bandida “ko’rinib turgan” hamda Alisher Navoiyning yuqorida keltirilgan mulohazalariga yaqin yana bir ma'no qatlami ham mavjud ekan. Keyingi qismdagi mulohazalar ayni mana shu muammoga bag’ishlangan.

Nasimiy baytlari	Navoiy bandlari
Shanba kuni man uchradim ul sarvi ravona, Shaydo qilibon soldi mani jumla jahona.	Vodiyi avval – Talab vodiysidur, Boshlag'on ul yon sharaf hodiysidur.
Yakshanba kuni Majnun o'lib, hayroni o'ldim, Ko'rdim yuzin, o'xshatdim uni mohi tobona.	Ishq vodiysidur ondin so'ngra bil, Ul o't ichra bor-u yo'qni o'rtatil,
Dushanba kuni rozi dilimni dedim oxir, Ul ko'zlari nargiz, o'zi gul, qoshi kamona,	Ishq chun qildi vujudingni adam, Ma'rifat vodiysig'a urdung qadam.
Seshanba kuni sayyod o'lib, sayrona chiqdim, Men sayd o'libon, qurbon o'lam pistadahona.	So'ngra Istig'nog'a vodiydur vase' Pastdur junbida bu charxi rafe'.
Chorshanba kuni yor keza keldi chaman ichra, Bulbul daxi ko'rdi yuzini, tushdi fig'ona.	Vodiyi Tavhid bil, ondin nari, Fard bo'lmoq necha borsang ilgari.
Panjsanba kuni yora dedim, pandim eshitgil, Fosh etma bu rozi dilimi yaxshi-yomona.	Mundin o'tsang vodiyi Hayratdurur, Vodiyi Hayratda ko'p shiddatdurur
Odina kuni ko'rdi jamolini Nasimiy, Ichdi labi la'lin shakarini ul qona-qona	Borchadin so'ng vodiya Faqr-u Fano, O'tmas ondin sayr ila solik yano.

G’azalda inson kamolotining pillapoyalari ham o’ziga xos tasvirini topgan. U, ayni paytda, Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonidagi yetti vodiy tasvirini yodga soladi. Unga ko’ra,

bu vodiylar quyidagicha edi: Talab, Ishq, Ma'rifat, Istig'no, Tavhid, Hayrat, Faqr-u Fano). Tasavvurning oydinlashishi uchun Nasimiy g'azalidagi baytlar va Navoiy masnaviysidagi bandlarni yonma-yon keltirildi.

Yetti vodiyni bosib o'tishdan muddao "oliy manozil"ga (Alisher Navoiy) yetishdan iborat.

Keling, baytlarni mana shu vodiylar mohiyati bilan uyg'unlik darajasini kuzataylik. Buning uchun har bir vodiy nomini shartli ravishda har bir baytning sarlavhasi sifatida belgilab olamiz.

Talab

*Shanba kuni man uchradim ul sarvi ravona,
Shaydo qilibon soldi mani jumla jahona.*

Shanba – haftaning birinchi kuni. Boshqacharoq aytiladigan bo'lsa, lirik qahramon – solikning ishq yo'liga kirib kelayotganiga, uning ilk qadamiga ishoradir. "Ul sarvi ravon" irfoniy olamdagi go'zal mahbuba, aniqrog'i, unga bo'lgan muhabbat, unga bo'lgan ishqqa talabgorlikdir. Bu talabgorlik uni ancha qiyin ahvolga solib qo'ydi, u iztiroblar ichida qoldi.

Aslida insonning yaratganning kuch-u qudrati, haybati oldida o'jiz-u notavonligini tan olishi ham tasavvufdagi ilk qadamlarning me'yor va mezonlaridan joy olgan. Zero, Navoiy aytganiday:

*"Chun Talab vodiysig'a qo'ysang qadam,
Ollingga har dam kelur yuz ming alam"* [Navoiy 1996, 214].

Ushbu bosqich solik – oshiq uchun ham o'ziga xos sinov maydonlaridir:

*"Har dam onda yuz malolat yuzlanur,
Har nafas ming sa'b holat yuzlanur.
Istamak ranji ko'ngulni zor etar,
Topmamog'lig' ruhni afgor etar"* [Navoiy 1996, 214].

Navoiy aytgan mana shu alomatlarining barchasi mazkur bayt mazmunni tashkil etib turibdi. Keyingi bayt mazmuni bilan tanishamiz.

Ishq

*Yakshanba kuni Majnun o'lib, hayroni o'ldim,
Ko'rdim yuzin, o'xshatdim uni mohi tobona.*

Bayt mazmuni yorni ko'rish – ilohiy tajallining ro'y berayotgani haqidagi axborotga tayanadi. Yorning yuzi – borliqning ko'z oldida namoyon bo'lishi bo'lib, bunda solik olam hodisalariga bir mahzartariqida qarash darajasiga etadi. Bu ishqning ilk qadamlaridan

biridir. Lirik qahramon o'zini Majnunga qiyoslamogda. Mumtoz adabiyotda Majnun – ishq timsoli. Demak, bayt va vodiyl nomining unga sarlavha bo'lishi o'rtasida bevosita bog'lanish mavjud. Navoiyning ta'kidicha,

*Ishq aro pok-u qalandarlik kerak,
Shu'la bahrida samandarlik kerak.
Kuymak ishtur oshiqi devonag'a,
Shu'la ichra o'ylakim parvonag'a* [Navoiy 1996, 219].

Bu yo'l uzun va mubham. Ushbu daraja hali minzilning oxiri emas, bor-yo'g'i boshlanishi, xolos. Shunga ko'ra:

*Barcha qushning oti bulbul bo'lmadi,
To azaldin ishq aro kul bo'lmadi.
Kuymagan ishq ichra ermas ishqboz,
Oshiq ermas ulki ermas jongudoz.
Shod erur ishq ahli o'rtanmak bila,
Bo'lmag'ay bu sheva o'rganmak bila* [Navoiy 1996, 219-220].

Mana shu andozalar bilan yuqoridagi bayt mazmuniga e'tibor qaratilsa, ularning uyg'unlik darajani nechog'li yuksak ekaniga amin bo'lish oson kechadi. Ishqda Majnun darajasining e'tirofiyoq mana shu uyg'unlikning o'zagini tashkil etadi. Yorning olamdagi barcha narsa va hodisalardan, kishilardan ustun qo'yilishi uning "mohi tobonligida mujassamlashgan. "Mohi tobon"ning ham balandda, ham yorug', ham chiroyli ekani yaxshi ma'lum. Navoiy talqinidagi Majnunlik – kuyish, o'rtanish va iztirob chekish demakdir.

Ma'rifat:

*Dushanba kuni rozi-dilimni dedim oxir,
Ul ko'zlari nargiz, o'zi gul, qoshi kamona.*

Ma'rifat vodiysi – irfoniy bilimlar makoni, ammo bu makonning chek-u chegarasi yo'q. Alisher Navoiy kitobxonga yordam ma'nosida bu olamning "Dashti bepoyonlig'in" maxsus ta'kidlaydi. Bu darajaga erishgan solik olam rang-barangligini ko'rib, kuzata oladi. Shu go'zallikni ko'ra olganidan iftixor qiladi. Nasimiyning yor go'zalligi haqidagi e'tiroflarida ayni mana shu holat namoyon bo'ladi. Demak, solik yor timsolida ilohiy olamning ayrim (ko'z, qosh) alomatlarini his eta boshlaydi.

Alisher Navoiy qalamidagi "Ma'rifat vodiysining vasfi" mana bunday:

*Ma'rifat vodiysin ondin so'ngra bil,
 Dashti bopoyonlig'in nazzora qil.
 Kimki bu vodiyg'a bo'ldi muttasif,
 Topti anda hollarni muxtalif... [Navoiy 1996, 224]
 Bu mahalda gar gadodur, gar muluk,
 Har bir o'zga yo'l bila aylar suluk...
 Bo'ldi o'z irfoni har kimga sifat,
 Ko'p tafovut qildi paydo ma'rifat... [Navoiy 1996, 258].*

Bularning barchasini yanada aniqroq tasavvur etish uchun prof. N.Komilov izohlaridan ko'mak olamiz:

“Ma'rifat ilmi botiniy ilm deb ham yuritilgan. Chunki tasavvuf ahli dunyoviy va diniy ilmlarni birga qo'shib, «zohiriy ilmlar» deb ataganlar. Ularning uqtirishicha, zohiriy ilmlar bilan Xudoni bilish qiyin. Biroq, boshqa bir nuqtayi nazar ham bor: garchi zohiriy bilimlar Haq taolo asrorini anglashga yaroqsiz bo'lsa-da, lekin dunyoni bilish Ollohni bilishning birinchi bosqichi, ya'ni Ollohni bilish dunyoni bilishdan boshlanishi kerak, chunki dunyo – kasrat, ko'plik olami, Ollohnin ijodi. Uning sifatleri, qudratini namoyon etib turadigan ko'zgu...” [Komilov 1996, 272, 36-37].

Demak, ma'rifat kamolot yo'lidagi bir bosqich sifatida kamolot sari intilayotgan solik uchun olamning turfaligini anglash imkonini beradi.

Nasimiyning navbatdagi baytiga “Istig'no” deb sarlavha qo'yildi. Demak, g'azaldagi lirik qahramon yo'lda davom etadi. U yangi vodiya qadam qo'yadi. U yor (olam) go'zalligini his etishda davom etadi. Uning yangi-yangi qirralarini mushohada qila boshlaydi. O'quvchi (tinglovchi) ga bu tuyg'ularni yetkazish maqsadida uning tasavvuridagi mavjud (sayyod, sayd) obrazlardan foydalanishga harakat qiladi.

Istig'no

*Seshanba kuni sayyod o'lib, sayrona chiqdim,
 Men sayd o'libon, qurbon o'lam pistadahona.*

Demak, u o'zini ovchi (sayyod) o'rnida ko'rar ekan kutilmaganda, o'zining ham ovlanganini, ya'ni bu go'zallik qarshisida lol-u hayron, qolaversa, taslim bo'lganini tan oladi. O'rni kelganda aytish lozimki, ov va ovchilik motivi mumtoz adabiyotimizda, ayniqsa, tasavvuf davri adabiyotida ancha faol qo'llangan.

Baytdagi “pistadahon” obrazi e'tiborga molik. “Dahon” (og'iz), shuningdek, lab timsollari qo'llanishiga ko'ra ko'plab ramziy ma'nolarni ifodalashi mumkin. U yorning tashqi go'zalligi, chiroyi va

latofatining o'ziga xos "o'lchov birliklari"dan biri bo'lib keladi. Og'iz va lab qanchalik kichik va yupqa bo'lsa, yorning go'zalligi shunchalik kuchli, baland hisoblanadi. Ayni paytda u "yor"ning, demakki, ilohiy-irfoniy e'tiborning ham ramzi bo'lib kelishi mumkin. Unda bu so'z Allohni, uning buyukligini anglatadi Hozirgi holatda ham shu ma'no ko'zda tutilgan.

Ayni vodiyning "Lison ut-tayr"dagi Istig'no vodiysining bayoni tasavvurlarni yanada oydinlashtiradi:

– *"Vodiy ondin so'ngra Istig'nodurur,
Onda teng a'lou gar adnodurur.
Har dam istig'no eli bo'lg'onda tez,
Solibon ofoq aro yuz rustaxe.
Yog'ib istig'no sahobidin yog'in,
Yuz tuman olamni suv eltur sog'in"* [Navoiy 1996, 230].

Ushbu tasvirlar fonida Nasimiy lirik qahramonining "ovga chiqib" o'zining ovlangani mana shu kuch-qudrat e'itirofi va e'tiqodining o'ziga xos ifodasi, "solikka bas dushvor" ekani oshkor bo'ladi.

Chorshaba kun "voqealari" solik – yo'lovchining yorni chamanzorda ko'rishi bilan bog'liq. Bu ilohiy sirlar mohiyatidan xabardorlikning yana bir o'ziga xos darajasidir. Bunda bulbul o'zini ko'rib fig'on-u nolalarga kirishganiday, bu go'zallik oldida oshiq ham o'zini yo'qotadi. Ayni holatda u o'zini ko'ra boshlaydi ham. Aslida bu ham o'zlikni tanishning yana bir bosqichidir. U bejiz "tavhid" deyilmaydi.

Tavhid

*Chorshanba kuni yor keza keldi chaman ichra,
Bulbul daxi ko'rdi yuzini, tushdi fig'ona.*

Chaman, bo'ston, guliston orif ko'ngil martabalaridan biri bo'lib, undagi ko'ngilning ochiqqligi va samimiyatini anglatadi [Bertels 1965, 136].

*Vodiyi Tavhid ondin so'ngra bil,
Fard o'lub tajrid ondin so'ngra bil.*

"Tavhid" yagonalik, vahdat, "birlashish" degan lug'aviy ma'nolarga ega. Tasavvufda u "yaratganning yagonaligiga e'tiqod qilish" ma'nosini anglatadi.

"Tajrid"ning ma'nosi "boshqalardan uzoqlashish", "yakka-yu yolg'iz" bo'lishdan iborat [Фарҳанги забони тоҷики 1969, 359].

Bundagi asosiy mohiyat Xudoning yagonaligiga e'tiqod qilishdan iboratdir". Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"da donishmand Sariy tilidan "ma'rifatning ibtidosi — yolg'iz Haq bilan bo'lish uchun nafsni poklashdir" degan hikmatni keltiradi [Navoiy 2001, 46].

*Chun bu vodiy sori sayring qo'ydi gom.
Fard-u yaktolig' sanga bo'ldi maqom...
Chun sening olingg'a tushti bo'yla pech,
Bilki ermish birdin o'zga barcha hech.
Bir bo'l-u, bir ko'r-u, bir de, bir tila,
Mayl qilma munda ikkilik bila.
Ikkilik bu yo'lda ahvolliqdurur,
Sirri vahdatdin mu'attalliqdurur» [Navoiy 1996, 233–234].*

Bundan kelib chiqadigan asosiy to'xtam shuki, "har bir inson Xudoni o'zidan izlasin. Uning qudrati va shavkatini o'zida ko'rsin. Mazkur aqida «Kimki o'zini tanisa – Rabbini taniydi» degan hadis mazmunidan kelib chiqadi. Barcha hikmatlar, hodisot va mo'jizalar inson xilqatida joylashgan. Zero, Olloh taoloning so'zi bor: "Men yashirin xazina edim va sizni sevib qoldim, toki Meni bilib olinglar va jinlar, odamlarni yaratdim, toki Meni bilinglar". Inson maxluqotning, olamlarning gultoji, Olohning yerdagi xalifasi ekan, demak, unda Olloh sifatlari bo'lishi mantiqiy hol. Bundan tashqari, "yashirin xazina" bo'lgan Olloh taolo ilm-u hikmatning bir qismini inson qalbiga joylagan. Ya'ni inson "yashirin xazina"ni saqllovchi xazinadordir. Shu bois inson ko'ngli "irfon maxzani" [Komilov, 41]. Mana shu xazina esa uni yana oldinga chorlab turadi.

Hayrat

Panjshanba solikning o'z holatini anglashdagi yangi bosqich. Bu bosqichda solik – oshiq Alisher Navoiy tavsifidagi tuyg'ular ichida yashay boshlaydi:

*Hayrat aylar tilni gung-u lol ham,
Aql zoyil, hushni pomol ham.
Kecha-yu kunduzga boqsa har necha,
Onglamas kunduzmudur yoxud kecha [Navoiy 1996, 237].*

Xuddi shuning uchun ham Yorga murojaatdagi iltimos, o'tinch ohanglari bejiz emas:

*Panjshanba kuni yora dedim, pandim eshitgil,
Fosh etma bu rozi dilimi yaxshi-yomona.*

Hol va holatning sharhi ham "Lison ut-tayr"da juda yorqin

tarzda berilgan:

*Harne kasb aylab edi tavhid aro,
Vodiyi tafrid ila tajrid aro.
Barchasi ondin bo'lur mahv-u adam,
Yo'qki hosil qilg'olikim o'zi ham.
So'rsalarkim bormusen yo yo'qmusen,
Hech qaysi yo ikkisi-o'qmusen ... [Navoiy 1996, 238].*

Shunday tavsiflardan keyin anglash mumkinki, Nasimiyning lirik qahramoni bejiz iltimos qilmagan.

Hafta tugamoqda. Demak, yo'l ham oxirlamoqda. Manzil va maqsad ham shunga mos va munosib.

Faqr-u Fano

Odina kuni ko'rdi jamolini Nasimiy,
Ichdi labi la'lin shakarini ul qona-qona.

Jamol "ma'shuqa husnining zohir bo'lishi", boshqacharoq aytganda, sodiq oshiq uchun ilohiy sirlarning ochila borish darajalaridan biridir. Bunda oshiq mushohadalarining tiniqlashib borishi ham ko'zda tutiladi. Buni anglash uchun yana "Lison ut-tayr"ga murojaat etamiz:

*"Mundin o'tsa o'trug'a kelmas yano,
Yo'l aro juz vodiyi Faqr-u Fano.
Yo'q bu vodiy ichra juz xomushluq,
Gung-u kar bo'lmog'lig'-u behushluq.
Chun talotum ko'rguzub bahri amiq,
Yuz tuman olam bo'lub onda g'ariq ... [Navoiy 1996, 252].*

*Foniyi mutlaqdurur gar xud baqo,
Istasang qilmoq kerak o'zni fano" [Navoiy 1996, 252].*

Nasimiyning birgina g'azali bilan tanishib turib, ularda bir insonning hayot (irfoniy) yo'li tasvirini kuzatish mumkin. Unda o'sha insonning ilk qadamlaridan boshlab barcha hayotiy hodisalar alohida-alohida lavhalar sifatida tasvir etilgan. Nasimiy tasvirlagan inson odamning olam oldidagi tasavvur va tushunchalaridagi rang-baranglik, hayrat va zavqni oddiy va sodda hayotiy lavhalarda ko'rsatib berishi bilan e'tiborga molik. Shunga qaramay, Nasimiyning g'azalini o'qish bilanoq bu go'zalliklarni birdaniga ko'rish, ilg'ab olish qiyin, balki mumkin ham emas. Zero, ularning yuzida ma'no kelinchagining irfoniy pardalari "tortug'liq" turibdi. Mana shu pardalarni ochishda esa Amir Alisher Navoiyning nozik va nodir

hamda serma'no va qodir kuzatishlari, tasvir va xulosalari beqiyos ochqich vazifasini ado etmaganida biz, XXI asr kishilari shunchalik buyuk hayrat, takrorlanmas iste'dod va teran tafakkur mevalaridan bebahra qolgan bo'lar edik.

Hali Nasimiy g'azalining o'ziniyoq boshqacharoq yondashuv va andozalar bilan talqin va tahlil etish imkonlari turibdi. Qolaversa, uni irfoniy tadqiq etishning yanada rang-barang shakl va usullarini ham inkor etish mumkin emas. Bu borada Alisher Navoiy ayt-gandaridek:

*Bu yeti vodiy dog'i ijmol erur,
Lek tafsilida ko'p ishkol erur.*

Albatta, bular dastlabki kuzatishlar, xolos. Bu borada hali yanada jiddiyroq va batafsilroq tadqiqotlarning yuzaga kelishi tabiiy. Zero:

*Lek manzildin xabar bermas birav,
Kim bu yo'ldin yonmadi bir rohrav.*

Shunday ekan, matn va uning talqini ham rang-barang bo'lishi tabiiy.

Xulosa

Alisher Navoiy asarlarining marifiy ahamiyati o'z-o'zicha ham yuksak va bepoyon. Shunga qaramay, mutafakkir adib asarlarining boshqa mumtoz asarlar mazmuni va mohiyatini idrok etishdagi o'rni va ahamiyati ham naqadar yuksak ekani birgina misoldan ko'rinib turibdi. Bu ulkan dengizdan birgina qatra, xolos. Dengiz esa butun navoiyshunoslarni o'ziga chorlab turibdi.

Adabiyotlar

- Алишер Навоий. 1996. МАТ. Йигирма томлик. 16 т. *Лисон ут-тайр*. Изоҳлар билан нашрга тайёрловчи Ш. Эшонхўжаев. Тошкент: Фан.
- Алишер Навоий. 1990. МАТ. Йигирма томлик. 6 т. *Хазойин ул-маоний*. *Фавойид ул-кибар*. Илмий-танқидий текст асосида нашрга тайёрловчи Ҳ.Сулаймонов. Тошкент: Фан.
- Алишер Навоий. 2001. МАТ. Йигирма томлик. 17 т. *Насойим ул-муҳаббат*. Нашрга тайёрловчилар С. Ғаниева, М.Мирза-аҳмедова. Тошкент: Фан.
- Бертельс Е.Э. 1965. Избранные труды. *Суфизм и суфийская литература*. Москва: Наука, ГРВЛ.
- Комилов, Н. 1996. *Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи*. Биринчи китоб. Тошкент: Ёзувчи.
- Комилов Н. 1999. *Тасаввуф. Тавҳид асрори*. Иккинчи китоб. Тошкент:

Ёзувчи.

İmadəddin Nəsimi. Seçilmiş əsərləri. İki cildə. I cild. Bakı, "Lider nəşriyyat", 2004, 336 səh.

Имодиддин Насимий. 2019. *Жононни севарман* (Озарбайжон тилидан Тоҳир Қаҳҳор таржимаси). Тошкент: Билим ва интеллектуал салоҳият.

Осман Нури Топбаш. 2015. *В испытании мусульманитна самим собой. Тасаввуф*. Перевод с турецкого Наталья Наджиоглу. Стамбул,

Саид Жаъфар Сажжодий. 1303. *Фарҳанг-э истилоҳоту таъбироти ирфони*. Техрон.

Фарҳанги забони тожики. 1969. Жилди 1. Москва, Энциклопедия.

Фарҳанги забони тожики. 1969. Жилди 2. Москва, Энциклопедия.

Юсуф Хос Ҳожиб. 1972. *Қутадғу билиг*. Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи Қ. Каримов. Тошкент: Фан.

The Ideological Commonality of Nasimi and Navoi's Poetry

Bokijon Tukhliev¹

Abstract

The Turkic world and its culture have been shaped over the course of centuries. In the formation of this cultural heritage, Nasimi and Navoi occupy a particularly significant position. Notably, the works of both poets not only made a worthy contribution to Turkic spiritual culture but also share certain common ideological features. This article focuses on these shared aspects. In addition, the seven valleys depicted in the epic *Lison ut-Tayr* and their ideological and artistic characteristics are analyzed. The commonality of ideas is examined on the basis of the works of both authors. Drawing on interpretations of the number seven in Eastern literary tradition, the conceptual content of the seven valleys is substantiated.

Key words: *Turkish literature, poetry, mysticism, magaamat, stage.*

References

Alisher Navoiy. 1996. *MAT*. Yigirma tomlik. 16 t. *Lison ut-tayr*. Izohlar

¹ *Bokijon Tukhliev* – Doctor of Philology, Professor, Head of the Department of "Literary Theory" of the Alisher Navoi Institute of the Uzbek Language, Literature and Folklore of the Uzbek Academy of Sciences.

E-mail: bokijontukhliev@inbox.ru

ORCID ID: 0000-0003-2240-6856

For citation: Tukhliev, B. 2025. "The Ideological Commonality of Nasimi and Navoi's Poetry". *Golden Scripts* 1: 72 – 84.

- bilan nashrga tayyorlovchi Sh.Eshonxo'jaev. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy. 1990. MAT. Yigirma tomlik. 6 t. *Xazoyin ul-maoniy. Favoyid ul-kibar*. Ilmiy-tanqidiy tekst asosida nashrga tayyorlovchi H.Sulaymonov. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy. 2001. MAT. Yigirma tomlik. 17 t. *Nasoyim ul-muhabbat*. Nashrga tayyorlovchilar S. G'anieva, M.Mirzaahmedova. Toshkent: Fan.
- Bertels, Ye.E. 1965. Izbrannyye trudy. *Sufizm i sufiyskaya literatura*. Moskva: Nauka, GRVL.
- Komilov, N. 1996. *Tasavvufyoki komil inson axloqi*. Birinchi kitob. Toshkent: Yozuvchi.
- Komilov N. 1999. *Tasavvuf. Tavhid asrori*. Ikkinchi kitob. Toshkent: Yozuvchi.
- Imadoddin Nəsimi. Seçilmiş əsərləri. İki cildə. I cild. Bakı, "Lider nəşriyyat", 2004, 336 səh.
- Imodiddin Nasimiy. 2019. *Jononnni sevarman* (Ozarbayjon tilidan Tohir Qahhor tarjiması). Toshkent: Bilim va intellektual salohiyat.
- Osman Nuri Topbash. 2015. *V ispytanii musulmanitna samim soboy. Tasavvuf*. Perevod s tureskogo Natalya Nadjioğlu. Stambul,
- Said Ja'far Sajjodiy. 1303. *Farhang-e istilohotu ta'biroti irfoni*. Tehron.
- Farhangi zaboni tojiki*. 1969. Jildi 1. Moskva, Ensiklopediya.
- Farhangi zaboni tojiki*. 1969. Jildi 2. Moskva, Ensiklopediya.
- Yusuf Xos Hojib. 1972. *Qutadg'u bilig*. Transkripsiya va hozirgi o'zbek tiliga tavsif. Nashrga tayyorlovchi Q.Karimov. Toshkent: Fan.

“Maxzan ul-asror”ning o‘ziga xosligi va g‘oyaviy-estetik mohiyatiga doir

Qodirjon Ergashev¹

Abstrakt

Haydar Xorazmiy ijodiy merosi o‘zbek adabiyoti tarixida muhim o‘rin tutadi. O‘zbek epik she‘riyatining rivojida adib yaratgan dostonlarning o‘rni katta. Maqolada Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul-asror” asarining o‘zbek epik she‘riyati tarixidagi o‘rni va o‘ziga xosligi masalalari yoritilgan. Unda “Maxzan ul-asror”ga bag‘ishlangan oldingi ishlardagi munozarali fikrlarga munosabat bildiriladi, shuningdek, asarning bizdagi nashrlariga kiritilmagan va tahlil qilinmagan hamd va na‘t qismi haqida to‘xtalib o‘tiladi, asar tarkibidagi hikoyatlar tahlil qilinadi. Haydar Xorazmiy dostonining Nizomiy dostonidan farqli jihatlar va originalligiga alohida urg‘u berildi.

Kalit so‘zlar: *epik she‘riyat, o‘ziga xoslik, javob, hikoyatlar, personajlar, tarixiy shaxslar, ijtimoiy mazmun, tasavvufiy g‘oyalar, hayotiylik, badiiyat, epizod.*

Kirish

XV asrning birinchi yarmi o‘zbek adabiyoti rivojiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, undagi umumiy jonlanish, ko‘tarilish bilan birga yana boshqa ayrim tendensiyalar ham namoyon bo‘lishini ko‘ramiz. Ulardan biri adabiyotimiz tarixining boshqa davrlari uchun ham xos bo‘lgan holat – nazm va nasr taraqqiyotidagi tafovut, nasrning nazmga qaraganda sust rivojlanishi bo‘lsa, yana biri epik va lirik she‘riyat rivojidagi farq edi. Mazkur davrda yashab ijod qilgan adiblar Mavlono Lutfiy, Atoiy, Gadoiy, Sakkokiy, asosan, lirik janrlarda qalam tebratdilar, devon tuzdilar va o‘zbek lirik she‘riyati taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shdilar. Epik she‘riyatning yutuqlari esa kamtarroq bo‘ldi. Ana shunday sharoitda bu nomutanosiblikning ma‘lum darajada kamayishi, epik she‘riyatning taraqqiy etishi

¹ Ergashev Qodirjon Otajonovich – filologiya fanlari doktori, yetakchi ilmiy xodim, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti.

E-pochta: ergashev-q@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-8407-7931

Iqtibos uchun: Ergashev, Q. O. 2025. “Maxzan ul-asror”ning o‘ziga xosligi va g‘oyaviy-estetik mohiyatiga doir”. *Oltin bitiglar* 1: 85 – 97.

nuqtayi nazaridan Haydar Xorazmiy ijodi, xususan, uning “Maxzan ul-asror” va “Gul va Navro‘z” asarlari muhim ahamiyat kasb etadi.

“Maxzan ul-asror” – didaktik doston

“Maxzan ul-asror” – didaktik, falsafiy-ta’limiy doston. Sharq adabiyotida falsafiy-didaktik dostonlar yaratish an’anasi qadimdan mavjud edi. Fors adabiyotida Sanoiyning “Hadiqat ul-haqoyiq”, o‘zbek adabiyotida Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilik”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarlari mazkur janrning yorqin namunalari hisoblanadi.

Nizomiyning “Maxzan ul-asror” dostoni Sanoiyning “Hadiqat ul-hadoyiq” asaridan ta’sirlanib yozilgan [Бертельс 1947, 79]. Nizomiy dostoni falsafiy-didaktik she’riyat rivojida muhim bir bosqich bo‘ldi va o‘z navbatida bir qator boshqa asarlarning yaratilishiga turtki berdi. Shulardan biri Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul-asror”idir.

Dostonda muallif uning yozilgan vaqtini ko‘rsatmagan. N.Abdullayev o‘z tekshirishlari natijasida asarning 1411-yilning ikkinchi yarmidan to 1413-yilning birinchi yarmigacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida yozilgani haqidagi xulosaga kelgan [Абдуллаев 1976, 31]. Olimning bu fikri asosli, zero “Maxzan ul-asror” 1411-yilning ikkinchi yarmidan oldin ham, 1413-yilning birinchi yarmidan keyin ham yozilishi mumkin emas edi. Buning sababi shundaki, 1411-yilgacha Haydar Xorazmiy “Gul va Navro‘z” ustida ishlagan. “Maxzan ul-asror”dan farqli o‘laroq, “Gul va Navro‘z”da asarning yozilgan vaqti ko‘rsatilgan. Unda dostonning 1411-yilda yozib tamomlangani qayd qilingan. Muallif “Gul va Navro‘z” ustidagi ishni yakunlashi bilanoq “Maxzan ul-asror”ni yozishni boshlagan. Dostonning 1413-yildan keyin yozilgan bo‘lishi mumkin emasligining sababi esa oddiy, buni N.Abdullayev ham ko‘rsatib o‘tgan. Bu paytga kelib, ya’ni 2014–2015-yillarda Haydar Xorazmiyning homiysi Sulton Iskandar Shohrux Sultondan yengilib, hokimiyatdan mahrum etilgan edi.

Shu o‘rinda yana bir masalaga to‘xtalib o‘tish zarur. Tadqiqotlarda “Maxzan ul-asror”ga nisbatan turlicha qarashlar namoyon bo‘lganini ko‘rish mumkin. Filolgiya fanlari doktori J.Sharipov “O‘zbekistonda tarjima tarixidan” kitobida uni tarjima asar sifatida baholagan [Шарипов 1965, 57]. Atoqli olim V.Zohidovning fikricha, Haydar Xorazmiy asari Nizomiy dostonining erkin tarjimasidir [Зохидов 1948, 60 – 61]. Yuqoridagi fikrlarga xilof o‘laroq, prof. E. Rustamov o‘z kuzatishlari natijasida “Maxzan ul-asror”ning tarjima emasligi haqidagi xulosaga kelgan [Рустамов

1963, 81 – 82]. O'zbek adabiyoti tarixining 1-tomida Haydar Xorazmiy Nizomiyning "Maxzan ul-asror"ini o'zbek tilida yozgani haqida gapiriladi, shuningdek, Haydar Xorazmiy asari Nizomiy dostoni asosida yaratilgan, degan fikr bildiriladi hamda uning Nizomiyga javob ekani aytiladi [Ўзбек адабиёти тарихи 1977, 276]. Y. Bertels [Бертельс 1947, 79], N. Abdullayevlar [Абдуллаев 1976, 22, 28] ham uni Nizomiy dostoniga javob, A. Sherbak o'xshatma (podrajanie) deb hisoblaydi [Щербак 1962, 31].

Dostonning o'zida esa muallif o'z asarini tarjima ham, javob ham demagan. To'g'ri, u Nizomiyni ulkan ehtirom bilan tilga oladi. Dostonning "Kitob yozilishining bayoni" qismida Haydar Xorazmiy Nizomiy bilan xayoliy uchrashuv tafsilotini beradi, buyuk shoir uni turkiy tilda asar yozishga undagani va uning izidan borishga da'vat qilganini aytadi va

*Menki pishurdim bu laziz oshni,
Shayx Nizomiydin olib choshni*

deb yozadi. Yuqoridagi so'zlar Haydar Xorazmiyning Nizomiyga bo'lgan ixlosi va hurmatidan, uning ijodidan ta'sirlangani va ilhomlaganligidan dalolat beradi, lekin ulardan Nizomiy asarini tarjima qildim yoki unga javob aytdim, degan ma'no chiqmaydi. Keltirilgan baytda "Menki pishurdim bu laziz oshni" deya shoir oshni o'zi pishirganini ta'kidlamoqda. Nizomiydan u choshni (maza, ta'm) olgan, ya'ni mahorat sirlarini o'rgangan, hamda yuqorida aytilganidek, undan ta'sirlangan va ilhomlangan. Binobarin, Haydar Xorazmiyning "Maxzan ul-asror" dostoni o'ziga xos, original asar ekanligini ta'kidlash lozim. Uning tuzilishi, g'oyaviy-badiiy mazmuni shundan dalolat beradi.

Asardagi o'ziga xoslik, eng avvalo, uning boshlanishida, hamd va na'tlardayoq ko'zga tashlanadi. Afsuski, dostonga bag'ishlangan tadqiqotlarda bu qismlar e'tibordan soqit qilingan, tahlilga tortilmagan, shuningdek, nashrda ham butunlay tushirib qoldirilgan. O'zbek adabiyoti tarixining 1-tomida bir-ikki jumlada yuzaki fikrlar bildirib ketilgan. Unga ko'ra, asardagi hamd va na't Nizomiy dostonining kirish qismidagi ko'ngil haqidagi xilvatlar, payg'ambarning to'rt ta'rifi kabi bo'limlarning qisqartirilgan bayonidir [Ўзбек адабиёти тарихи 1977, 269]. Haydar Xorazmiy asaridagi hamd va na'tlarning tahlili yuqoridagi so'zlarning asossizligini ko'rsatadi. Mazkur qismlar Nizomiy fikrlarining qisqartirib berilgan takrori emas, Haydar Xorazmiyning o'z original ijodi mahsulidir. Hamd ham, na't ham hajm jihatidan katta emas. Hamd 22 misra, na't ham 22 misra bo'lib, bu ikki qism jami 44

misrani tashkil etadi. Hamd quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*Bismillahir rahmonir rahim
Fath-u zafar oyatidir, ey hakim.*

Muallif har bir ishni tangri oti bilan boshlash va uning oti bilan xatm qilish zarurligi haqida yozadi va boshlangan har qanday ishning kushod topishi, ya'ni muvafaqiyatli yakunlanishi shunga bog'liq ekanini ta'kidlaydi:

*Boshlang'an ish oyat ila boshlaqil,
Tengri oti birla ani xatm qil.
Charxi falak davr urar otidin,
Jumla jahon bo'ldi ayon zotidin.
Har nekim ish boshlasang, ey nekdod,
Tengri otidin topar ul ish kushod.*

Keyingi misralarda Yaratuvchining qudrati haqida, Uning olamni yo'qdan bor qilgani, hamma narsani bilguchi ekani haqida so'z yuritiladi. Turli insonlarga Tangri tomonidan turlicha maqomlar berilgani haqida shoir shunday yozadi:

*Bir nechaga bermish edi izz-u joh,
Bir nechani qildi g'azabdin taboh.
Bir nechaga toji risolat berip,
Bir nechaga nuri hidoyat berip.
Bir nechani qildi jahonda nabi,
Bir nechani qo'ydi otini vali.*

Bundan tashqari, hamdda Tangrining insonlarga nima kerakligini bilishi, nima istasa shuni qilishi, Tangrining sherigi ham, vaziri ham yo'qligi, uning bemisllik va benazirlik singari sifatleri o'z badiiy ifodasini topgan.

Na't qismida Haydar Xorazmiy Muhammad (a.s.)ni diniy va badiiy adabiyotlarda keng tarqalgan "jumla rasul sarvari", "karam koni", "sidq-u safo ma'dani" singari an'anaviy epitettar bilan ulug'lar ekan, uning o'z ummatlarining gunohlarini Haq taolodan so'ragani va ularni shafolat qilishi masalasiga asosiy urg'u beradi:

*Vasl bisotini qilib takyagoh,
Bo'ldi biz ummatlar uchun uzrxoh.*

Baytda rasul a.s.ning me'rojga ko'tarilib, qurb maqomiga yetganda qilgan uzrxohligi ko'zda tutilgan. O'sha maqomda Haq taolo u kishidan "Ey Muhammad, ummatlaringning nima tilagi bor?" deb so'ragan. Muhammad a.s. ularning Tangridan qilgan xatolari va

gunohlarini kechirishini so'rayotganlarini bildirgan va ummatlari bu xato-yu gunohlarni qasddan emas, bilmasdan sodir etganlarini aytib, ular uchun uzr so'ragan hamda uzri qabul bo'lgan [Рабъузий 1991, 153].

Nizomiy va Haydar Xorazmiy asarlarida ayrim bir xil nomlangan bo'limlar mavjud, lekin ularning mazmuni o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Masalan, Haydar Xorazmiy asari muqaddimasida "So'z ta'rifining bayoni" deb atalgan bob bor. So'z ta'rifiga Nizomiy ham o'z asarida bir bobni bag'ishlagan. Bobni u "So'z fazilati bayoni" deb nomlagan. Unda Nizomiy so'zning va shoirlikning maqomi balandligi haqida so'z yuritadi, nasrdan nazmning afzalligi, shoirlar o'z maqomiga ko'ra anbiyodan (payg'ambarlardan) keyin turishi haqidagi fikrlarni bayon etadi va diniy aqidalar yordamida dalillaydi:

*Pardayi roziki suxanparvari,
Soyayi ul soyayi payg'ambari.
Pesh-u pase bog'ladi saf kibriyo,
So'ng shuaro keldi, burun anbiyo...
She'r senga sidranishoniy berar,
Saltanati mulki maoniy berar.
She'r amir deb berur senga nom,
"K ash-shuaro umaro ul-u-kalom"*

(Tarjima O.Bo'riyevniki).

Haydar Xorazmiy ham so'zni sharaflaydi, ulug'laydi, lekin buni boshqa aspektda, so'zning ahamiyatini, uning insoniyat taraqqiyotidagi, ilm-ma'rifatning yuksalishidagi o'rni va rolini ko'rsatish, badiiy so'zning xususiyatlari va qudratini ta'kidlash orqali amalga oshiradi:

*Umr chu qat' etti odam manzili.
So'zga raqam urdi odamning tili.
So'z guhari bilguchi sarafroz,
Bo'ldi bilig na'tida mansuba boz...
Ilm maqom tobtiyu qildi zuhur,
Shu'la urub partavini soldi nur...
Abjadi ta'rif qilib izdivoj,
Ma'rifat arqomina berdi rivoj...
Oqil agar so'z birla so'zni topar,
Orif o'shul so'zda o'zni topar.
Ulki bilur so'z guhari qiymatin,
So'zda topar so'zlaguchining otin.*

“Maxzan ul-asror”ning asosiy qismini hikoyatlar va ulardan keyin keltiriladigan nasihat yoki ma’viza deb ataluvchi boblar tashkil etadi. Hikoyatlar asarning g’oyaviy-badiiy mazmunida katta o’rin tutadi. Ularning ayrimlarida hayotiy voqealar o’zining yorqin tasviri va ifodasini topganini ko’rish mumkin. Ayni paytda bu hikoyalar Xorazmiy dostonining originalligini, uning Nizomiy asari asosida yozilmaganligini ham ko’rsatib turadi. “Muborak maktublar” kitobida “Maxzan ul-asror”dagi hikoyatlar soni 5 ta deb ko’rsatilgan. Aslida esa unda 8 ta hikoyat mavjud va ular quyidagilardir:

1. Forsda pul yo’qotgan otliq hikoyati.
2. Bo’zchi kampir va bazzoz hikoyati.
3. Hotami Toiy haqidagi hikoyat.
4. Sulaymon hikoyati.
5. Temurbek va mo’r hikoyati.
6. Sulton Mahmud G’aznaviy va pir hikoyati.
7. Sulton Mahmud va vazir hikoyati.
8. Horun ar-Rashid va Bahlul hikoyati.

Bu sanab o’tilgan sakkiz hikoyatdan faqat bittasi – “Sulton Mahmud va vazir” hikoyati Nizomiy dostonidagi No’shiravon haqidagi hikoyat bilan mazmunan hamohangdir. Qolgan hikoyalarning hech biri Nizomiy asarida yo’q. Mana shu faktning o’zi ham Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul-asror”ining Nizomiy dostoni asosida yozilgani haqidagi fikrni rad etadi. Aftidan, Nizomiy va Haydar Xorazmiy asarlaridagi ayrim hikoyatlarda bir xil personajlarning (Sulaymon, Sulton Mahmud G’aznaviy, Horun ar-Rashid) uchrashi bu masalada tadqiqotchilarni chalg’itgan. Masalan, Haydar Xorazmiy asaridagi bir hikoyatda Sulaymon ifritga dengiz ostidan loy olib chiqib, ko’za yasashni buyuradi. Uning maqsadi ana shu ko’zada tiniq, mazali suv ichish edi. Ifrit buyruqni bajaradi, lekin ko’zadagi suv achchiq bo’lib chiqadi. Hikoyada ko’za tilidan buning sababi bayon qilinadi va hikoyaning g’oyaviy-falsafiy mazmuni ayon bo’ladi. Sulaymon Nizomiy dostonidagi bir hikoyatda ham personaj sifatida ishtirok etadi. Hikoyat Sulaymon bilan bir dehqon o’rtasidagi muloqotga bag’ishlangan. Muloqot davomida dehqonning donoligi, ma’naviy qiyofasining yuksakligi namoyon bo’ladi. Hikoyalarning mazmuni, syujeti va g’oyasi butunlay bir-biridan farq qiladi. Xuddi shunday holni har ikki asardagi Sulton Mahmud G’aznaviy, Horun ar-Rashid ishtirokidagi hikoyalarni qiyoslaganda ham ko’ramiz.

“Maxzan ul-asror” hikoyatlari badiiyati

“Maxzan ul-asror”da o’zining chuqur ijtimoiy mazmuni

va g'oyasi, yuksak badiiyati va hayotiyliги bilan ajralib turuvchi hikoya – "Bo'zchi kampir va bazzoz"dir. U Haydar Xorazmiyning hikoyachilik mahoratini o'zida namoyon etadi. Ushbu hikoya ko'p tadqiqotchilarning diqqatini tortgan, jumladan, u E.Rustamov, N.Abdullayev, A.Abdug'afurov, N. G'anixo'jayevalar tomonidan tahlil qilingan. Shunday bo'lsa-da, hikoyaning "Maxzan ul-asror"ning g'oyaviy-badiiy mazmunidagi o'rne va ahamiyatini hisobga olib biz ham to'xtalib o'tishni lozim topdik. Avvalo, hikoyaning o'ta ta'sirli ekanini ta'kidlab o'tish zarur. Muallif bunga qanday erishganini biz quyiroqda ko'rsatamiz. Savdogarlarning, bozor ahlining ijtimoiy qiyofasini tasvirlash, ularga xos salbiy xususiyatlarni ko'rsatish mavzusi davr sharq adabiyoti uchun yangilik emas. Ma'lumki, bu ijtimoiy qatlam orasida bir qator illatlar ildiz otgan bo'lib, yulg'ichlik, qalloblik, muttahamlik, foyda ketidan quvish, foyda olish uchun hech narsadan tap tortmaslik savdogarlar toifasining ko'pchiligi uchun xos xususiyatlarga aylangan edi. "Bo'zchi kampir va bazzoz" hikoyasi qahramoni ham ana shundaylardan biri.

Hikoya ikki epizoddan iborat. Birinchi epizodda bazzoz bilan bo'zchi kampir orasidagi oldi-sotti tasvirlangan. Har qanday savdogar, hatto insofini yo'qotmagani ham bunday paytda o'z manfaati uchun tirishadi, arzon narxda olishga, qimmat narxda sotishga intiladi. Lekin insofini yo'qotgan bo'lsa, foydaga haris bo'lsa, turli nayrang yoki aldovlar bilan o'z maqsadiga erishadi. Haydar Xorazmiy hikoyasidagi bazzoz ham boshqalardan yulish uchun hech qanday tubanlikdan qaytmaydi. Bazzozning tubanligi, pastkashligi shundaki, u kampirning ilojsiz ahvolda zkanligidan foydalanadi. Uning oldiga zo'rg'a yetib kelgan, arang nafas olayotgan bemor ayolning o'z bo'zi uchun boshqa xaridor izlashga ham, topishga ham holi, madori yo'qligini bazzoz ko'rib turibdi. Shuningdek, u kampirning bo'zni sotmay qaytarib olib ketolmasligini ham biladi, chunki uyda uni och-nahor bolalari kutyapti. Shunday ekan, bo'zchi kampir bazzoz aytgan narxga rozi bo'lishga majbur. Shu sababli u bo'zni pastga urib, sifatsiz to'qilgan, buni hech kim olmaydi qabilidagi so'zlarni aytadi va arzimagan bir-ikki dirham evaziga bo'zni olib qoladi.

Shunday qilib, muallif birinchi epizoddayoq bazzozning razil basharasini ochib beradi. Ikkinchi epizodda esa bu qiyofa yangi chizgilar bilan boyitiladi va bazzozning ichki dunyosi va atvori yanada to'laroq namoyon bo'ladi. Epizodda bazzoz kampirdan olib qolgan bo'zga xaridor bo'lgan kishi bilan oldi-sotdi jarayoni tasvirlangan. Bu xaridor eng yaxshi bo'zni sotib olshni xohlaydi. U bo'zchi kampir

singari ojiz va nochor emas. Shunga ko'ra savdogar bu o'rinda boshqacha yo'l tutadi. U endi bu xaridorning ishonuvchanligidan, oldi-sotdi ishida no'noqligidan foydalanadi, so'zamollik bilan bo'zni maqtab, ta'rifini keltiradi va uni qimmat mato – katon narxida sotadi. Hikoyada ochko'zlik, foydaga harislik, har qanday yo'l bilan bo'lsa ham foyda ko'rish istagi bazzozni oddiy insoniy xususiyatlardan mahrum qilgani hayotiy voqea tasvirida o'zining yorqin ifodasini topgan. Hikoyaning ta'sir kuchi ham mana shunda. Bir oz bo'lsa-da insoniyligi saqlanganda edi u ayolga yashilik qilmagan taqdirda ham hech bo'lmasa uni aldamagan, bo'ziga insof bilan narx qo'yib sotib olgan bo'lar edi. Bazzozning atvorida esa buning aksini ko'ramiz: bo'zchining holi uni achintirmaydi, aksincha bazzozning ishtahasi ochiladi, u darhol ayolning ilojsizligidan foydalanish mumkinligini anglaydi va buni amalga oshiradi.

Asardagi "Temurbek va mo'r" hikoyati ham ana shunday o'zining muhim ijtimoiy g'oyasi, original syujeti va mazmuni bilan ajralib turadi. Hikoyatda insonlarni sabotli, irodali bo'lishga, maqsadga erishish yo'lidagi qiyinchiliklardan qo'rqmaslikka, ularni yengib o'tishga da'vat etiladi. Insonning muvaffaqiyatga erishishi, o'z orzu va maqsadlarini amalga oshirishi ko'p omillarga bog'liq. Bunda uning shaxsiy xususiyatlari: irodasi, ruhiy kuchi va o'ziga bo'lgan ishonchi muhim o'rin tutadi.

Buyuk maqsad va orzularning ro'yobga chiqishi osonlikcha bo'lmaydi. Buning uchun shunga yarasha sa'y -harakat, sabot va jur'at talab etiladi. Hikoyaning mazmuni va g'oyasi shunday va shu sababli muallif o'zining badiiy niyatiga mos ravishda unga jahon tarixining yorqin siymolaridan biri, hayoti va faoliyatida, shaxsiyatida jasorat, kuchli iroda va sabotu shijoat mujassam bo'lgan tarixiy shaxs – Temurbek Ko'ragonni personaj sifatida kiritadi. U Sohibqironning biografiyasiga oid faktdan, siyosiy faoliyatining dastlabki yillari, toj-taxt uchun kurash olib borgan vaqtida yuz bergan voqeadan foydalanadi. Ma'lumki, Sohibqiron og'ir janglarning birida qo'lidan, boshqa bir jangda oyog'idan yaralangan va uning bir qo'l va bir oyog'i majruh bo'lib qolgan. Hikoyatdagi talqinga ko'ra, o'sha paytda Temurbek tushkunlikka tushib qolgan. Haydar Xorazmiy buni shunday tasvirlaydi:

*Bo'ldi bu kech charx ishidin noumid,
Ko'ngli ko'tardi o'zidin e'timid.
Bir iligi, bir oyog'i muhtalo,
Qoldi g'ariblikda bu dushman aro.
Zaxm-u jarohat bila bedast-u poy,*

*Hech kishi yo'q tegrasida juz xudoy.
Ko'laga uchun tom tubinda yotib.
Mungluq edi tuz ichinda yotib.*

Shu holatda Temurbekning ko'zi yarim beli yo'q majruh chumoliga tushadi. Chumoli devorga o'rmalab chiqmoqchi bo'ladi, lekin qulab tushadi. Yana tarmashadi va yana yiqiladi. Bu hol ko'p marta takrorlanadi. Lekin chumoli har qatla devorga qaytadan tarmashaveradi va nihoyat devorga chiqib oladi:

*Ko'rdiki, bir mo'r oyog'i, ili yo'q,
Bo'kchasi majruh-u yarim beli yo'q.
Keldi-yu ul tomga yopishti ravon,
Sa'y hamon edi-yu yiqilmoq hamon.
Ushbu yiqilganga to'ngulmadi mo'r,
Yormanib ul tomg'a yana qildi zo'r...
Tushti yana bosh quyi ul tomdin,
Keldi, yopushti yana nokomdin.
Olti-yeti qatla tusha yormana,
Chiqti o'shul tom boshina tirmana.*

O'zi guvoh bo'lgan bu holat, chumolining ishi bekka qattiq ta'sir ko'rsatadi. U o'z ahvolini chumolining ahvoliga qiyoslaydi va undan ibrat oladi. Bu voqeani u ramz sifatida qabul qiladi hamda o'z kurashini, maqsadiga yetish yo'lidagi sa'y-harakatlarini davom ettirishi kerakligini anglaydi. Uning yuragi yana maqsad va orzular yo'lida jo'sh uradi, u o'zida yangi kuch-quvvatni his etadi:

*Bek etib ul ishdin o'z ishini yod,
Bo'ldi o'shul ramz bila ko'ngli shod.
Kuchlanib ul dam yuragi jo'sh etib...
Himmat ili, davlat oyog'i bila,
Ilik oyoq sundi yarog'i bila.*

"Forsda pulini yo'qotgan otliq" hikoyati ham ijtimoiy mazmunga, original syujet va g'oyaga ega. Bir otliq kishi shaharda ot ustida borayotib pulini tushirib qo'yadi. U pulini qidiradi, kelgan yo'lidan orqaga qaytib ancha masofagacha izlab boradi. Topolmaganidan so'ng jar ham soldiradi. Shunda ham topilmagach, pulidan umidini uzadi va xudoga shunday iltijo qiladi: "Eyparvardigor, o'sha men yo'qotgan mablag' sayyid va muftilarga nasib qilmasin". Bu so'zlarni eshitgan bir fuzul(devona) unga nasihat qiladi:

*Ul dam achirg'andi anga bir fuzul,
Kim bu kishilar erur ahli qabul.
Dunyo bular birla erur obodon,*

*Bo'lmasun ul toifadin boshqa jon.
 Sen ne sabab birla bu so'zlar deding,
 Hech nima ul elga ravo ko'rmading?
 Lekin otliq uning bu nasihatini qabul qilmaydi:
 Dedi bu yarmog'ini iturgan faqir,
 Qo'y bu nasihatni, dagul dilpazir.*

U yo'qotgan pulining faqir, oddiy kishilarga nasib bo'lishini istaydi, toki u kishi bu nasibani Xudo menga g'aybdan berdi, desin va Xudodan bu pulni o'ziga halol qilishni, pulning egasiga savob yozilishini tilasin va xarj qilib bola-chaqasi bilan yesin:

*Toki agar topsa faqir-u g'arib,
 G'aybdin erdi desalar bu nasib.
 Omki sodiq dili parhezkor,
 Topsa aytgaykim, ey parvardigor,
 Bizga halol et, iyasina savob,
 Dunyoda-o'q har birina o'n javob.
 Xarj qilib evda yarog'i bila,
 Yegay oni o'g'lon-ushoqi bila.*

Hikoya oddiy kishilarga, faqir va g'ariblarga xayrixohlik ruhi bilan sug'orilgan. Boshqa ayrim tabaqalarga nisbatan salbiy munosabat namoyon bo'ladi. Garchi bu muallifning pozitsiyasi bo'lsa-da, u muayyan darajada o'sha davr jamiyatidagi kayfiyatni, ommaning munosabatini ham ko'rsatadi deyish mumkin.

"Maxzan ul-asror"dagi "Horun ar-Rashid va Bahlul", "Sulton Mahmud G'aznaviy va pir" hikoyatlari tasavvufiy mazmun va g'oyaga ega. Bu hikoyatlardagi Horun ar-Rashid, Bahlul, Sulton Mahmud G'aznaviy kabi personajlar ham tarixiy shaxslardir. Birinchi hikoyatda Horun ar-Rashid Bahlulning oyog'i yalang ekanligini ko'rib unga kovush olib bermoqchi bo'ladi. Shu munosabat bilan ular orasida munoqasha bo'lib o'tadi va u hikoyatning asosiy mazmunini tashkil etadi. Hikoya qanoatni, dunyoga ko'ngil qo'ymaslikni targ'ib qiladi.

Keyingi hikoyada Sulton Mahmud G'aznaviyning ov qilib yurib chekka bir yerdagi bir xarobada istiqomat qiluvchi pirni uchratgani bayon qilinadi. Ibodat bilan mashg'ul chol sultonga e'tibor bermaydi, ibodatini tugatgandan so'ng shohga murojaat qilib uning kimligini so'raydi. Sulton o'zini tanishtiradi va cholga bu xaroba maskanini tark etishni, bir yaxshi joyga, chiroyli imoratga ko'chib o'tishni taklif qiladi. U yerda toat-ibodat uchun barcha zarur narsalarni muhayyo qilib qo'yishini aytadi. Pir o'zining shu

hayotini ma'qul ko'rishini, boshqa hech nimaga ehtiyoji yo'qligini aytib, Sultonning taklifini rad etadi. Faqat bugina emas, u shohning hayot tarzini ma'qullamaydi, unga qattiq so'zlar aytadi va "Ajal birdan boshingga kelsa nima qilasan?" deya xitob qiladi. Ranjigan shoh bunga javoban "Sen o'zing qanday o'lasan?" deydi. Pir bu so'zlardan so'ng o'sha zahoti jon taslim qiladi. Sulton xijil bo'lib saroyiga qaytadi. Faqr yo'lga kirishga, dunyoning hoyu havaslariga berilmaslikka, uni tark etib, uzlatda toat-ibodat va qanoat bilan umr o'tkazishga da'vat qilish hikoyatning asosiy g'oyasini tashkil etadi.

Shunisi qiziqki, Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida shunga o'xshash voqeani Shayx Fariduddin Attor hayotida bo'lib o'tgan hodisa sifatida hikoya qilgan va Attorning faqr yo'lga kirishini shu bilan bog'lagan. Voqea Attor hayotining u hali savdo bilan shug'ullanib yurgan davrida yuz beradi. U attorlik do'konida savdo qilib o'tirganda, do'konga bir gado keladi va tilanadi. Attor unga parvo qilmay savdosini davom ettiraveradi. Shunda gado Attorga "Sen qanday o'lasan?" deb savol beradi. Attor "Sen qanday o'lsang, shunday"deb javob qiladi. Gado "Sen mendek o'la olmaysan" deydi va jon taslim qiladi. Bu voqeadan so'ng Attor attorlikni tark qilib, faqr yo'lga kiradi. "Nasoyim ul-muhabbat"dagi bu epizod "Maxzan ul-asror"dagi "Sulton Mahmud G'aznaviy va pir" hikoyatining g'oyasi haqida yuqorida bildirgan fikrlarimizni tasdiqlaydi.

Xulosa

"Maxzan ul-asror"ning salmoqli qismini nasihat, mav'izalardan iborat sof didaktik-falsafiy mazmundagi boblar tashkil etadi. Asardagi har bir hikoyatdan keyin ana shunday boblar keladi. Ushbu boblarning har birining mazmuni undan oldin keltirilgan hikoyat mazmuni bilan uyg'un va bog'liqdir. Masalan, diyonatsiz bazzozning bo'zchi kampirga nisbatan qilgan insofsizligi, yana bir boshqa xaridorni aldagani haqidagi hikoyatdan keyin o'rin olgan bobda savdo-sotiqda insofli va halol bo'lish, boshqalarning haqiga xiyonat qilmaslik, aldamaslik haqida so'z yuritiladi. "Temurbek va mo'r" hikoyatidan keyingi bobda maqsad yo'lidagi to'siqlarni yengib o'tish, hayotdagi omadsizliklar, inson boshiga tushishi mumkin bo'lgan boshqa sinovlar, taqdir zarbalari oldida esankiramaslik, o'zini yo'qotmaslik, ularni mardona qabul qilish va o'z yo'lida davom etish lozimligi uqtiriladi. "Horun ar-Rashid va Bahlul" haqidagi hikoyat bilan bog'liq bobda qanoat fazilati, dunyoga ko'ngil qo'ymaslikning,

faqr yo'lining afzalligi haqidagi fikrlar o'z ifodasini topgan. Ayni paytda asardagi nasihat, mav'iza mazmunidagi boblarda yaxshi insoniy fazilatlar ulug'lanadi, salbiy xislatlar qoralanadi, insonlar uchun foydali bo'lgan pandlar, o'gitlar bayon etiladi. Dostonning bu qismlari muallifning ijtimoiy, falsafiy-didaktik qarashlarini o'zida aks ettirishi bilan ahamiyatlidir.

Adabiyotlar

- Абдуллаев, Н. 1976. *Ҳайдар Хоразмий ва унинг “Махзан ул-асрор” асари*. Тошкент.
- Бертельс, Е. 1947. *Низами*. Москва.
- Шарипов, Ж. 1965. *Ўзбекистонда таржима тарихидан*. Тошкент: Фан.
- Зоҳидов, В. 1948. *Дунё адабиётининг нуроний сиймоси*. Тошкент.
- Рустамов, Э. 1963. *Узбекская поэзия в первой половине XV века*. Москва.
- Ўзбек адабиёти тарихи*. 1977. 1-том. Тошкент.
- Щербак, А.М. 1962. *Грамматика староузбекского языка*. М-Л.
- Носириддин Бурҳониддин Рабғузӣй. 1991. *Қисаси Рабғузӣй*. 2-китоб. Тошкент.

On the Uniqueness and Ideological and Aesthetic Essence of *Makhzan ul-Asror*

Kadirjon Ergashev¹

Abstract

Haydar Khwarazmi's creative legacy occupies an important place in the history of Uzbek literature. The epics composed by the author played a significant role in the development of Uzbek epic poetry. This article examines the position and distinctive features of Haydar Khwarazmi's work *Makhzan al-Asrar* within the history of Uzbek epic poetry. It addresses and critically evaluates controversial viewpoints expressed in earlier studies devoted to *Makhzan al-Asrar*. In addition, the article discusses the previously unedited and unanalyzed sections

¹ Kadirjon O. Ergashev – Doctor of Philological Sciences, Leading Researcher at the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

E-pochta: ergashev-q@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-8407-7931

For citation: Ergashev, K. O. 2025. "On the uniqueness and ideological and aesthetic essence of *Makhzan ul-Asror*". *Golden Scripts* 1: 85 – 97.

of praise (hamd) and eulogy (na't) that were not included in existing editions of the work, and provides an analysis of the narratives contained within the poem. Special emphasis is placed on the originality of Haydar Khwarazmi's epic and on the aspects that distinguish it from Nizami's poem.

Key words: *epic poetry, uniqueness, response, plots, characters, historical figures, social content, mystical ideas, vitality, art, episode.*

References

- Abdullaev, N. 1976. *Haydar Xorazmiy va uning "Maxzan ul-asror" asari*. Toshkent.
- Bertels, Y. 1947. *Nizami*. Moskva.
- Sharipov, J. 1965. *O'zbekistonda tarjima tarixidan*. Toshkent: Fan.
- Zohidov, V. 1948. *Dunyo adabiyotining nuroniy siymosi*. Toshkent.
- Rustamov, E. 1963. *Uzbekskaya poeziya v pervoy polovine XV veka*. Moskva.
- O'zbek adabiyoti tarixi*. 1977. 1-tom. Toshkent.
- Sherbak, A.M. 1962. *Grammatika starouzbekskogo yazika*. M-L.
- Nosiriddin Burhoniddin Rabg'uziy. 1991. *Qisasi Rabg'uziy*. 2-kitob. Toshkent.

LINGVISTIKA
LINGUISTICS

Alisher Navoiy nasriy asarlarida uyushiq kengaygan kesimlarning sintaktik-semantik xususiyatlari

Samixon Ashirboyev¹

Abstrakt

O'zbek tilshunosligida kesimi unga bog'langan sintaktik strukturalar bilan kelishi kesim tarkibining kengayishi sifatida qaralayotganligi ma'lum. Alisher Navoiy nasriy asarlarida bunday sintaktik strukturalar uyushiq holda ham qo'llanganki, ularni qo'shma gap sifatida ham talqin qilishga harakatlar bo'lgan, lekin ularning bir predikativ markazga egaligi jihatidan bunday qarashning mavjud sintaktik vaziyatga mos emasligi tan olindi va uyushiq kesimlar sifatida talqin qilinishi e'tirof etilmoqda. Bunday kesimli gaplar Alisher Navoiy tomonidan badiiylilikni ta'minlash uchun ham qo'llanganligi ma'lum bo'lib qolmoqda. Ta'kidlash joiz, bunday kengaygan va uyushiq kesimlar o'zaro bog'lovchisiz va bog'lovchilar bilan sintaktik munosabatga kirishgan.

Ushbu maqolada uyushiq kengaygan kesimlarning bog'lanish shakllari va semantik munosabatlari to'g'risida gap boradi.

Tayanch tushunchalar: *gap, sodda gap, qo'shma gap, hokim komponent, kengaygan kesim, uyushiq kesimli sodda gap, predikativ markaz, kengaygan kesimlarning o'zaro bog'lanishi.*

Kirish

Alisher Navoiy ijodining lingvistik xususiyatlariga qiziqish hamon keng qamrovga ega bo'lmoqda. Uning asarlari sintaksisi ham tadqiqot obyekti bo'lib keldi [Аширбоев 1990; Азимов; Раҳматов 2006]. Shuningdek, adib asarlari poetik sintaksis jihatidan ham o'rganila boshlandi. Bu borada N.Umarova va M. Rahmatovlarning ishlarini ko'rsatish mumkin [Умарова 2005; Умарова 2021; Rahmatov 2022].

Shuni ta'kidlash joizki, Alisher Navoiy asarlarining sintaktik

¹Samixon Ashirboyev – filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail: samixon.ashirboyev@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-5202-6494

Iqtibos uchun: Ashirboyev, S. 2025. "Alisher Navoiy nasriy asarlarida uyushiq kengaygan kesimlarning sintaktik-semantik xususiyatlari". *Oltin bitiglar* 1: 98 – 107.

qurilishi o'ta murakkab bo'lib, aksariyat o'rinlarda nostandart strukturalarni hosil qiladi. Ular haqida maxsus maqolalar ham e'lon qilindi ham [Ashirboyev 2020].

Bu maqolada kengaygan kesimning sintaktik tabiatini tahlil qilish ko'zda tutilmagan, balki kengaygan kesimlarning [Sayfulayeva 2010, 353] sintaktik va uning mazmun munosabatlarini yoritish maqsad qilib qo'yilgan. Asosiy urg'u avvalo ularning bog'lanishiga qaratiladi.

Asosiy qism

Alisher Navoiyning nasriy asarlarida mazmun planiga ko'ra murakkab, ifoda planiga ko'ra esa murakkablashgan sodda gaplar ham mavjudki, bunday gaplarda bir ega pozitsiyasi saqlangani holda kesim guruhi undagi hokim so'z boshqaruvida kengayib keladi. Bu hol sodda gaplarni, so'zsiz, murakkablashtiradi. Bunday gaplar o'zbek tilshunosligida yoyiq kesimli sodda gaplar [Абдурахмонов 1962, 3–11], uning ikki va undan ortiq qo'llanishi esa o'sha yoyiq kesimlarning uyushishi deb yuritilgan edi [Ашурова, Убаева, Болтабоева 1962, 42].

Yana shuni ta'kidlash lozimki, biz fikr yuritmoqchi bo'lgan sintaktik hodisalardagi kesim guruhini tashkil qiluvchi komponentlar bir-biriga teng qiymatli, ya'ni har bir iborada mustaqil predikatsiya ifodalangan. Ular to'g'risida avvalgi ishlarimizda ma'lumot berilgan.

Kesimi kengaygan holda ikki va undan ortiq qo'llangan gaplarni sodda gap sathida o'rganishda bunday kengaygan kesimlarning alohida egasi bo'lmaganligi asosiy sababdir. Aslida bunday gaplar qo'shma va sodda gaplar oraligida bo'ladi [Вальгина 1978, 229]. Biz endi bevosita kengaygan uyushiq kesimlar, shundan ushbu ishda fe'l boshqaruvli kengaygan kesimlar strukturasi va ularning o'zaro semantik munosabatlari to'g'risida bahs yuritamiz. Avvalgi ishlarda ikki komponentdan iborat kengaygan kesimli gaplarda *va*, *dag'i*, *ammā*, *yāxud* bog'lovchilarining qo'llanishiga to'xtalgan edik, bu ishda esa, qisman, ikki, asosan, ko'pkomponentli uyushgan kesimlarda *jā*, *ham*, *va ham*, *kim*, *čun* bog'lovchilari va bog'lovchi vazifasini bajaruvchi so'zlarning qo'llanishi hamda ular bog'lanishidagi semantik xususiyatlarga e'tibor qaratamiz.

Yā bog'lovchisi ish-harakat va holatlardan birining amalga oshishini bildirgan kengaygan kesimlarni bog'laydi: *Haq taālā alaryā insāf va rahm sarī tavassal bergāj yā bu marhum jafākāšgā sabr va tahammul* (MQ 115). Biroq adib asarlarida bunday

bog'lovchili gaplar juda kam uchraydi.

Čun bog'lovchisi. Bu bog'lovchini G'.Abdurahmonov va Sh.Shukurovlar sabab, sabab-natija, payt ergash gaplarni bog'lashda qatnashganligi va sodda gaplarda o'xshatish, qiyoslash ma'nolarida qo'llanganligini qayd qiladilar [Abdurahmonov, Shukurov 1973, 225-226]. Ashyoviy dalillar tahlili shuni ko'rsatadiki, *čun* bog'lovchisi gap boshida yoki kengaygan kesimlar boshida kelib, avvalgisi keyingisida yuz bergan ish-harakatning paytini bildiradigan uyushiq kesimlarni bog'lash vazifasini ham bajargan. Masalan: *Čun Musā ālājhissālām beš kūn yūrūdi, Tursinā tayīya jetišti* (TAH 340a). Bunda birinchi komponent payt mazmunini anglatgan. Uni hozirgi o'zbek adabiy tiliga transformatsiya qilganda *Musa alayhissalom besh kun yurgach* ko'rinishga ega bo'ladi.

Kengaygan kesimlarning ko'pkomponentli (uch va undan ortiq) qo'llanishi. Alisher Navoiyning nasriy asarlarida bunday kengaygan kesimlar faol qo'llangan. Ulardagi hokim komponentning qofiyalanishiga ko'ra ularning ikki turini qayd qilish mumkin:

1. Qofiyali qo'llanish. Bunda hokim komponent bir xil so'z shakllari bilan keladi: *Tavāze' xalqnī kiši muhabbatīya šifta qilur va ulusnī faālij muvaddatīya firifta qilur, dostluy gūlšanidā nazārat gūllāri ačar va ul gūlšāndin uns-u ulfat bazmida tūrlūk gūllār sačar, mūtākābbir dushmanya mulājīmat sarī yol kōrkūzūr va mu'žib xasm xātīriya insānijit zavqin olturyuzur, tākrārij hajāsiz muddaijnī ujat sarhadiya bašqarur va te'dādij insāfsiz aduvnī jamanliydin ötkārūr* (MK 80). Bu kengaygan kesimlarning hokim komponenti -r (*ur/ür*) formatida va o'zaro juftlikda qofiyalangan: *šifta qilur ↔ firifta qilur, ačar ↔ sačar, kōrkūzūr ↔ olturyuzur bašqarur ↔ ötkārūr*. Ayni o'rinda asar badiiyligiga ham xizmat qilgan.

2. Qofiyasiz qo'llanish. Bunda *kengaygam kesimlarning hokim komponentlari turli fe'l shakllari bilan ifodalanadi*: *Gūštāsp zardušt dinini üxtūjār qilib, elni ham ul millatqa kijürdi va Rumda Qaysarya kiši jibārib, anī dayī bu dingā dalālat qildī* (TMA 18). Bunda -b ↔ -di/dī affiksli juftliklar uyushgan: *üxtūjār qilib ↔ kijürdi, jibārib ↔ dalālat qildī* hamda bu juftliklar o'zaro zidlikni hosil qilgan.

Ko'pkomponentli uyushiq kesimlar o'zaro bir-biri bilan bog'lovchilar (yoki bog'lovchisiz, bunda fe'lning turli amaliy shakllari va ular bilan birgalikda ko'makchilar) yordamida munosabatda bo'lishi mumkin.

Shuni aytish lozimki, ko'pkomponentli uyushiq kesimlarning dastlabkilari ko'pincha bog'lovchisiz teng munosabatda bo'lgan, bog'lovchilar esa asosan oxirgi ikki komponentni bog'lashda

qatnashgan. Bog'lovchilar dastlabki komponentlarni bog'lashda kam qo'llangan.

Va bog'lovchisi. Bu bog'lovchining o'zbek adabiy tili tarixidagi qo'llanish doirasini alohida ta'kidlash o'rinli bo'ladi, shu jumladan ko'p komponentli uyushgan kesimlarni bog'lashda ham faolligi kuzatiladi. Bu fikrni quyidagi o'rinlarda qo'llanishi ham tasdiqlaydi:

1. Eganing belgisini sanab ko'rsatadigan ko'pkomponentli uyushiq kesimlarning har birini bog'lagan: *Kārām bir jafākāshnī šiddātīj yūkin kōtārmākdūr va anī ul suubattīn ōtkārmākdūr, birāvniñ mehnāti xārīj hamlīn qabul qīlmaq va ul qīlyanni tilgā keltūrmāmāk va ayīzya almamaq va ul kišigā minnāt qīlmamaq va anīñ yūzigā kōz salmamaq* (MQ 112). Bu misolda hokim komponent bo'lgan fe'l ikki gurug – bo'lishli va bolishsiz shaklda guruhlashgan. Bo'lishli shaklda: *kōtārmākdūr ↔ ōtkārmākdūr, qabul qīlmaq ↔ ačīlmaq* juftligi; bo'lishsiz shaklda: *keltūrmāmāk ↔ almamaq, minnāt qīlmamaq ↔ salmamaq* juftligini hosil qilgan va ular o'zaro uyushgan. Faqat birinchi juftlik ikkinchi juftlik bilan bog'lovchisiz munosabatga kirishgan.

2. Hokim so'zi *-b* qo'shimchali ravishdosh bilan ifoda qilingan (ularning mazmun munosabatlari qanday bo'lishidan qat'iy nazar) ko'pkomponentli uyushiq kesimlarlar o'zaro bog'lovchisiz ham bog'lanadi: *Bahrām anī ōzidān emin qīlib, Hindustānnī yana aṇa berib, xīrāž ta'jīn qīlib, Sind qīryayīdīn Ažam sarīyī vilājatlarnī alīb, Rājniñ qīzī bilā nihājatsīz yarāy jasab, mūlkiḡā keldi* (TMA 57). Ko'rinadiki, bunda saj' san'atidan foydalanilgan. Bunday kengaygan kesimlar ba'zan va bog'lovchisi orqali ham bog'langan: *Va mūlūki tavājīfdīn kōpini ul maqhur qīldī, mūlkin alīb va ōzigā munqad qīldī* (TMA 34). Bunda *mūlkin alīb* komponenti, ko'rinib turibdiki, *ōzigā munqad qīldī* komponenti bilan va bog'lovchisi orqali bog'langan.

Ham bog'lovchisi takror qo'llangan ba oldinma-keyin yuz beradigan ish-harakatni ifodalovchi keyingi ikki ko'pkomponentli uyushiq kesimlarni bog'lagan: *Rustam ešitib, Xurāsāndīn sipāh tartīb, madājīnya kelib, Āzarmīdoxt bilā masāf tutub, ham atasi qīlyan muddaānī hāsīl qīldī, ham qaniya qasās qīldī* (TMA 79). Bu bog'lovchining takror qo'llanishi uni hozirgi o'zbek adabiy tili bilan yaqinlashtiradi.

Dayi bog'lovchisi ham oldinma-keyin yuz beradigan voqea-hodisani bildiruvchi eng so'nggi ko'pkomponentli uyushiq kesimlarni bog'lagan: *Isfāndijār borib, Arjaspnī ōltūrūb, Turanni Bajtatqača alīb, sīñillārin āsirlikdān čīqarīb, azīm yanājīm bilā keldi*

dayi saltanat *istid'āsi qildi* (TMA 19). *Bahrām-i Čūbinā mutayyajiir bolub, aṇa jayij boldi dayi* Parvīz atiya va aniṇ navkārligigā *ōzin mansub qildi* (TMA 68). Bu gaplarning birinchisida dastlabki, ikkinchisida esa oxirgi kengaygan kesimlarni bog'lagan. Shuningdek, juft-juft holda kelgan va oldinma-keyin yuz bergan voqea-hodisani ifodalovchi ko'pkomponentli uyushiq kesimlarlarni bog'lashda ham qatnashadi: *Damāvandnī binā qildi, ammā anda gāhī bolur erdi dayi* *Istaxrnī binā qildi, ammā köprāk avqāt anda bolur erdi* (TMA 1). Bu gapda birinchi juftlik *Damāvandnī binā qildi, ammā anda gāhī bolur erdi*; ikkinchi juftlik esa *Istaxrnī binā qildi, ammā köprāk avqāt anda bolur erdi* birikmalari bo'lib, ular o'zaro *dayi* bog'lovchisi orqali bog'langan. Quyidagi gapda ham *dayi* bog'lovchisi shunday vazifada kelgan: *El dayi aṇa muttafiq bolub xuruž qildilar dayi* *Sepāxān vālisini ōltürüb, Zahhāk üstigā jürüdilār* (TMA 6). Bu gapdagi bizni qiziqtirgan bog'lovchi *el dayi aṇa muttafiq bolub xuruž qildilar* komponentidan so'ng qo'llangan *dayi* bog'lovchisidir. U *el* so'zi bilan ifoda qilingan ega tomonidan amalga oshiriladigan ish-harakatni bildirgan va *aṇa muttafiq bolub xuruž qildilar* hamda *Sepāxān vālisini ōltürüb, Zahhāk üstigā jürüdilār* juft-juft holda qo'llangan komponentlarni bog'lagan. Ma'lumki, **dayi** bog'lovchisining bu funksiyasi hozirgi o'zbek adabiy tilida tugagan.

Ammā bog'lovchisi bir-biriga zid bo'lgan kengaygan kesimlarni emas, balki avvalgi kengaygan kesimga qo'shimcha ma'lumot, izoh ma'nosini ifodalaydigan kengaygan kesimlarni bog'lagan. Bungayuqoridagi gapyaqqol misol bo'la oladi. Undagi *anda gāhī bolur erdi* komponenti *Damāvandnī binā qildi* komponentiga, *köprāk avqāt anda bolur erdi* komponenti esa *Istaxrnī bino qildi* komponentiga qo'shimcha ma'lumot, izoh beradi, xolos. *Ammā* bog'lovchisining bunday vazifasi aslida qo'shma gaplarda qayd qilingan edi [Abdurahmonov 1974, 33]. *Ammā* bog'lovchisi ba'zan oxirgi kengaygan kesimlar oldida kelib ham yuqoridagi mazmunni ifoda qiladi: *Noširavān-ul-Ādil binni Qubād čün saltanat taxtīn mušarraḡ qildi va xilofat tojin saraḡfroz etti, Ardašer Bābākān qāidā va rusumīn ihjā qildi va aniṇ vasijatnāmalarini mutālaa qilib, ul dāstūr bilā amal qilurṡa mürtākib boldi, ammā adālat va šavqat qānunini andin dayi artturdī* (TMA 62). Bu gapdagi *adālat va šavqat qānunini andin dayi artturdī* kengaygan kesimi avvalgi komponentlardan anglashilgan mazmunga zid emas, balki uni yanada to'ldiradi. Bu xususiyat faqat adib asarlaridagina qayd qilinadi.

Va lekin bog'lovchisi. Bu bog'lovchi biz uchratgan misolda oldingi kengaygan kesimdagi mazmun keyingisida to'ldirilgan,

izohlangan kengaygan kesimlarni bog'laydi: *Min jašadī va lekin axīr umrda qīrq jīl saltanat qīldī dayī Sijāmāk oyli Hūšāñnikim, nābirāsi erdī, valīahd qīlib, vafāsīz jahānya vīdā' qīldī* (TMA 2). *Va lekin* bog'lovchisining bunday vazifasi "Qutadg'u bilig" asarida ham qayd qilingan [Abduraxmanov 1967, 140], lekin bu asarda u qo'shma gaplardagina bunday vazifada qo'llangan. *Va lekin* bog'lovchisining shunday variantda hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanishi ham to'xtagan.

Vale bog'lovchisi. Bu bog'lovchi zidlovchi bog'lovchi bo'lib, buyuk o'zbek adabiy tili matnlarida shunday vazifada qo'llangan [Abdurahmonov, Shukurov 1973, 220]. Bu bog'lovchini G. Abdurahmonov ikkinchi qismida qo'shimcha ma'lumot, izoh ifodalanadigan qo'shma gaplarda qo'llanishini ko'rsatgan [Abdurahmonov 1974, 33].

Alisher Navoiyning nasriy asarlarida *vale* bog'lovchisi yuqoridagi vazifada kengaygan uyushiq kesimlarda ham qo'llangan: *Alqīssa, Gūštāsp bu xabardīn vāqīf bolyač, bu ishdin kōp pušajmān boldī, vale Isfandijār oyli Bahmannī valīahd qīldī* (TMA 20). Haqiqatan ham, *Isfandijār oyli Bahmannī valīahd qīldī* komponenti oldingi kengaygan kesim bilan zid mazmun munosabatida bo'lmay, balki avvalgi kengaygan kesim mazmunini yanada to'ldiradi, unga qo'shimcha ma'lumot beradi. *Vale* bog'lovchisining bunday vazifada qo'llanishini uning ko'p ma'noligidan deb ham qarash lozim bo'ladi. Ko'rinadiki, zidlovchi bog'lovchilarning Alisher Navoiyning nasriy asarlarida yangi ma'nosi, ya'ni keyingi kengaygan kesimlar avvalgisini yanada izohlaydigan, to'ldiradigan kengaygan uyushiq kesimlarni bog'lash vazifasida kelishi mumkinligi ma'lum bo'ladi. Buni Alisher Navoiyning nasriy asarlari tilining o'ziga xos xususiyati deb qarash mumkin.

Soñra ko'makchisi funksional bog'lovchi vazifasida kelib, va bog'lovchisining funksiyasini bajargan hamda oldinma-ketin yuz beradigan ish-harakat va holat mazmunini ifoda qiladigan kengaygan kesimlarni bog'lagan: *Biz ul sōznikim, muttafiqun alajhdur, adā qīlali, soñra ul sōzlārnikim, muxtalifun fihdur, zikr qīlib, har nimāgākim, oxšaši kōprāktur, qarār qīlali* (TMA 30). Bu gapda *ul sōznikim adā qīlali* kengaygan kesimi *ul sōzlārni zikr qīlib* komponentiga *soñra* so'zi orqali bog'langan.

Soñra so'zi va *andīn* so'zlari bilan birikib, murakkab funksional bog'lovchi sifatida oldinma-ketin yuz bergan ish-harakatni bildiradigan kengaygan kesimlarni bog'lagan: *Gūdārz binni Erān, atasīnī valīahdī erdī, čun pādšāhliqqa olturdī, Sām vilājatiya barīb,*

Yahjo alayhissalām qatli intiqāmiya juhudlarni qirdi, qalyanidin ba'zini avāra va ba'zini zalil qildi va andin soqra bani Isrāil qavmidin munqati' boldi (TMA 33). Bu gapdagi *qalyanidin ba'zini avāra va ba'zini zalil qildi* kengaygan kesimiga *bani Isrāil qavmidin munqati' boldi* kesimiga va *andin soqra* bog'lovchisi orqali bog'langan. Ma'lumki, mustaqil so'zlarning bog'lovchilik amalini bajarishi ilmiy adabiyotlarda *skreplar* deb yuritiladi [Qarang: Cheremisina, Kolosova 1987, 136]. Biz *skrep* termini o'rnida *funksional bog'lovchi* atamasini tavsiya etdik.

Čun bog'lovchisi. Bu bog'lovchi birinchi kengaygan kesim boshida keladi va hokim komponent *-di* qo'shimchali o'tgan zamon fe'li bilan ifodalanadi va bu bog'lovchi qatnashgan kengaygan kesim keyingisi bilan payt-natija, sabab-natila mazmun munosabatlarida bo'ladi: *Yalaš binni Firuz čun saltanat taxtin aldi, Suxrākim, atasi zamanida vāzir va māmlākāt masālihida mushir erdi, ani hamul vuzarāt mansabiya ta'jin qildi va mülk ixtijārin aqa tapširdi* (TMA 59).

Čun bog'lovchisi birinchi kengaygan kesimlar boshida qatnashganda, shu iboradan keyin boshqa bog'lovchi qo'llanmaydi va u keyingi kengaygan kesim bilan bog'lovchisiz munosabatga kirishadi. To'g'ri, ba'zan *čun* bog'lovchisi birdan ortiq (biz uchratgan misolda ikkita) kengaygan kesimlarga ham aloqador bo'ladi va bunday paytda aloqador komponentlar orasida va bog'lovchisi qo'llanadi, lekin aloqador komponentlar keyingilari bilan o'zaro bog'lovchisiz munosabatga kirishadi. Bu yuqorida keltirilgan misolda ravshan ko'rinadi: *Noširavān-ul-Ādil binni Qubād čun saltanat taxtin mušarrafi qildi va xilāfat tāžin sarafrāz etti, Ardašer Bābākān qāida va rusumīn ihjā qildi va anīq vasijatnāmalarini mutālaa qilib, ul dāstūr bilā amal qilurva murtākib boldi, ammā adālat va šafqat qānunin dayi artturdī* (TMA 62). Bu gapda **čun** bog'lovchisiga *saltanat taxtin mušarrafi qildi va xilāfat tāžin sarafrāz etti* kengaygan kesimlari aloqador bo'lib, ulardan so'ng hech qanday bog'lovchi vosita qo'llanmagan, lekin unga aloqador kengaygan kesimlar o'zaro va bog'lovchisi orqali bog'langan.

Xulosa

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu kabi kengaygan kesimlarni qo'llashda Alisher Navoiy badiiy til vositalaridan juda ustalik bilan foydalanib, ayrimlarini radif-qofiya asosida saj' qilgan bo'lsa, ba'zilarida deyarli barcha kengaygan kesimlar orasida va bog'lovchisidan, ba'zi o'rinlarda esa teng bog'lovchilarning boshqa

turlaridan foydalangan. Shu bilan bir qatorda, bir xil bog'lovchilarni takrorlashdan qochish uchun bir necha bog'lovchilarni ketma-ket qo'llagan. Bu holat, ayniqsa, yuqorida va *lekin*, va *andin so'ngra* bog'lovchi va funksional bog'lovchisiga keltirilgan gapda yaqqolroq ko'rinadi.

Kengaygan kesimlarning gap tarkibida, bu o'rinda Alisher Navoiy asarlari sodda gaplar tarkibida qo'llanishi buyuk adibning adabiy tildagi o'ziga xos mahorati deb qaralishi o'rinli bo'ladi va bunday gaplardan foydalanish davr adabiy tilining me'yorini hosil qilgan.

Qisqartmalar: V – Vaqfiya, ML – Muhokamat ul-lug'atayin, MN – Majolis un-nafois, MQ – Mahbub ul-qulub, NM – Nasoyim ul-muhabbat, TMA – Tarixi muluki Ajam, MSh – Munshaot, XM – Xamsat ul-mutahayyirin, HPM – Holoti Pahlavon Muhammad.

Adabiyotlar

- Абдурахмонов, Г. 1974. *Тарихий синтаксис*. Тошкент: Фан.
- Абдурахмонов, Г. 1962. “Ўзбек тили синтаксисиди мураккаб гаплар масаласига доир”. *Ўзбек тили ва адабиёти масалалари*, 3. Тошкент.
- Азимов, И. 2001. *Алишер Навоийнинг насрий асарларида кесим марказли бир бош бўлакли гапларнинг шаклий ва мазмуний хусусиятлари*: Филол. фан. номз. ... дис. Тошкент.
- Аширбоев, С. 1990. *Алишер Навоийнинг насрий асарларидаги содда гапларнинг таркибий ва маъно хусусиятлари*: Филол. фан. док. ... дис. Тошкент.
- Ашурова, Д., Убаева, Ф., Болтабоева, Ҳ. 1962. *Гапнинг уюшган ва ажратилган бўлаклари*. Тошкент: Фан.
- Валгина, Н. С. 1978. *Синтаксис современного русского литературного языка*. Москва: Высшая школа.
- Маҳмудов, Н. М. 1984. *Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Рахманов, М. 1971. *Синтаксические особенности языка газеты “Туркистон вилоятининг газети”*: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. Ташкент.
- Раҳматов, М. 2008. *Алишер Навоий насрий асарларида эргаштирувчи боғловчили гапларнинг синтактик-семантик хусусиятлари*: Филол. фан. номз. ... дис. Тошкент.
- Rahmatov, M. 2022. “Bayt intonatsion strukturasi va intonatsion kuchli pozitsiyasi”. *O'zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv*. Toshkent: Donishmand ziyosi.
- Sayfullayeva, R.R., Mengliyev, B.R., Raupova, L.R., Qurbonova, M.M., Abuzalova, M.Q., Yo'ldos'hev, D.N. 2019. *Hozirgi o'zbek tili*.

Toshkent (elektron variant).

Умарова, Р. 2005. *Алишер Навоий мақтасида сабаб ва оқибат муносабатининг ифодаланиши*: Филол.фан.номз. ... дис. Фарғона.

Умарова, Н. 2021. *Алишер Навоий асарларининг лисоний-концептуал тадқиқи*: Филол. фан. докт. ... дис. (ДсС). Фарғона.

Черемисина, М.И., Колосова, Т.А. 1987. *Очерки по теории сложного предложения*. Новосибирск: Наука.

Ғуломов, А. Ғ., Асқарова, М. А. 1965. *Ҳозирги ўзбек адабий тили*. Тошкент: Ўқитувчи.

Ashirboyev, S. 2020. "Forms of interactions in simple sentences in prose of Alisher Navoi are one the tools of complicating the sentences". *Tteoretical & applied scence. Phladelphia*.

Ashirboyev, S. 2020. "Suntactic redundancy and tautology in complicated simple sentences in old uzbek language (based on the materials the prose of Alisher Navoi)". *Jornal of critical riviers, India*.

The Syntactic-Semantic Characteristics of Coordinated Extended Predicates in the Prose of Alisher Navo'i

Samikhan Ashirboev¹

Abstract

It is known that in Uzbek linguistics the presence of a sentence with syntactic constructions attached to it is considered as an extension of the sentence structure. In the prose works of Alisher Navoi, such syntactic constructions are used both in a unified form, and there were attempts to interpret them as complex sentences, but since they have one predicative center, it is recognized that such a view does not correspond to the existing syntactic situation, and their interpretation as combined sentences is recognized. It is known that such sentences were also used by Alisher Navoi to ensure artistic quality. It is worth noting that such extended and combined sentences entered into syntactic relations with each other without conjunctions and with conjunctions. This article considers the forms of communication and semantic relations of combined extended sentences.

¹ Samikhan Ashirboev – Doctor of Philological sciences, Professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navo'i.

E-mail: samixon.ashirboyev@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-5202-6494

For citation: Ashirboev, S. 2025. "The Syntactic-Semantic Characteristics of Coordinated Extended Predicates in the Prose of Alisher Navo'i". *Golden Scripts* 1: 98 – 107.

Key words: *sentence, simple sentence, complex sentence, dominant component, extended sentence, simple sentence with a compound sentence, predicate center, relationship of extended sentences.*

References

- Abdurahmonov, G. 1974. *Tarixiy sintaksis*. Toshkent: Fan.
- Abdurahmonov, G. 1962. "O'zbek tili sintaksisida murakkab gaplar masalasiga doir". *O'zbek tili va adabiyoti masalalari*, 3. Toshkent.
- Azimov, I. 2001. *Alisher Navoiyning nasriy asarlarida kesim markazli bir bosh bo'lakli gaplarning shakliy va mazmuniy xususiyatlari*: Filol. fan. nomz. ... dis. Toshkent.
- Ashirboev, S. 1990. *Alisher Navoiyning nasriy asarlaridagi sodda gaplarning tarkibiy va ma'no xususiyatlari*: Filol. fan. dok. ... dis. Toshkent.
- Ashurova, D., Ubaeva, F., Boltaboeva, H. 1962. *Gapning uyushgan va ajratilgan bo'laklari*. Toshkent: Fan.
- Valgina, N. S. 1978. *Sintaksis sovremennogo russkogo literaturnogo yazyka*. Moskva: Vysshaya shkola.
- Mahmudov, N. M. 1984. *O'zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya*. Toshkent: O'qituvchi.
- Raxmanov, M. 1971. *Sintaksicheskie osobennosti yazyka gazety "Turkiston viloyatining gazetasi"*: Avtoref. dis. ... kand. filol. nauk. Tashkent.
- Rahmatov, M. 2008. *Alisher Navoiy nasriy asarlarida ergashtiruvchi bog'lovchili gaplarning sintaktik-semantik xususiyatlari*: Filol. fan. nomz. ... dis. Toshkent.
- Rahmatov, M. 2022. "Bayt intonatsion strukturasi va intonatsion kuchli pozitsiyasi". *O'zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv*. Toshkent: Donishmand ziyosi.
- Sayfullaeva, R. R., Mengliev, B. R., Raupova, L. R., Qurbonova, M. M., Abuzalova, M. Q., Yo'ldoshev, D.N. 2019. *Hozirgi o'zbek tili*. Toshkent (elektron variant).
- Umarova, R. 2005. *Alisher Navoiy maqtasida sabab va oqibat munosabatining ifodalanishi*: Filol. fan. nomz. ... dis. Farg'ona.
- Umarova, N. 2021. *Alisher Navoiy asarlarining lisoniy-konseptual tadqiqi*: Filol. fan. dokt. ... dis. (DsC). Farg'ona.
- Cheremisina, M.I., Kolosova, T.A. 1987. *Ocherki po teorii slojnogo predlozheniya*. Novosibirsk: Nauka.
- G'ulomov, A. G., Asqarova, M. A. 1965. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. Toshkent: O'qituvchi.
- Ashirboyev, S. 2020. "Forms of interactions in simple sentences in prose of Alisher Navoi are one the tools of complicating the sentences". *Tteoretical & applied science. Phladelphia*.
- Ashirboyev, S. 2020. "Suntactic redundancy and tautology in complicated simple sentences in old uzbek language (based on the materials the prose of Alisher Navoi)". *Jornal of critical riviers, India*.

Soʻz oʻzlashtirish anʼanasi

Baxtiyor Abdushukurov¹

Abstrakt

Ushbu maqola turkiy tillar, jumladan, oʻzbek adabiy tili soʻz boyligining takomillashuvida tashqi manba, yaʼni boshqa tillardan kirgan soʻzlarning oʻrniga bagʻishlanadi. Shuningdek, maqolada soʻz oʻzlashtirish anʼanasi, bunda nimalarga eʼtibor qaratish, oʻzlashmalarni qoʻllash va ularning oʻzbekcha muqobillarini topishda oʻzbek tilining oʻziga xos jihatlarini hisobga olish, bu boradagi muammolar xususida fikr yuritilgan. Jumladan, koʻplab sohalarda terminologik apparatning nomukammalligi, jarayonning turli ishtirokchilari – olimlar, jurnalistlar, pedagoglar, ekspertlar, filologlar va boshqalar oʻzlari bilganicha, hech qanday muvofiqlashtirishsiz yangidan yangi soʻzlar yaratayotgani yoki rus tilidan kalkalab olayotgani til rivojiga salbiy taʼsir oʻtkazayotgani, qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf qilish uchun har bir soha uchun tegishli terminologik apparatni yaratish, atamalar unifikatsiyasini oʻtkazish lozimligi taʼkidlangan.

Kalit soʻzlar: *turkiy tillar, oʻzbek adabiy tili, sanskrit, sugʻd, xitoy, yunon, arab, moʻgʻul, fors-tojik, rus tili, Yevropa tillari.*

Kirish

Tilning lugʻat tarkibi rivoji maʼlum qonuniyatlarga asoslanadi. Soʻz boyligida davrlar oʻtishi bilan ichki va tashqi omillar taʼsirida oʻziga xos oʻzgarishlar yuz beradi. Oʻzlashma leksema biror yangi tushuncha va xabarni anglatlsa, u yoki bu maʼnoni tashish xususiyatiga ega boʻlsagina tilga qabul qilinishi mumkin.

Turkiy tillar, jumladan, oʻzbek adabiy tili soʻz boyligining takomillashuvida tashqi manba, yaʼni boshqa tillardan kirgan soʻzlar sezilarli oʻrin egallagani, uning lugʻat tarkibida sanskrit, sugʻd, xitoy, yunon, arab, moʻgʻul, fors-tojik, qadimiy yahudiy, rus va rus tili orqali boshqa Yevropa tillaridan oʻzlashgan soʻzlar xususida manbalar, kitoblar, oʻquv qoʻllanmalar, ilmiy tadqiqotlar hamda lugʻatlarda koʻplab maʼlumotlar uchraydi. Biroq turkiy tillar,

¹ Abdushukurov Baxtiyor Boʻronovich – filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: abdushukurov@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-6964-0714

Iqtibos uchun: Abdushukurov, B. B. 2025. “Soʻz oʻzlashtirish anʼanasi”. *Oltin bitiglar* 1: 108 – 119.

jumladan, o'zbek tilining boshqa xalqlar tili taraqqiyotidagi o'rni haqida ma'lumotlar u qadar ko'p emas.

Turkiy tilga oid so'zlarning qardosh bo'lmagan xalqlar tiliga o'zlashgani, ular rivojiga ta'siri to'g'risidagi dastlabki ma'lumotni Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida uchratamiz. Shu o'rinda bir necha misollarga murojaat qilsak:

dag' – qoramol va boshqalarga bosilgan tamg'a. Forslar bu so'zni turklardan olganlar. Chunki forslarda turklardagidek qoramol yo'q. Shuning uchun bu so'zga ularda zarurat ham bo'lmagan. Men bu so'zni musulmonlar chegarasida eshitdim [Кошғарий 1963, 167].

Yalma – paxtali to'n, forslar buni turkiy xalqlardan olganlar. Arablar esa forslardan olib **yalmaq** shaklida qo'llaydilar. Arablar **q** ni **h** ga aylantirganlar. Chunonchi: **kandani xandaq, yarani yaraq** qilib olganlar [Кошғарий 1963, 41].

Alisher Navoiy ijodida so'z o'zlashtirish hodisasi

Bu an'ananing keyingi davrda ham davom etganini Alisher Navoiy ijodi misolida ko'rish mumkin. Buyuk mutafakkir turkiy tilning forsiy tildan qolishmasligini, uning til imkoniyatlari boyligi, bu tilda ham go'zal adabiyot namunalari yaratish mumkinligini ko'rsatish barobarida turkiy tildan forsiy tilga o'zlashgan so'zlarni qayd etib o'tadi. "Muhokamatul-lug'atayn"da bu haqda quyidagi jumalarni o'qiymiz: *Yana ot anvoidaki, tubuchoq va arg'umoq va yaka va yobu va totu yo'sunluq – borini turkcha-o'q ayturlar. ...Yana ba'zi yemaklardin qaymog' va qatlama va bulamog' va qurut va uloba va mantu va quymog' va urkamochni ham turkcha ayturlar. Va qimizni va suzmani va boxsumni va bo'zani dag'i turkcha ayturlar. Yana tutmoch va umoch va kumoch va tolg'onni ham turkcha ayturlar* [Навоий 2000, 15].

Millat quyoshi sanalgan mutafakkirning talqinicha, arab tili fasohati, mumtoz va badiiy ifodasi, go'zalligi bilan mo'jiza ko'rsatuvchidir. Chunki bu til bilan Tangrining kalomi nozil bo'ldi va Rasul alayhis-salavotu vasallamning saodatga yo'llovchi hadislarini yetib keldi: *Mundin so'ngra uch nav' tildurkim, asl va mu'tabardur va ul tillar iborati gavhari bilan qoyili (so'zlovchi)ning adosig'a zavar va har qaysining furui (tarmoqlari, shahobchalari) bag'oyat ko'ptur. Ammo turkiy va forsiy va hindiy asl tillarning manshaidurki, Nuh payg'ambar salavotullohi alayhaning uch o'g'lig'akim, Yofas va Som va Homdur yetishur* [Навоий 2000, 7].

Ta'kidlash joizki, bu o'rinda Navoiy so'z o'zlashtirish, boshqa tillardan so'z olish masalasiga ham e'tibor qaratadi. Qolaversa,

shoir ijod qilgan davrda arab tili ilm-fan, forsiy esa badiiy adabiyot tili darajasiga aylanib ulgurgan edi. Shuning uchun ham Navoiy o'z asarlarida arab va forsiy so'z va iboralarni ko'plab qo'llagan va buni tabiiy hol deb bilgan. O'z asarlariga nom qo'yishda ham an'anaga muvofiq arabcha so'z va ifodalardan foydalangan. Bundan anglashiladiki, ijod jarayonida Navoiy hal qilgan lisoniy muammolardan biri – boshqa tillardan so'z olish muammosi – birinchi navbatda arab tiliga aloqador bo'lgan. Bunda, hech shubhasiz, shoirning Qur'on tilini mukammal bilganligi (uning arabcha lug'at tuzganligi ma'lum) katta o'rin tutgan.

Navoiy zamonida Movarounnahr va Xurosonda forsiyning mavqeyi baland bo'lgani, turkiyda ijod qilgan adiblar undan andoza olgani uchun bu tildan turkiyga so'z o'zlashtirishga hech kim monelik qilmagan. Shu bois Alisher Navoiyning poetik va ilmiy asarlari so'z boyligining taxminan 30-33 foizini arab tilidan kirgan so'zlar tashkil qiladi. Fors-tojik leksik elementlari 18-20 foizgacha boradi. Bahrom Bafoyevning yozishicha, Navoiy arab-fors tillaridan foydalanganda, ularning turkiy tilga o'zlashib, singib ketadiganlariga ko'proq murojaat qiladi. Shu bilan birga, shoir har uch tilning imkoniyatlaridan foydalanib, yangi ma'noli so'zlar – neologizmlar yaratadi. Alisher Navoiy yaratgan yangi so'z, yangi ma'nolar turkiy tillar doirasidan chiqib, fors-tojik tilining ham lug'at fondini boyitgan.

Tilning rivojlanishi hamma vaqt uning boshqa tillar bilan o'zaro aloqalarining kengayishiga bog'liq holda davom etadi. Shu o'rinda qayd etish joizki, boshqa chet til unsurlarining kirib, o'zlashib qolishi tarixiy va qonuniy hodisa hisoblanadi. Mamlakatlar va xalqlar o'rtasida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy munosabatlarning yaxshilanishi, ayniqsa, bir-biriga qo'shni xalqlarning o'zaro aloqalari natijasida yangi g'oyalar, fikrlar, tushunchalar qabul qilinadi. Bu tarixiy jarayon muayyan xalq yoki tilning o'ziga xos taraqqiy etishiga, til lug'at tarkibining boyishiga olib keladi. Zero, o'zaro aloqada bo'lgan xalqlar tillarining bir-birlariga ta'sir etishi, bir-birini boyitishi uchun xizmat qilishi, bunday o'zaro ta'sir leksikada samarali kechishi ayni haqiqatdir. Xalqlarning o'zaro aloqalari, tillarning bir-biriga ta'siri turli davr va sharoitlarda o'ziga xos ko'rinishda davom etadi. Bunday o'zaro ta'sir ayrim davrlarda kuchsiz darajada bo'lsa, boshqa bir davrda sezilarli va samarali kechadi. Shu bilan birga, ba'zi vaqtlarda mazkur jarayon stixiyali tarzda ro'y bersa, uni ma'lum qonun-qoidalar asosida yo'lga solish, unga insoniyatning faol aralashuvi talab etiladi. Binobarin, o'zbek xalqi ham o'z tarixiy rivojlanishi davomida ko'plab boshqa xalqlar tillari bilan aloqa-

munosabatda bo'ldi. Shu bois, o'zbek tili lug'at tarkibining ma'lum qismini o'zlashgan so'zlar tashkil qiladi va ularni tilimizning boyligi sifatida e'tirof etamiz.

Turkiy tillar guruhiga mansub bo'lmish o'zbek tili o'zining ko'p asrlik tarixi davomida bir qancha tillarning ta'siri ostiga tushdi va o'z o'rnini topish yo'lida ular bilan raqobatlashib keldi. Ilk o'rta asrlardan X–XII asrlarga qadar mustaqil ravishda iqtisodiy, diniy, siyosiy, huquqiy terminologiya turkiy til va lahjalar, keyinchalik fors va arab tilining ta'siri ostida murakkab davrni boshdan kechirdi. Buning natijasida tilga ko'plab forsiy va arabiy o'zlashmalar qabul qilindi, shu jumladan, terminologiyada ham fors va arab o'zakli atamalarining katta qatlami shakllandi.

Rus tilidan o'zlashtirish tarixi

Temuriylar va xonliklar davrida fors tili bilan raqobatda yutib chiqqan o'zbek tili XIX asrning ikkinchi yarmidan rus tiliga to'qnash keldi. Rossiya imperiyasida o'zbek tili hamda Turkistonning boshqa mahalliy tillariga ta'sir ko'rsatish masalasi bo'yicha keskin siyosat yuritilman bo'lsa-da, sho'rolar hokimiyatga kelishi bilan vaziyat tubdan o'zgardi. O'zbek tiliga ruscha hamda rus tili vositachiligidagi Yevropa tillariga oid so'z va atamalar singdirila bordi. Qo'yingki, o'tgan asrning 20 – 30-yillarida ushbu so'zlarni rus tili qonun-qoidalari bo'yicha yozish va talaffuz qilish targ'ib qilindi. Tabiiy yo'llar bilan rivojlanib kelgan boy va qadimiy tilga bunday bosim o'tkazilishi mudhish oqibatlariga olib keldi. Elbek o'sha paytda tilimizga bo'lgan tazyiqlar, ularni qo'llab - quvvatlovchilar xususida shunday yozadi: *...forsining xurofoti bilan o'tgan «zabonshikr»i, istibdod Rusiyasining «ChORT»lari tilimizni bo'g'di, shularg'a qarshi so'zlash nari tursin, balki qo'ldan kelgancha ko'maklashganlar bo'ldi. Endi bu davrlar o'tgan, har kim o'z tili bilan madaniyat olishg'a haqli, o'z tilini madaniy tillar qatorig'a qo'yishg'a tegish, bunga hech kim to'siq bo'la olmayir* [Жамолхонов, Умаров 2017, 208].

O'zbek tilidagi so'zlarga rus tili talaffuz qoidalarining zo'rma-zo'raki joriy etilishi uning fonetik ravonligiga putur yetkazdi, tilning ichki imkoniyatlaridan foydalanilmay turib, o'zlashma so'zlarning ulkan miqdorda o'ylamay-netmay qabul qilinishiga sabab bo'ldi, eng ayanchlisi-jamoatchilikda hamda intelligensiyada har qanday atamalar, zamonaviy baynalmilal so'z va iboralarni rus tilidan to'g'ridan to'g'ri ko'chirish ko'nikmasi shakllandi. Ayniqsa, ijtimoiy hayotning turli sohalarida qo'llaniladigan so'zlar va atamalar, umuman, terminologiyada jiddiy ziddiyatlar yuzaga keldi.

O'zbek tiliga ilm-fan, yurisprudensiya, harbiy soha, siyosat, madaniyat, bank-moliya sohalarida ikkilamchi o'rin ajratildi, rus tilida hujjatlar yuritish, ruscha atamalar qo'llash, muzokaralarni, tadbirlarni rus tilida olib borish me'yorga aylandi. Bu holat, ya'ni ko'r-ko'rona qabul qilishning yomon oqibatlarini o'z vaqtida anglagan Fitrat shunday yozadi: *"Dunyo sahnasida "iyaruv-taqlid"ning ro'lini hech bir millat biz turklar kabi ado eta olmag'anlardir! Biz qaysi bir millatning qaysi bir narsasiga taqlid etmoqchi bo'lsak, o'zimizning milliy ruhimizga qaramasdan taqlid etamiz. Arablar qaysi bir ulusdan qaysi bir so'zni olg'anda o'z shevalariga ko'ra buzub olg'anlar. Bir arabni o'ldirsangiz (ham) "Petrog'rad-Petrsburg" demaydir. "Bitrograd-Bitrasburg" deydir. "Fransik" demaydir "afranj" deydir. Shunday qilib, o'z tilining istiqlolini saqlag'an bo'ladir"* [Фитрат 2006, 9].

Mustaqillik yillarida so'z o'zlashtirish

Yurtimiz mustaqillikka erishganidan so'ng tilimiz rivojida muhim o'zgarishlar yuz berdi. O'zbek tilida ish yuritish, hujjatlar tayyorlash bo'yicha qo'llanmalar yaratildi, mutaxassislar tomonidan ilm-fan va turli sohalarga oid ensiklopediya hamda lug'atlar, darslik, o'quv qo'llanmalar nashr etildi, 2003-yilga qadar "Atamashunoslik qo'mitasi" faoliyat yuritdi. Vazirlar Mahkamasi qoshida tashkil qilingan ushbu qo'mitaning samarali mehnati evaziga *muxtoriyat, ma'muriyat, ma'mur, muqobil, hakam, tashrif, insonparvarlik, xususiylashtirish, boshboshdoqlik, qoldiq (saldo), iqtisodiyot, ma'lumotnoma, reja, dastur, kengash* singari juda ko'p ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalarga doir tushunchalar qaytadan qo'llanishga kiritildi.

Respublikamizning jahon hamjamiyati safidan o'rin olishi davlatlararo iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar, rivojlangan mamlakatlar bilan ilmiy-texnik munosabatlarining jadallashuvi, hamkorlikda dolzarb ilmiy masalalar ustida izlanishlar olib borishning yo'lga qo'yilishi, yosh iste'dod egalarining nufuzli chet el universitetlari va institutlarida o'qishi yoxud malaka oshirishi, milliylikning kuchayishi nafaqat ijtimoiy-siyosiy, madaniy-iqtisodiy hayotda, shuningdek, tilda ham o'z ifodasini topmoqda: *akademik litsey, kollej, magistr, bakalavr, tender, preferensiya, investitsiya, litsenziya, diler, megapolis, ekologiya, ekspert, demping, inflyatsiya, kliring, chat, paynet, elektorat, milliy o'zlik, milliy davlatchilik, milliy siyosat, siyosiy islohot, ma'naviy qadriyat, milliy valyuta, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, qimmatli qog'ozlar bozori, tadbirkorlar palatasi,*

konsalting, injiniring, lizing firma, subsidiya, pay, biznes-inkubator va hokazo.

Bugungi globallashuv asrida fan va texnologiyalarning rivojlanishi, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy voqelik, shuningdek, internet, ijtimoiy tarmoq, televideniye, uyali aloqa vositalari taʼsirida tilmizga koʻplab chet soʻzlar kirib kelmoqda. Bu oʻz navbatida, mazkur oʻzlashmalarni adabiy tilmizga qay tarzda qabul qilish, qoʻllash, ularning oʻzbekcha muqobillarni topish, shu tariqa, bu kalimlarning tilimizdan mustahkam oʻrin olishiga erishish masalasini kun tartibiga qoʻyadi.

Abdurauf Fitrat aytmoqchi, har bir tilning boyligi u tildagi soʻzlarning koʻpligi (kasrati kalimot), yasaliish kengligi (undirish kengligi), bogʻlanish imkoniyati (vusʼati ishtiyoq), qoidalarining mukammalligi (mukammaliyati qavoid) bilan oʻlchanadi. Oʻzbek tili bularning har uchasi boʻyicha ham arab va fors tillaridan qolishmasligi, ayrim oʻrinlarda ulardan ustun kelishini taʼkidlaydi.

Oʻzlashmalarning til tizimiga singib ketishi maʼlum sharoit va omillarga bogʻliq. Jumladan: soʻz uni qabul qilgan tilning amaldagi yozuv xususiyatlariga moslashgan boʻlishi; fonetik, semantik, grammatik meʼyorlariga muvofiq kelishi; oʻz yasash tizimida faol qatnashishi; oʻzlashma maʼnosi aniqlik kasb etishi; chet soʻz uni oʻzlashtirgan tilda uzluksiz ishlatilishi kerak. Shu maʼnoda, yangi soʻz va terminlarni isteʼmolga kiritish, zamonaviy atamalarining oʻzbekcha muqobillarini yaratish hamda bir xilda qoʻllanishini taʼminlashda oʻzbek tilining oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olish muhim sanaladi. Bunda, birinchi navbatda, quyidagi omillarga ahamiyat qaratishni aqlning oʻzi taqozo qiladi:

1) el adabiyoti boʻlgan dostonlar, ertaklar, maqollar, matallar, oʻlan va laparlarda aks etgan soʻzlarimizga murojaat qilishimiz zarur;

2) ajdodlarimiz qoldirgan buyuk meros – qadimiy bitiglar, badiiy, tarixiy, ilmiy yozma yodgorliklar, tarjima manbalariga suyanish lozim;

3) koʻhna lugʻatlarda ifodalangan soʻz boyligiga tayanish darkor. Masalan, “Devonu lugʻotit turk”, “Muqaddamat ul-adab”, “Tarjumon”, “Attuhfa”, “Badoyi ul-lugʻat”, “Abushqa”, “Lugʻati Navoiy”, “Lugʻati chigʻatoyi va turki usmoniy”, V.Radlov va L.Budagov lugʻatlari va hokazo;

4) jonli xalq tili, soʻzlashuv nutqining qadimiy goʻzal ifodalari, xususiyatlari mujassam boʻlgan sheva va lahja materiallaridan foydalanish kerak;

5) ichki imkoniyatlar orqali soʻz yasash jarayonini amalga oshirish. Masalan, mustaqillik yillarida chet tili terminlarini soʻz yaslash usullari (soʻz yasovchi modellar) asosida yangidan yuzaga kelgan yasamalar bilan almashtirish jarayonida oʻzbek tili lugʻat fondida *oluvchi* (adresat), *joʻnatuvchi* (adresant), *tavsiyanoma* (xarakteristika), *buyurtma* (zayavka), *narxnama* (preyskurant), *maʼlumotnoma* (spravka), *fuqarolik* (poddanstvo), *daxlsizlik* (immunitet), *ishbilarmon* (predprenimatel), *taʼmirchi* (restavrator) singari koʻpgina atamalar mustahkam oʻrnini topdi;

6) qoʻshni turkiy xalqlar – qozoq, ozarbayjon, qirgʻiz, turk millatlarining bu boradagi tajribalaridan istifoda etish. Ayniqsa, bugun turkiy dunyoda birdamlik ruhi va ishonch muhitini mustahkamlash siyosati kechayotgan bir paytda bu oʻzini oqlaydi.

7) oʻzbekcha muqobili boʻlmagan oʻzlashmalarni oʻzbek tili fonetik va grammatik xususiyatiga moslashtirish asosida qabul qilish. Ushbu masalada Fitrat domla shunday tavsiya beradi: “Hozirgi soʻzlarimizdagi arabcha, forschalardan bir nechasi uchun turkcha topilmaydir desangiz toʻgʻridir. Biz ham ularni chiqarmoqchi emasmiz. Ularni olurmiz, lekin oʻzimizniki qilurmiz. Turkchalashtiramiz. “Qoida”ning turkchasi yoʻqdir. “Sarf”ningda turkchasini topolmadik. Ikkisin dagʻi olurmiz. Lekin siz kabi “*qovoidi sarfiya*” demasdan, “*sarf qoidalari*” dermiz” [Фитрат 2006, 10].

Koʻrinadiki, tilimizning boyligini chetdan emas, oʻzidan qidirishimiz kerak. Shu maʼnoda, qayd etilgan omillar, mavjud tajribalar hamda til qoidalariga tayanagan holda chetdan kirib kelayotgan soʻzlarning oʻzbekcha muqobillarini topish, shakllantirish, mutaxassislar, ziyolilar va ijodkorlar nazaridan bir qur oʻtkazib, soʻngra keng jamoatchilikka taqdim etish yoʻlidan borishimiz kerak. Shu oʻrinda aytish kerakki, 2024-yildan buyon “Maʼnaviy hayot” jurnalining “Tavsiya” ruknida ona tilimizga kirib kelayotgan hamda oʻzlashayotgan yangi soʻzlar haqida mutaxassis va ijodkorlarning fikrlari eʼlon qilinayotgani quvonarlidir. Chunonchi: chat – *soʻzlashuv*, sms – *xabar*, fleshka – *saqlash qurilmasi*, wi-fi (vay-fay) – *simsiz aloqa*, piar – *targʻibot* (yoki tashviqot), virtual – *masofaviy aloqa*, yuzer (user) – *ulanuvchi* (foydalanuvchi), fast-food – *bir zumda*, akkaunt – *ijtimoiy sahifa*, keshbek – *qaytim*, kofe breyk – *totli choy*, loqatsiya – *qoʻnim*, hayl – *shov-shuv*, turniket – *kirish joyi*, duxovka – *bugʻtandir*, link – *havola*, heshteg – *yoʻlchi* (yerchi), chellenj (challenge) – *chaqiruv* (chorlov), parol – *ochqich soʻz* (yoki oʻron), feyk – *yolgʻon* singari.

Albatta, bunday yondashuv maqbul yechim emas, deguvchi-

lar ham topiladi. O'z davrida tilmizda yot so'zlar bilan ilmiy istilohlarning turkchalari yo'qdir degan fikrga Fitrat shunday javob aytadi: *yot so'zlar bilan ilmiy istilohlarning turkchalarini qidirsak, toparmiz, topa olmag'anlarimizni turkcha buyrug'ina yozdira olarmiz. Siz tilimizdag'i yot so'zlar, ilmiy istilohlarni o'zgartmak teyishlig'ini qabul eting, unlarning turkchalari so'ngra topilar. Yo'q, siz bu yo'lda tirishmasangiz, amringiz boshqa yo'l ekan. Buni men bajaraman! Mening tushuncham shudir: turk ulusining ilmiy, ijtimoiy ko'b dardlari, ko'b yuksak o'rinlari bordir. Shul dardlarni bilmamak, shul yuksak turum (o'rin)larni to'ldirmoq qamug' (barcha)larimizga teyishdir* [Фитрат 2006, 130]. Mazkur mulohazaning isboti o'laroq, Fitrat domla birinchilardan bo'lib o'zlashma istilohlar o'rnida azaldan qo'llanib kelinayotgan o'zbekcha so'zlarni qo'llay boshladi: dalil – *tonuq*, dehqon – *ekinchi*, gunoh – *yoziq*, mehmon – *qo'naq*, hammol – *yukchi*, qalam – *yozg'uch*, namuna – *o'rnak*, foyda – *asig'*, arzon – *ujuz*, shaxobcha – *qo'l*, soya – *ko'laga*, baxil, xassiz – *kishiliksiz*, daraxt – *og'och*, qonuniyatlar – *ingichlar* va boshqalar.

Eng asosiysi, tavsiya etilayotgan yoki muomalaga kiritilayotgan so'zlar nafaqat mutaxassislar, ziyolilar, shu bilan birga, keng jamoatchilik tomonidan e'tirof qilinishi darkor. Shundagina ko'zlangan maqsadga erishiladi. Aks holda, istiqloqlning dastlabki yillaridagi holat yuz berishi mumkin. Ya'ni o'sha paytlarda *aeroport* so'zi o'rnida *qo'nalg'a*, *tayyoragoh*, *bandargoh* terminlari ishlatila boshlandi, institut atamasi *oliygoh*, *ilmgoh*, *bilimgoh* so'zlari bilan almashtirildi, *jurnal* so'zi o'rnida *oynama*, *majalla*, *jarida*, *oybitik* so'zlarini ishlatish taqdim etildi, *chetpul* (valyuta), *pultopar* (biznes), *hujjatasrov* (arxiv), *nusxakash* (notarius), *naqliyot* (transport), *malakasinov* (attestatsiya) singari terminlar ham yaratildi, amaliyotda qo'llash uchun tavsiya qilindi, lekin yangi tushunchalarning hammasi ham tildan joy olmadi, jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi.

Og'riqli nuqtalarimizdan yana biri shundaki, hozirgi jarayonda adabiy til bilan shevalarimiz o'rtasidagi tafovutlar, xususan, arxaik, tarixiy va etnografik tarixiy so'zlar, dialektizmlarning kamayib borishi kuzatilmoqda. Bugungi keksalarimiz bilgan va qo'llayotgan so'zlar, terminlar hamda iboralarni ularning nevaralari bilmasligi, ishlatmasligi mumkin. Qolaversa, badiiy adabiyotlar, matbuotda qo'llangan dialektizmlarning aksariyati adabiy tilda mustahkam o'rnashib qolmaydi. Davr o'tishi bilan ularning ko'pchiligi adabiy tilda turg'unlashsa, ba'zilar eskirgan, tarixiy so'zlar qatoriga o'tadi yoki shevalarning o'zida ishlatiladigan

bo'lib qoladi. Shuning uchun ham og'zaki va yozma nutqimizda adabiy tilni boyitadigan sheva so'zlariga ko'proq murojaat qilishimiz, ularni qo'llanish doirasini kengaytirishimiz kerak. Masalan, XX asr boshlarida *kupe* so'zi o'rnida *bo'lma*, *avans* so'zi o'rnida *bo'nak*, *mardikor* o'rnida *kunlukchi*, *samovar* so'zi o'rnida *o'zi qaynar* atamasi qo'llangan yoki bo'lmasa, professor B.Qosimov "inersiya" so'zi o'rnida "saldam"ni ishlatgan edi.

Ta'kidlash kerakki, ma'lum davrda shevada faol ifodalangan leksemalarning ayrimlari keyinchalik passivlashishi, so'ngra davr talabi bilan yana qayta tiklanib, shevada ham, adabiy tilda ham faol qo'llanadigan so'zlar sirasiga kirishi mumkin. VV asr boshlarida o'zlashgan *pudrat*, *firma*, *mulkdor*, *kredit* so'zlari 50 – 60-yillarga kelib eskirgan so'zga aylangan. Vaqt o'tishi bilan mustaqillik yillarida ular faol so'z sifatida qo'llana boshladi.

Shuning uchun ham respublikamiz hududidagi shevalarga xos leksik materiallarni to'plab, tizimlashtirib, hozirgi leksikografik talablarga javob beradigan hududiy lug'atlar tuzish, shu tariqa, o'zbek tilining ko'p jildli izohli lug'ati uchun zamin hozirlash kerak. To'g'risi, bu ulkan mashqatli ish, katta mehnatni talab qiladi, ammo uning ahamiyati ham shu qadar yuksak. Ustiga ustak mazkur ish bir-ikki yilda, uch-to'rt kishi bilan yoki moliyaviy ko'maksiz amalga oshmasligi turgan gap. Shunday bo'lsa-da, dastlabki bosqichda o'zbek tilining ko'p jildli izohli lug'ati so'zligini shakllantirib olish lozim bo'ladi. Haqli savol tug'iladi: Bunda qaysi manbalar asos vazifasini o'taydi? Bizningcha, bu borada quyidagilarga tayanishimiz zarur:

I. **Xalq og'zaki ijodi namunalari:** dostonlar, ertaklar, maqollar, matallar, qo'shiqlar, "Alpomish" dostoni lug'ati va hokazo.

II. **Qadimgi turkiy til (V – X asrlar): asr birinchi yarmi):** O'rxun-Yenisey yozuvi yodnomalari, turk-budda, turk-maoniy manbalari, "Qadimgi turkiy til lug'ati".

III. **Eski turkiy til (XI – XIV asr birinchi yarmi) :** "Qutadg'u bilig", "Devonu lug'otit turk", "Muqaddamat ul-adab", "Hibatul haqoyiq", "Qisasi Rabg'uziy" asarlari.

III. **XIII asr oxiri – XIV asrlarda mamluklar davrida tuzilgan lug'atlar:** "Tarjumon turkiy va ajamiy va mo'g'uliy", "Attuhfatu-z-zakiyatu fil lug'atit turkiya", "Kitob al-idrok li-lison al-atrok", Kitobk bulg'ot al-mushtoq fi lug'a at-turk va-l qifchaq.

IV. **Eski o'zbek adabiy tili (XIV asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari):** Qutb, Xorazmiy, Atoiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Abulg'oz Bahodirxon, Nodira, Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Abdulla Qodiriy, Buhbudiy, Fitrat, Cho'lpon kabi.

V. **Alisher Navoiy asarlari uchun tuzilgan lugʻatlar:** “Badoyi ul-lugʻat”, “Abushqa”, “Kelurnoma”, “Sangloh”, “Muntahab ul-lugʻat”, “Lugʻati chigʻatoyi va turki usmoniy”, “Navoiy asarlari lugʻati”, “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati”, “Alisher Navoiy ensiklopediyasi”, “Bobur ensiklopediyasi”.

VI. **Hozirgi oʻzbek adabiy tili (XX asr boshlaridan hozirga qadar):** Abdulla Qahhor, Gʻafur Gʻulom, Mirkarim Osim, Oybek, Hamid Olimjon, Asqad Muxtor, Odil Yoqubov, Primqul Qodirov, Shukur Xolmirzaev asarlari, “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”, “Maʼnaviyat lugʻati”.

VII. **Ilm-fanga doir lugʻatlar:** Masalan, matematika, kimyo, fizika, geografiya, biologiya, turizm, adabiyotshunoslik, huquqshunoslik, iqtisod, moliya, tilshunoslik, siyosatshunoslik, falsafa kabi fan sohalari terminlari yuzasidan yaratilgan lugʻatlar.

VIII. **Oʻzbek tilining qipchoq, qarluq, oʻgʻuz lahjalari boʻyicha yaratilgan lugʻatlar:** mazkur shevada soʻzlashadigan xalq jonli tili materiallari; oʻzbek tili shevalari doirasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda ilova qilingan lugʻatlar, shuningdek, mazkur shevalarga bagʻishlangan lugʻatlar; jumladan, “Oʻzbek xalq shevalari lugʻati”, “Surxondaryo oʻzbek shevalari lugʻati”, “Qashqadaryo oʻzbek xalq soʻzlari”, “Zominning til qomusi” va hokazo.

IX. Bugungi Oʻzbekiston hududidan tashqari (Afgʻoniston, Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Turkmaniston, Tojikiston)da yashayotgan xorij oʻzbeklari tiliga doir materiallar, tadqiqotlar, lugʻatlar.

X. **Professional leksika:** yaʼni kasb-hunarga oid leksik birliklar, xususan, dehqonchilik, chorvachilik, yilqichilik, paxtachilik, bogʻdorchilik, kiyim-kechak, qurilish, avtomobilsozlik terminlari kabi. Taxminimizcha, zikr etilgan manbalardan kamida bir millionga yaqin soʻzlik jamlanadi.

Tilga olingan vazifalar, muammolar, shuningdek, koʻp-lab sohalarda terminologik apparatning nomukammalligi, jara-yonning turli ishtirokchilari – olimlar, jurnalistlar, pedagoglar, ekspertlar, filologlar va boshqalar oʻzlari bilganicha, hech qanday muvofiqlashtirishsiz yangidan yangi soʻzlar yaratayotgani yoki rus tilidan kalkalab olayotgani til rivojiga salbiy taʼsir oʻtkazmoqda. Qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf qilish, har bir soha uchun tegishli terminologik apparat yaratish, atamalar unifikatsiyasini oʻtkazish singari vazifalarni bajarish uchun bunga masʼul boʻlgan hamda barcha sohalarga oʻz ishlanmalarini joriy etish uchun yetarlicha vakolatga ega maxsus tuzilma – Davlat tilini rivojlantirish

departamenti bosh-qosh bo'lishi kerak.

Xulosa

Tilni saqlab qolish xalq madaniyati, an'analari, urf-odatlarining umrboqiyiligini anglatadi. Chunki til xalqni birlashtiradi, tarbiyalashdi, o'qitadi, taraqqiyot va kelajak sari yo'naltiradi. Shunday ekan, "Devonu lug'otit turk"da ulug'langan, "Muhokamatul lug'atayn"da sharaflangan ona tilimizning mahalliy va xalqaro miqyosdagi obro'sini yuksaltirish, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida rivojlangan tillar qatoriga qo'shish uchun har birimiz tilimizga hurmat bilan yondashishimiz, Abdulla Avloniy aytmoqchi, "hifzi lison"ni hayotiy shiorimizga aylantirmog'imiz kerak. Zero, xorijiy tilni bilish insonning madaniyatli, ziyoli ekanligidan darak bersa, ona tilini bilish, e'zozlash, uning sofliги, yashovchanligini ta'minlash millatning har bir vakili uchun muqaddas burch sanaladi.

Adabiyotlar

- Алишер Навоий. 2000. *Муҳокаматул-луғатайн*. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн олтинчи том. Тошкент: Фан.
- Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1983-1985. I-IV. Тошкент: Фан.
- Дадабоев, Ҳ., Ҳамидов, З., Холманова, З. 2007. *Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи*. Тошкент: Фан.
- Жамолхонов, Ҳ., Умаров, А. 2017. *Ўзбек ёзувининг XX аср тарихи*. К.1. Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси.
- Маҳмуд Кошғарий. 1963. *Девону луғотит турк*. Уч томлик. III том. Тошкент: Ўзфанакаднашр.
- Содиқов, Қ. 2020. *Эски ўзбек адабий тили*. Тошкент: Akademnashr.
- Фитрат. 2006. *Танланган асарлар*. Ж.IV. Тошкент: Маънавият.

The Tradition of Lexical Borrowing

Bakhtiyar Abdushukurov¹

Abstrakt

This article is devoted to the improvement of the vocabulary of the Turkic languages, including the Uzbek literary language, by replacing words from other languages with external sources. The article also examines the tradition of appropriating words, what should be paid attention to in this case, taking into account the specifics of the Uzbek language when using appropriations and finding their Uzbek equivalents, and the problems in this regard. In particular, it is emphasized that the imperfection of the terminological apparatus in many areas, the fact that various participants in the process - scientists, journalists, teachers, specialists, philologists and others, as they know, without any coordination create new words or borrow from the Russian language, negatively affect the development of the language, and to eliminate the noted shortcomings, it is necessary to create an appropriate terminological apparatus for each area and unify terms.

Key words: *Turkic languages, Uzbek literary language, Sanskrit, Sogdian, Chinese, Greek, Arabic, Mongolian, Persian-Tajik, Russian, European languages.*

References

- Alisher Navoiy. 2000. *Muhokamatul-lug'atayn*. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. O'n oltinchi tom. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 1983-1985. I-IV. Toshkent: Fan.
- Dadaboev, H., Hamidov, Z., Xolmanova, Z. 2007. *O'zbek adabiy tili leksikasi tarixi*. Toshkent: Fan.
- Jamolxonov, H., Umarov, A. 2017. *O'zbek yozuvining XX asr tarixi*. K.1. Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi.
- Mahmud Koshg'ariy. 1963. *Devonu lug'otit turk*. Uch tomlik. III tom. Toshkent: O'zfanakadnashr.
- Sodiqov, Q. 2020. *Eski o'zbek adabiy tili*. Toshkent: Akademnashr.
- Fitrat. 2006. *Tanlangan asarlar*. J.IV. Toshkent: Ma'naviyat.

¹ Bakhtiyar B. Abdushukurov – Doctor of Sciences in Philology, Professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-pochta: abdashukurov@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-6964-0714

For citation: Abdushukurov, B. B. 2025. "The Tradition of Lexical Borrowing". *Golden Scripts* 1: 108 – 119.

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

“Oltin bitiglar – Golden Scripts” jurnali – Sharq adabiyoti va madaniyati, ijtimoiy-ma’naviy hayoti, tilshunoslik va aniq fanlar, dinshunoslik va ilohiyotshunoslikka oid ahamiyatli qo’lyozma manbalar, xalq og’zaki ijodi namunalari bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlar xulosalarini chop etishga mo’ljallangan.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo’lyozmalar yil davomida o’zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, turkiy tillarda topshirilishi mumkin. Agar muallif o’z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr etmoqchi bo’lsa, unda qo’lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etishi kerak.

Qo’lyozmalar MS Word (.doc) formatida (oltinbitiglar@gmail.com) elektron pochta yuborilishi kerak. Iqtiboslar va izohlar bo’yicha MS Word menejerini qo’llash lozim.

Barcha qo’lyozmalar muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma’lumot bilan yuboriladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig’i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o’ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo’lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantirilishi lozim.

Maqola matni 3 000–5 000 so’zdan iborat bo’lishi kerak.

100–150 so’zdan iborat o’zbek va ingliz tillaridagi abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so’zdan kam bo’lmagan kalit so’zlar (o’zbek va ingliz tillarida). Abstrakt maqolaning maqsadi, metodologiyasi va natijalarini qisqacha ifodalashi kerak.

Adabiyotlar ro’yxati 5 sahifadan oshmasligi lozim.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo’lishi mumkin) 1500 so’zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so’ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo’limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to’q bo’yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o’zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tillarda yozilgan bo’lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola sarlavhasidan keyin sahifaning o’ng chetida muallifning ism-familiyasi yozilib, oxiriga yulduzcha (*) ishorasi qo’yiladi va sahifa pastida muallif haqida quyidagi qisqa ma’lumotlar beriladi: F.I.O., ilmiy daraja va unvon; ish joyi; e-pochta va ORCID ID (raqami).

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.
Maqola bo'limlari sarlavhasi – *yotiq*, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satrboshidan, boshqa barcha qatorlari abzasdan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

6.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:

[Xondamir, Makorim, 17^a]

7.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011. *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011(a), 99]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Vohidov, Rahim va Husniddin Eshonqulov. 2006. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. Toshkent: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va Eshonqulov 2006, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Navoiy ijodida Ya'juj-Ma'juj obrazi." *Alisher Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 130 – 133. Toshkent: Mashhur-press.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 131]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Adizova, Iqboloy. 2020. *Thinker poetess of the East*. Germany: Lambert Academic Publishing. <https://www.lap-publishing.com/>. 12.07.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Adizova 2020, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 1987, 19-hujjat]

7.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Alimuhamedov, Rixsitilla. 2018. "Qadimgi turk-moniy adabiyoti." *Oltin bitiglar* 1: 65 – 76.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Alimuhamedov 2018, 70]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Saddi Iskandariy" dostonidagi adabiy ta'sir va o'ziga xoslik masalasi xususida." *O'zbekistonda xorijiy tillar* 3: 229 – 235. doi: 10.36078/1596780050.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 231]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi. Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?." *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Sobirov, Ergash va Akmal Kenjayev. 2010. "Milliy qadriyat va globallashuv". *New York Times*, 27.02. <http://www.nytimes.com/28/us/28health.html>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sobirov va Kenjayev 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "The Chicago Manual of Style, 16th Edition" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

IZOHLAR

Ushbu son "Oltin bitiglar" tahririyatida sahifalandi.
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib
ko'chasi 103-uy.
e-mail: oltinbitiglar@gmail.com
Tel.: +99894 697-97-04

Bosishga 30. 03. 2025-yilda ruxsat etildi
Qog'oz bichimi 70x100 1/16/.
nashriyot bosma tabog'i: 8

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot
va axborot agentligi tomonidan № 0940 raqami bilan ro'yxatdan
o'tgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi
tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan
doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi
lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga
qaytarilmaydi.

"Mashhur-Press" bosmaxonasida chop etildi.
Buyurtma №0443 Adadi 100 dona.
Bosmaxona manzili:100129 Toshkent, Markaz 15, 1-uy. Tel.:
+99890 900 75 77,
+99894 659 94 62